

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIM MARKAZI

TASHPULATOVA N.A.

STOMATOLOGIK KASALLIKLAR

Tibbiyot kollejlari o'quvchilari uchun darslik

3-nashr

Toshkent
«VORIS-NASHRIYOT»
2017

UO‘K 616.31(075)

KBK 56.6

T 29

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi
ilmiy-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Taqrizchilar:

D.G. Abdurahmonova – «Dilshod denta» stomatologik klinikasi bosh shifokori,
Sh.E. Utamov – M.Tursunxo‘jayeva nomli Toshkent tibbiyot kolleji o‘qituvchisi.

Tashpulatova, N.A.

Stomatologik kasalliklar. Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun
o‘quv qo‘llanma. / N.A. Tashpulatova. – «Voris-nashriyot». – 144 b.

Darslikda stomatologik kasalliklarning kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, zamonaviy tekshirish usullari, davolash va oldini olish chora-tadbirlari atroflichcha yoritilgan va rasmlar bilan boyitilgan. Darslikka OITV infeksiyasining oldini olish va og‘iz bo‘shlig‘ida kasallikning namoyon bo‘lish belgilari haqida to‘liq ma’lumot berilgan.

Darslik tibbiyot kollejlarining «Stomatologiya» yo‘nalishi o‘quvchilari va faoliyat yuritayotgan tish texniklari uchun mo‘ljallangan. Darslikni tayyorlashda ko‘p gina stomatologiya yo‘nalishi adabiyotlaridan, internet tarmog‘i ma’lumotlaridan foydalaniilgan.

UO‘K 616.31(075)

KBK 56.6

ISBN 978-9943-978-34-8

© N. Tashpulatova

© «Voris-Nashriyot», 2012, 2016, 2017-y.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishganidan so‘ng, barcha sohalardagi kabi ta’lim tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat tarmoq standartlari va o‘quv dasurlarining yangilanishi natijasida zamonaviy, takomillashtirilgan darsliklar yaratish ehtiyoji tug‘ildi.

Taqdim etilayotgan darslikda stomatologik kasalliklarning kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, zamonaviy tekshirish usullari, davolash va oldini olish chora-tadbirlari atroflicha yoritilgan va rasmlar bilan boyitilgan. Hozirgi kunda dolzarb bo‘lgan OITV kasalligining yuqishida stomatoglarning o‘rni, uni oldini olish va og‘iz bo‘shlig‘ida namoyon bo‘lish belgilari haqida to‘liq ma’lumot berilgan.

Darslik tibbiyot kollejlarining «Stomatologiya» tayyorlov yo‘nalishi o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan. Darslikni tayyorlashda turli yillarda chop etilgan stomatologiya yo‘nalishi adabiyotlaridan, Toshkent Tibbiyot Akademiyasi oliygohi professor – o‘qituvchilari tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanma va adabiyotlardan, internet tarmog‘i ma’lumotlaridan foydalanildi.

Ushbu darslikda kamchiliklar bo‘lishi tabiiydir, shuning uchun bizga bildirilgan tanqidiy fikr-mulohazalarni, maslahatlarni samimiyat bilan qabul qilamiz.


I BOB

OG'IZ BO'SHLIG'I ORGANLARI ANATOMIYASI, GISTOLOGIYASI VA FIZIOLOGIYASI

YUQORI JAG' SUYAGI

Yuqori jag' – (maxilla) kalla skeletining yuz qismiga kiruvchi, juft suyak. Bu suyakning tanasi va to'rtta o'sig'i bor. O'siqlari: peshona, yonoq, tanglay, alveola. Yuqori jag' peshona, yonoq, tanglay o'siqlari yordamida kalla skeleti suyaklari bilan tutashadi. Suyak tanasidan to'rt tomonga to'rtta o'siq ketadi. Peshona o'sig'i peshona suyagiga birlashadi, yonoq o'sig'i yonoq suyagi bilan birlashadi. Alveola o'sig'i past tomonga qaragan bo'lib unda tishlarning ildiz kataklari joylashadi. Tish ildizlari ushbu kataklarga kirib turadi. Tanglay o'sig'i o'zaro tutashib qattiq tanglayning oldingi 2/3 qismini tashkil etadi. O'ng va chap tanglay o'siqlari choc hosil qilib tutashadi. Chokning oldingi tomonida kurak tish teshigi ko'rinishib turadi va kanal bo'ylab davom etadi (1-rasm).

Yuqori jag' tanasining ichida havo saqlovchi bo'shliq bo'lib, ushbu bo'shliqni Gaymorov bo'shlig'i deb ataladi. Gaymorov bo'shlig'i 15–20 yoshlarda to'liq shakllanib bo'ladi u o'rtacha 3 smga ega bo'



1-rasm. Yuqori jag' suyagi:

1 – peshona o'sig'i; 2 – yonoq o'sig'i; 3 – alveola o'sig'i; 4 – tanglay o'sig'i;
5 – yuqori jag' bo'shlig'i.

lib yuqori 4,5,6 tishlar sohasida joylashadi. Birinchi katta oziq (molyar) tishlarninrg ildiz uchlari Gaymorov bo'shlig'i tubiga juda yaqin joylashadi, ba'zi hollarda bo'shliq qobig'i bilan to'qnashadi. Ildizlarning bunday joylashishi kasallangan tish orqali yallig'lanish Gaymorov boshlig'iga siljishi va unung yallig'lanishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari qayd qilingan tishlarni olishda Gaymorov bo'shlig'i tubining teshilishi natijasida oqmali yo'l ochilishi kuzatiladi. Bunday yallig'lanish odontogen gaymoritlar deb ataladi.

Yuqori jag'da 4 ta yuza farqlanadi: yuqori tomondan ko'z kosasiga qaragan yuza, oldingi tomondan yuzga qaragan yuza, medial burunga qaragan yuza va orqa tomondan chakka osti yuzasi.


Yuqori jag'da burun bo'shlig'i va Gaymorov bo'shlig'i bo'lganligi uchun nozikroq ko'rindi. Shunga qaramay bu ikkala bo'shliq chaynash vaqtida hosil bo'lgan bosimga qarshilik ko'rsata oladi. Yuqori jag'ning bunday chidamliligi undagi zikh suyak moddasidan tashkil topgan kuchli ustunlarning borligidir. Ustunlarni kontrforslar deb ataladi. Kontrforslar ovqatni uzib olish va chaynashda kelib chiqadigan kuchli zo'riqishlarni jag' bo'ylab taqsimlab, so'ngra kalla skeletining boshqa suyaklariga uzatadi. Yuqori jag' kontrforslari to'rtta bo'lib ular quyidagilar: burun – peshona, yonoq, tanglay, qanot – tanglay.

PASTKI JAG'

Pastki jag' (mandibula) suyagi kalla skeletining yagona harakatlanadigan suyagi. Pastki jag' ikki qismdan tashkil topgan: tanasi va o'siqlari. Pastki jag' embrional davrda ikkita yarim bo'laklardan iborat bo'lib, go'dak 1 yoshga to'lganida bitishi tugallanadi va u toq suyakka aylanadi. Suyak tanasining yuqori qismida alveola o'sig'i bo'lib unda alveola kataklari joylashadi (2-rasm).

Pastki jag'da ikkita o'siq joylashgan. Orqada joylashgan o'siq bo'-g'im o'sig'i, oldingi o'siq toj o'sig'idir. Pastki jag' shoxlarining ichki yuzasida pastki jag' teshigi bo'lib, pastki jag' kanali shu teshikdan boshlanadi.

Pastki jag'ning tanasi shoxlari bilan tutashib burchak hosil qiladi. Ushbu burchak inson hayoti davomida doimiy ravishda o'zgarib



2-rasm. Pastki jag‘ suyagi:

1 – molyar orqa chuqurchasi; 2 – iyak bo‘rtmasi; 3 – tanasi; 4 – pastki jag‘ burchagi; 5 – bo‘g‘im o‘sig‘i; 6 – toj o‘sig‘i.

boradi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqda burchak 140° ga, tishlar chiqqanidan so‘ng 130° – 138° ga teng bo‘lishi, yoshi ulg‘ayib tishlari tushib ketsa yana burchak kattalashadi.

Pastki jag‘ning yuzasi g‘adir-budurlikdan iborat. Ushbu g‘adir-budurliklarga chaynash muskullari birikadi. Pastki jag‘ o‘zining tuzilish xususiyatiga ko‘ra tashqi ta’sirlarga chidamlidir, shuning uchun ham yuqori jag‘ga nisbatan pastki jag‘ning deformatsiyasi kam uchraydi.

OG‘IZ BO‘SHLIG‘I

Og‘iz bo‘shlig‘i (cavum oris) hazm kanalining boshlang‘ich bo‘limi hisoblanadi. Bu bo‘shliq oldingi va yon tomondan lablar va lunjlar bilan, yuqordan tanglay, pastdan og‘iz bo‘shlig‘ining tubi bilan chegaralangan. Orqa tomondan og‘iz bo‘shlig‘ining devori yo‘q bo‘lib tomoq orqali halqum bo‘shlig‘iga tutashadi. Tomoq yuqori tomondan yumshoq tanglay bilan, yon tomondan tanglay ravoqlari bilan, pasttomondan til ildizi bilan chegaralanadi.

Og‘iz bo‘shlig‘i ikki qisimdan iborat: og‘iz dahlizi va asl og‘iz bo‘shlig‘i. Og‘iz dahlizi lablarning va lunjlarning ichki yuzasi bilan tishlar va milklarning orasidagi oraliq. Og‘iz dahlizi og‘iz teshigi orqali tashqi muhitga tutashadi. Og‘iz bo‘shlig‘i og‘iz bo‘shlig‘ining tishlar va milklarning ichki tomondagi qismidir.

Lablar asosan og‘izning doira muskullaridan tashkil topgan. Lablar sirdan teri bilan, ichkaridan esa shilliq parda bilan qoplangan. Lunjlar lunj muskullaridan tashkil topgan bo‘lib sirdan teri bilan, ichkaridan esa shilliq parda bilan qoplangan.

Tanglay og‘iz bo‘shtag‘ining yuqori devorini tashkil etadi. Orqa tomonda qattiq tanglay yumshoq tanglayga o‘tadi. Yumshoq tanglay shilliq parda bilan qoplangan muskullardan tashkil topgan. Yumshoq tanglayning orqadagi qismi tanglay pardasini hosil qiladi. Unda o‘rta chiziq bo‘ylab tilcha joylashadi. Og‘iz bo‘shtag‘ining tubi til bilan qoplangan bo‘ladi.

Og‘iz bo‘shtag‘i shilliq pardasi (tunika, mucosa, oris) uch qavatdan tashkil topgan: epiteliy, asli shilliq qavat va shilliq osti qavati. Asl shilliq qavati epiteliy bilan qoplangan. Og‘iz bo‘shtag‘i shilliq pardasini tanglay, labning qizil hoshiyasi va biroz milk qisimlaridagi epiteliyda shohlanishga moyillik seziladi. Epiteliy ostida bazal membranani hosil qiluvchi argirofil tolachalar chigali bor. Ushbu qavatlardan so‘ng ogiz bo‘shtag‘i shilliq pardasining asl qavati joylashadi. Asl qavati yahlit biriktiruvchi to‘qimadan tuzilgan bo‘lib asosiy modda, tolali tuzilmalar va hujayralar bor. Og‘iz bo‘shtag‘i shilliq pardasining asl qavatida juda ham ko‘p kichik so‘lak bezlari joylashgan. Undan tashqari qon tomirlar va nerv oxirlari joylashgan. Shilliq osti qavati birmuncha g‘ovak birikti-ruvchi to‘qimadan iborat bo‘lib, qattiq tanglay va milk sohalarda uchraydi.

Og‘izning turli qisimlardagi shilliq parda turlicha. Labning qizil hoshiyasi terining shilliq pardaga o‘tish chegarasi hisoblanadi. Labda yog‘ bezlari bo‘lib ter bezlari, soch va shilliq osti qavatida yo‘q. Lab shilliq pardasida juda ham ko‘p mayda so‘lak bezlari joylashgan. Lablar milkka shilliq pardadan hosil bo‘lgan parda, lab yuganchasi yordamida tutashadi. Ayrim insonlarda ushbu lab yuganchaning kaltaligi kuzatiladi, bu esa markaziy kurak tishlarning orasida yoriq bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Lunjning shilliq pardasida shilliq osti qavati yaxshi rivojlangan. Bu lunj shilliq pardasining harakatchangligini ta‘minlaydi. Shilliq osti qavatida yog‘ bezlari, qon tomirlar joylashgan. Lunjning yuqori oltinchi tishlar sohasida qulq oldi so‘lak bezining ochilish nayi joylashgan bo‘lib undan doimiy ravishda shaffof suyuqlik so‘lak ajralib chiqib turadi. Milk anotomik uch qisimdan tashkil topgan: marginal, alveolar va milk so‘rg‘ichi. Milkda shilliq osti qavati yo‘q, shuning uchun milk alveola o‘sig‘ining suyak usti pardasiga jips birikib turadi.

Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasi quyidagi funksiyalarni bajaradi: himoya, plastik, sezish va so‘rilish. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasi qator mikroorganizmlar uchun baryer hisoblanib himoya funksiyasini bajaradi. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasining plastiklik funksiyasi terining plastiklik funksiyasidan 3–4 barobar yuqori. Shunung uchun bu yerda regeneratsiya jarayoni tez kechadi va natijada jarohatlar tez bitadi. Sezish funksiyasi og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasida ko‘pgina retseptorlar (ta’mni, haroratni, bosimni sezuvchi hujayralar) joylashganligi uchun amalga oshadi. Ushbu retseptorlar sovuqni, issiqni, og‘-riqni, ta’mni va taktil sezgilarni (bosimni sezish) his qilishni ta’minlaydi. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasida bir qator organik va noorganik moddalar so‘riladi. Bu moddalar aminokislotalar, antibiotiklar, dori moddalar va boshqalar.

TISHLAR

Tish-(dens). Tishlar inson hayoti mobaynida muhim rol o‘ynaydi. Ular ovqatni uzib olish, mexanik maydalash, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishda ham ishtirok etadi. Inson hayotida tishlar ikki marotaba chiqadi. Tish murtaklari homilaning 6–7 haftaligidan boshlab rivojlanadi. Avval sut tishlar chiqib, so‘ng doimiy tishlar bilan almashadi. Tishlar chiqish mexanizmi judayam murakkab va to‘liqligicna o‘rganilmagan.

Sut tishlar 20 ta bo‘lib, har bir jag‘da 10 tadan joylashgan. Sut tishlarning hosil bo‘lish va ildizlarning so‘rilish muddatlari:

I-jadval

**Sut tishlar murtagining minerallanishi, chiqish, ildizlarning shakllanish
va so‘rilish muddatlari**

Tishlar	Minerallanishning boshlanishi	Chiqish muddati	Ildizning shakllanish muddati	Ildizlarning so‘rilishi
I	4 1/2	6–8 oy	2 yoshning oxiri	5 yoshdan
II	4 1/2	8–12 oy	2 yosh	6 yoshdan
III	7 1/2	12–16 oy	4 yosh	7 yoshdan
IV	7 1/2	16–20 oy	5 yosh	8 yoshdan
V	7 1/2	20–30 oy	4 yosh	7 yoshdan

Sut tishlar adabiyotlarda, tibbiyot hujjatlarida rimcha raqamlar bilan belgilanadi.

Sut tishlarning anatomik formulasi:

2102	2102
2012	2102

Sut tishlarning klinik formulasi:

V IV III II I	I II III IV V
V IV III II I	I II III IV V

Agar og‘iz bo‘shtlig‘ida faqatgina sut tishlar bo‘lsa, ushbu prikusni sut prikusi (tishlovi) deb ataladi.

Bolaning 6–7 yoshiga kelib doimiy tishlar chiqqa boshlaydi va ushbu prikusni almashinuv prikusi deb ataladi. Almashinuv prikusi oxirgi sut tish tushguncha davom etadi.

Doimiy tishlar 28 tadan 32 tagacha bo‘ladi. Jag‘ning har yarmi 2ta kurak, 1ta qoziq, 2ta premolyar (kichik oziq tishlar), va 3ta molyar (katta oziq tishlar)dan iborat.

2-jadval

Doimiy tishlar murtagining minerallanish, chiqish va ildizlarining shakllanish muddatlari

Tishlar	Murtak hosil bo‘lishning boshlanishi	Chiqish muddati	Ildizlarning shakllanish muddati
1	Homiladorlikning 8-oyidan	6–8 yosh	10 yosh
2	-----	8–9 yosh	10 yosh
3	-----	10–11 yosh	13 yosh
4	2 yoshdan	9–10 yosh	12 yosh
5	3 yoshdan	11–12 yosh	12 yosh
6	Homiladorlikning 5-oyidan	6 yosh	10 yosh
7	3 yosh	12–13 yosh	15 yosh
8	5 yosh	har xil	har xil

Doimiy tishlar adabiyotlarda va tibbiyot hujjatlarida arabcha raqamlar bilan belgilanadi.

Doimiy tishlarning anatomik formulasi:

3212		2123
3212		2123

Doimiy tishlarning klinik formulasi:

87654321		12345628
87654321		12345628

BSU (VOZ) bo'yicha tish formulasi:

18,17,16,14,13,12,11		21,22,23,24,25,26,27,28
48,47,41,45,44,43,42,41		31,32,33,34,35,36,37,38

Tishlar turli vazifalarni bajaradilar. Kurak va qoziq tishlar ovqat luqmasini kesib, uzib oladilar premolyar va molyarlar ovqat luqmasini maydalaydilar. Ularning shakli bajaradigan vazifasiga ko'ra turlicha: kesuv tishlarda o'tkir qirra, chaynov tishlarda do'mboqliklar bor.


TISH GURUHLARI

Tishlar shakli va bajaradigan vazifasiga qarab 4 guruhgaga bo'linadi:

1. Kesuv tishlar;
2. Qoziq tishlar;
3. Kichik oziq tishlar – premolyarlar;
4. Katta oziq tishlar – molyarlar.

Har bir tish beshta yuzadan iborat:

1. Dahliz (vestibular) yuza – tishning lab va lunjga qaragan yuzasi;
2. Oral yuza – tishning asl og'iz bo'shlig'iga qaragan yuzasi;
3. Aproksimal medial yuza – tishning yuz markaziga yaqin bo'lgan yon yuzasi;
4. Aproksimal distal yuza – yuz markazidan uzoq joylashgan yon yuzasi;



3-rasm. Tish guruhlari:


a) kesuv tishlar; b) qoziq tishlar; d) premolyarlar; e) molyarlar.

5. Kesuv yoki chaynov yuza – kurak tishlarda kesuv yuza, kichik oziq tishlar va katta oziq tishlarda chaynov yuza.

TISHNING ANATOMIK TUZILISHI

Har bir tish uch qismdan iborat: toj, bo'yin, ildiz (4-rasm). Tishning toj qismi deb tishning milkdan tashqariga chiqib turgan qismiga aytildi. Bo'yin deb tish tojning ildiziga o'tish joyiga aytildi. Ildiz deb tishning milk ostida, jag' suyaklarining alveola kataklarida joylashgan qismiga aytildi. Bir, ikki, uch ildizli tishlar bo'ladi. Ayrim hollarda 4,5 ildizli tishlar ham uchraydi. Tishlar bajaradigan vazifasiga mos ravishda har xil anatomik shaklga ega.

Har bir tishning ichida bo'shliq bo'lib, u har xil ko'rinishga ega. Bu bo'shliqni tish bo'shlig'i deb ataladi. Tish bo'shlig'i ikki qisimdan iborat: toj va ildiz qismidagi ildiz kanallaridan iborat. Ildiz kanali ildiz uchida teshik bilan tugaydi. Tish bo'shlig'ini pulpa (yumshoq to'qima) to'ldirib turadi.



4-rasm. Tishning anatomik tuzilishi:
a – toj, b – bo'yin,
d – ildiz.

TISHNING GISTOLOGIK TUZILISHI

Tish qattiq to‘qimalardan va yagona yumshoq to‘qimadan tashkil topgan. Tishning qattiq to‘qimalari: emal, dentin, sement. Tishning yumshoq to‘qimasi: pulpa (5-rasm).

Emal. Tishning toj qismi emal bilan qoplangan. Emal to‘qimasi odam organizmidagi eng qattiq to‘qima, qattiqligi olmos qattiqligiga teng. Emal 96,4% anorganik va 1,2% organik moddalardan va 3,8 % suvdan tashkil topgan. Anorganik moddalardan mineral tuzlar va gidrooksiapatitdan tashkil topgan bo‘lib, o‘rtacha kalsiy – 37%, fosfor – 17% ni tashkil etadi.


Emalning asosiy tuzilishini dentinda tish sathiga yo‘nalgan emal prizmalar va prizmalararo moddalardan tashkil topgan.

Emal to‘qimasi tish toj qismini har hil qalinlikda qoplaydi. Masa-
lan, chaynov tishlarda emalning qalinligi bo‘yin qismida 0,01 mm, tish
do‘mboqligida 1,7 mm, tish fissurasida 0,6 mm ni tashkil etadi. Emal
do‘mboqlari orasidagi chuqurcha himoya vazifasini bajaradi, ya’ni den-
tinni tashqi muhit taassurotlaridan saqlaydi.

Dentin. Dentin to‘qimasi suyak to‘qimasiga o‘xshab ketadi. Suyak
to‘qimasidan qattiqroq. Dentin 70–72 % anorganik moddalardan tash-
kil topgan. Anorganik moddalarning asosiy qismini: fosfat va karbonat

kalsiy tuzlari, ftorid kalsiy, magniy,
natriy va boshqa mikroelementlar tash-
kil etadi. 15–20%ni organik moddalar:
oqsil, yog‘, 10–12%ni suv tashkil etadi.

Dentin tishning asosiy tayanch to‘-
qimasi bo‘lib ikki qismidan tashkil
topgan: toj qismidagi dentin va ildiz
qismidagi dentin. Toj qismidagi dentin
emal to‘qimasi, ildiz qismidagi dentinni
sement to‘qimasi qoplab turadi. Den-



5-rasm. Tishning ko‘ndalang kesmasi:

1 – emal; 2 – dentin; 3 – pulpa; 4 – ildiz
kanali; 5 – sement; 6 – qon tomiri tutami.

tinda makro va mikro kanallar bor. Dentin kanallarining soni 1mm²da 30 000 dan 75 000gacha yetadi. Dentin kanallarining ichida dentin suyuqligi bo'lib u modda almashinuvida ishtirok yetadi. Dentin sementni oziqlantirishda ishtirok etadi. Birlamchi va ikkilamchi dentindan tashkil topgan. Birlamchi dentin tish murtak davrida shakllanayotganida hosil bo'ladi. Ikkilamchi dentin tish milkni yorib chiq-qanidan so'ng hosil bo'ladi. Tish qattiq to'qimalari kasalliklarida pulpa to'qimasining himoya reaksiyasi ta'sirida uchlamchi dentin hosil bo'ladi.


Sement. Tish ildizi sement to'qimasi bilan qoplangan. Sement to'qimasi ham suyak to'qimasiga o'xshaydi va u 60% neorganik va 40% organik moddadan tashkil topgan. Sement inson hayoti davomida doi-miy ravishda paydo bo'lib o'zgarib turadi. Sement dentin va pereodont hisobiga oziqlanadi. Sement tishni alveola katagida joylashib turishida muhim o'rinni tutadi.

Gistologik tuzilishiga ko'ra ikki xil sementdan iborat: birlamchi hujayrasiz va ikkilamchi hujayrali sement. Ikkilamchi hujayrali sement tuzilishi hamda tarkibiga ko'ra dag'al tolali suyak to'qimasiga o'xshaydi. Ikkilamchi dentin ildizning uchki qismi va bifurkatsiya qismida joylashadi. Birlamchi hujayrasiz sement ildizning qolgan hamma yuzasini qoplaydi.

Pulpa. Pulpa tishning yagona yumshoq to'qimasi. Pulpa to'qimasi biriktiruvchi to'qima bo'lib, qon tomirlari, limfa tomirlari va nerv tolalariga boy bo'lib u tish bo'shlig'ini to'ldirib turadi. Pulpa ikki qismdan iborat. Toj qismidagi pulpa va ildiz qismidagi pulpa. Toj qismidagi pulpa ildiz qismidagi pulpadan farq qiladi. Ildiz qismidagi pulpada kolagen tolalar ko'proq bo'lganligi uchun qattiqroq. Pulpa ildiz uchi teshigi orqali periapikal soha bilan tutashadi. Pulpa dentinni hosil qilish, oziqlantirish, qisman emalning modda almashinuvida ishtirok etish, turli taassurotlarni sezish funksiyalarini bajaradi.

PERIODONT

Periodont tish katagi devori bilan ildiz yuzasi oralig'idagi bo'shilqda joylashgan. Bu bo'shilq periodont yorig'i deb ataladi. Periodont



6-rasm. Periodont:

1 – periodontal yoriq, 2 – periodont to‘qimasining tolalari,
3 – tishning aylanma bog‘lami.

yorig‘ining kengligi ildizning turli sathlarida, yuzalarida bir xil emas va u 0,35–0,8 mm gacha bo‘ladi. Kataknинг о‘рта qismida periodontal yoriq toraygan bo‘lib, shu sababli uni qum soatiga o‘xshatiladi. Periodont to‘qimasi tolalari ildizning turli qismlarida turli yo‘nalishga ega va unda quyidagi guruh tolalari joylashgan: tish milk tolalari, tish alveola tolalari va tishlararo tolalar (6-rasm).

Tish milk tolalari milk cho‘ntagidagi sement chetidan boshlanib yelpig‘ichsimon yo‘nalishda milk to‘qimasi bilan birikadi. Tola tutamlari vestibulyar va oral (og‘iz bo‘shlig‘iga qaragan yuza) yuzada yaxshi, aproksimal (yon) yuzalarda zaif rivojlangan. Ularning qalinligi 0,1mm ni tashkil etadi.

Tishlararo tolalarning tutamlari 1–1,5 mm bo‘lib, bir tishning sementdan boshlanib, yonida joylashgan tishning sementiga birikadi. Bu tolalar tish qatorining butunligini ta’minlashda ishtirok etadi.

Tish alveola tolalari ildizning butun yuzasidagi sementidan boshlanib ildiz katagi devoriga birikadi. Ildiz uchi qismida tolalar vertikal yo‘nalishga ega. Ildiz uchiga yaqin qismida tolalar gorizontal, ildiz о‘rtasi va yuqori 1/3 qismida tolalar qiyshiq yo‘nalgan.

Periodont quyidagi funksiyalarni bajaradi: tishni alveola katagida ushlab turadi, tishga tushadigan bosimni tarqatadi (amortizatsiya), baryer-mudofa qilish vazifasini bajaradi, trofik ya’ni sementni oziqlantirishda ishtirok etadi. Hamda tish almashinuvida ishtirok etadi.

PARODONT

Parodont to‘qimalar kompleksi bo‘lib, quyidagi to‘qimalardan tashkil topgan: milk, alveola o‘sig‘i, suyak usti pardasi periodont to‘qimasi va ildiz sementi. Parodont to‘qimalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, anatomik, funksional va genetik jihatdan bir butundir. Parodont to‘qimalarining nerv, limfa va qon tomirlari ham bir butundir.

Parodont quyidagi vazifalarni bajaradi.

- | | |
|-----------------------|----------------------------|
| 1. Trofik. | 4. Baryerlik. |
| 2. Ushlab turuvchi. | 5. Plastik. |
| 3. Amortizatsiyalash. | 6. Reflektor regulyatsiya. |


Himoya funksiyasi parodontning butunligini ta‘minlaydi. Bu esa butun organizmni noxush patologik faktorlar ta’siridan himoya qiladi. Parodont infeksiya, intoksikatsiya va ta’sir etuvchi bosimning ortishiga chidamli. Parodontning trofik funksiyasi asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Bu funksiya keng tarmoqlangan kapilyarlar tizimi va nerv retseptorlari bilan ta‘minlanganligi uchun amalga oshadi. Parodontning plastiklik funksiyasi uning fiziologik va patologik ta’surotlar oqibatida yo‘qotgan to‘qimalarini doimiy ravishda tiklanishida namoyon bo‘ladi. Amortizatsiya funksiyasini amalga oshirishda periodontdagi kolagen va elastik tolalar muhim o‘rin tutadi. Ushbu tolalar ovqat luqmasini chaynash vaqtida hosil bo‘lgan bosim ta’siridan alveola o‘sig‘ini, periodontdagi qon va nerv tolalarni jarohatlanishdan himoya qiladi.

TISHLARNING FARQLOVCHI BELGILARI

Tishning qaysi jag‘ va tomonga taalluqlilagini uchta asosiy belgiga asoslangan holda aniqlanadi (7-rasm).

1. Tish toji burchagi belgisi.
2. Toj belgisi.
3. Tish ildizining nishablanish belgisi.

Tish toji burchagi belgisi. Aproksimal medial va kesuv yuza hosil qilgan burchak, distal va kesuv yuza hosil qilgan burchakka nisbatan kichik. Burchaklar belgisi yuqori markazi, yon kurak va kichik oziq tishlarda aniq namoyon bo‘ladi.



7-rasm. Tishlarni farqlovchi belgilar:

a, e – burchak belgisi; b, f – toj belgisi; d, g – ildiz belgisi.

Toj belgisi. Tishlarning lab, lunj va medial yuzalari do‘mboqroq bo‘lib, distal tomonga qarab biroz pasayib boradi. Tishlarning toj belgisi okklyuzion (chaynov yoki kesuv) yuzadan qaraganda aniq kordinadi.

Ildiz belgisi. Ildizlar tishning vertikal o‘qiga nisbatan biroz yon-distal tomonga nishablangan bo‘ladi. Ildizlar belgisiga qarab tishning o‘ng yoki chapligi aniqlanadi.

Tayanch iboralar:

Yuqori jag‘ – kalla skeletining yuz qismiga kiruvchi, juft suyak;

Gaymorov bo‘shlig‘i – yuqori jag‘ tanasining ichida joylashgan, burun bo‘shlig‘iga ochiladigan havo saqllovchi bo‘shliq;

Kontrforslar – zinch suyak moddasidan tashkil topgan ustunlar;

Pastki jag‘ – kalla skeletining yuz qismiga kiruvchi, yagona harakatlanadigan suyak;

Og‘iz bo‘shlig‘i – og‘iz dahlizi va asl og‘iz bo‘shlig‘idan tashkil topgan hazm kanalining boshlang‘ich bo‘limi;

Emal – tishning toj qismini qoplab turuvchi to‘qima;

Dentin – tishning asosiy tayanch to‘qimasi;

Sement – tish ildiz qismini qoplab turuvchi to‘qima;

Pulpa – tish bo‘shlig‘ini to‘ldirib turuvchi, biriktiruvchi to‘qima bo‘lib, qon tomirlar, limfa tomirlar va nerv tolalardan tashkil topgan;

Periodont – tish katagi devori bilan ildiz yuzasi oralig‘idagi bo‘shliqda joylashgan biriktiruvchi to‘qima;

Parodont – milk, alveola o‘sig‘i, suyak usti pardasi, periodont va ildiz sementidan tashkil topgan to‘qimalar kompleksi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Yuqori jag‘ suyagi nechta qisimdan iborat?
2. Gaymorov bo‘shlig‘i qayerda joylashgan?
3. Pastki jag‘ nechta qisimdan iborat?
4. Pastki jag‘ kalla skeletiga qanday birikadi?
5. Og‘iz boshlig‘i yuqori qisimdan qanday chegaralanadi?
6. Og‘iz bo‘shlig‘ining shilliq pardasi qanday tuzilishga ega?
7. Og‘iz bo‘shlig‘ining shilliq pardasi qanday funksiyalarni bajaradi?
8. Inson hayotida tishlar hecha bor chiqadi?
9. Sut tishlar nechta?
10. Sut tishlar tibbiyot hujjatlarida qanday belgilanadi?
11. Sut tishlar qanday anatomik formulaga ega?
12. Doimiy tishlar nechta?
13. Doimiy tishlarning klinik formulasi qanday ifodalanadi?
14. Qanday tish guruuhlarini bilasiz?
15. Har bitta tishda nechta yuza farqlanadi?
16. Tish qanday anatomik tuzilishga ega?
17. Tish qanday to‘qimalardan tashkil topgan?
18. Emal qayerda joylashadi va qanday vazifani bajaradi?
19. Dentin qanday kimyoviy tarkibga ega?
20. Sementning qalinligi qancha?
21. Pulpa nechta qisimdan iborat?
22. Pulpa qanday vazifani bajaradi?
23. Periodontal yoriq deganda nimani tushunasiz?
24. Periodont qanday vazifani bajaradi?
25. Parodont qanday vazifalarni bagaradi?

II BOB

AHOLIGA STOMATOLOGIK YORDAM

TASHKIL ETISH

Poliklinik stomatologik yordam turli davolash profilaktika muas-salarida: viloyat, shahar, tuman stomatologik poliklinikalarda, xususiy poliklinikalarda hamda tuman shifohonalari qoshidagi stomatologik xonalarda amalga oshiriladi. Stomatologik poliklinikada quyidagi bo'lim va xonalar bo'lishi rejalashtirilgan: terapevtik, jarrohlik va ortopedik stomatologiya bo'limi tish protezlash laboratoriyasi bilan. Terapevtik stomatologiya bo'limida tish, parodont va og'iz bo'shlig'i shilliq pardasi kasalliklari davolanadi. Jarrohlik stomatologiya bo'limida tish va ildizlarni olish operatsiyasi amalga oshiriladi. Ortopediya bo'limida tish va tish qatori nuqsonlari ortopedik protezlar yordamida tiklanadi. Ortopediya bo'limining tarkibiga tish texnikligi laboratoriyasi va quyish sexi kiradi. Agar tumanda alohida bolalar stomatologik poliklinikasi bo'lmasa kattalar stomatologik poliklinikasi qo-shida bolalar stomatologiya bo'limi ortodontik xona bilan birgalikda tashkil etiladi.

STOMATOLOGIK XONALARING

JIHOZLANISHI

Terapevtik bo'lim tish kasalliklarini davolash xonasi yaxshi tabiiy yorug'lik bilan yoritilgan bo'lib, agar bitta stomatologik ish joyi bo'lsa 14 m^2 ga teng bo'lishi kerak. Har bir qo'shimcha ish joyi uchun 7 m^2 , stomatologik uskunalar uchun 10 m^2 joy qo'shilishi kerak. Xonaning balandligi 3,3 m dan kam bo'lmasligi, stomatologik kreslolar bir qatarga o'rnatilgan bo'lishi, devorlari och rangli moyli bo'yoq bilan bo'yagan, pollari linoleum bilan qoplangan bo'lib, gigiyenik talablarga javob berishi kerak. Terapevt stomatologning xonasi quyidagi santiariya me'yorlarga asoslanishi lozim: stomatologning xonasida ikkita

qo'l yuvgich bo'lib, u issiq va sovuq suv bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Birinchi qo'l yuvgichda qo'l yuvilsa, ikkinchisida stomatologik asbob-anjomlarni yuviladi. Stomatologik xona markaziy isitgich tar-mog'iga ulangan bo'lib, xona harorati 20°C, namligi 50–60% bo'lishi kerak. Stomatologik kreslolar tabiiy yorug'likka qaratib o'rnatilishi, derazalarning kengligi polning kengligiga bo'lgan nisbati 1:4–1:5 atro-fida bo'lishi kerak. Buning uchun tabiiy yorug'likdan tashqari sun'iy yorug'likning bo'lishini ham talab etadi. Hona luminessent lampalar bilan yoritilishi va uning yoritilish darajasi 500 lk ni tashkil etishi kerak. Terapevt stomatolog xonasida bemor uchun stomatologik kreslo, universal trubin bor mashina, tish qattiq karashlarini olish uchun apparat, stomatologik to'plam va endodontik asboblar bo'lishi lozim. Shifokor uchun ish joyi quyidagilarni o'z ichiga oladi: stomatologik mos-lama, kreslo, dori-darmon va xomashyolar uchun stol, shifokor uchun o'rindiq. Stomatologik xonada hamshira va kichik tibbiy xodim uchun ham ish joyi bo'lishi shart. Bularidan tashqari xonada xomashyo va asbob-uskunalarni saqlaydigan shkaf, zaharli moddalarni saqlash uchun (A) shkaf, kuchli ta'sir etuvchi moddalarni saqlash uchun (B) shkaflar bo'lishi lozim.

Jarrohlik xonasida agar bitta kreslo o'rnatilgan bo'lsa uning may-doni 23 m² ni tashkil etgan bo'lib, har bir qo'shimcha kreslo uchun 7 m² qo'shilishini talab etadi. Bu xonada tashxisni aniqlash, davolash va tish olish operatsiyasi amalga oshiriladi. Jarrohlik xonasida stomatologik kreslo, soya tushirmaydigan maxsus lampa, asboblar uchun stol, elektr bor mashina, tish va ildiz olish uchun asboblar bo'lishi lozim. Tabiiy yorug'likdan tashqari xonada sun'iy yorug'lik ham bo'lishi zarur. Sun'iy yorug'lik 150 lk dan kam bo'lmasligi, hamda xona lumi-nissent, galogen yorug'lik manbalaridan foydalanib yoritilishi maq-sadga muvofiq.

Stomatologik xonada kvarts lampasi o'rnatilgan bo'lishi va har kuni xonani lampa yordamida kvartslash zarur. Har bir stomatologik xonada steril (qaynatilgan) asbob va bog'lov materiallari uchun stol bo'lishi kerak. Steril oqliklar solingan stol va steril asboblar har kuni yangilanishi kerak.

STOMATOLOGIK MOSLAMALAR

Bemorga malakali stomatologik yordam ko'rsatish uchun maxsus stomatologik moslamalar zarur bo'ladi. Asosiy stomatologik moslama-larga quyidagilar kiradi: bemor uchun stomatologik kreslo, elektrili yoki trubinali bor mashina, stomatologik moslama, shifokor uchun o'rindiq.

Bemor uchun stomatologik kresloda, bemor boshini davolovchi shifokorga qulay holatda tutib turishi uchun bosh qo'ygich moslamasi bor. Stomatologik kreslo asosan ikki qismdan tashkil topgan. Stomatologik kreslolarning quyidagi rusmdagilaridan foydalaniladi: KZ-2, K3-8, 9,10, KSUI-0,1,0,3,04, KSRD-1.

BOR MASHINALAR

Tishlarni davolash tish qattiq to'qimalarini charxlash tadbirini amalga oshirish bilan olib boriladi. Tish qattiq to'qimalarini charxlashni bor mashinalar yordamida amalga oshiriladi. Bor mashinalarning turi har-xil: BES 10, BK-1, BEPB-3, BPK-300, BEO-30-2 va boshqalari mavjud.

Stomatologiyaning rivojlanishi stomatologik moslamalarning ham murakkablashib, stomatologik yordamni yaxshilanishiga sabab bo'lmoqda. Stomatologik moslama o'z ichiga avtomatik boshqariladigan kreslo, yoritgich, kompressor va og'iz bo'shlig'ida turli muolajalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan moslamalardan tashkil topgan: tish to'qimasini charxlash, tishni karashlardan tozalash, so'lakni so'rish, havo va suvni purkash, diomermokogulyator, rentgenodiagnostika va boshqalar. Stomatologik moslamalar USU-30, US-30, US30/3000, US 10, YUNIS, YUgodent, Xirodent, Kavo, Probodivarlardan foydalaniladi.

STOMATOLOGIK ASBOBLAR

Stomatologik asboblar foydalanish sohasiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1. Terapevtik asboblar.

2. Jarrohlik asboblari.

3. Ortopedik asboblар

Terapevtik asboblар. Terapevtik asboblар 5 ta guruhga bo‘linadi.


1-guruh. Og‘iz bo‘shlig‘i va tishlarni tekshirish uchun ishlatiladigan asboblар.

Bu guruhga to‘g‘ri va burchakli zond, stomatologik oyna, stomatologik pinset asboblari kiradi (8-rasm).

Stomatologik oyna. Stomatologik oyna yordamida ko‘rish uchun noqulay bo‘lgan sohalar ko‘rigi o‘tkaziladi, qo‘sishimcha yoritiladi, lab, lunj, tilni travmalardan himoya qilish maqsadida ushlab turiladi.

Stomatologik zond. Ikki qismdan ishchi qismi va dastasidan tashkil topgan. Stomatologik zondni ikki xil turi (to‘g‘ri va burchaklisi) mavjud. Zond yordamida kariyes kovagi borligi, uning chuqurligi, og‘riqli nuqtalari aniqlanadi. Mahsus belgili zond yordamida milk mavjud cho‘ntagining chuqurligi aniqlanadi.

Stomatologik pinset. Stomatologik pinsetning ishchi qismi o‘tmas burchak ostida bukilgan. Pinsetdan paxtali tamponlarni ushlab og‘iz



8-rasm. Stomatologik to‘plam:

1 – stomatologik oyna; 2 – pinset; 3 – stomatologik zond;

4 – ekskavator; 5 – shpatel.

bo'shlig'iga kiritishda, tishning qimirlash darajasini aniqlashda, endodontik asboblarni olishda foydalaniladi.

2-guruh. Tishdagi kovakni tozalashda ishlatiladigan asboblar.

Borlar. Bor aylanma harakat qiluvchi mustahkam asbob bo'lib, tishning qattiq to'qimalarini charxlashda foydalaniladi.

Borlar kariyes kovagiga ishlov berish bosqichiga qarab har xil shakl va o'lchamga ega bo'ladi. Borlarning ishchi qismi shakliga qarab sharsimon, silindrsimon, konussimon, g'ildiraksimon, trubinali dasta turlariga bo'linadi. Borlar to'g'ri va burchakli uchlar uchun ikki xil bo'ladi. Borlar ishchi qismining diametriga qarab raqamlar bilan belgilanadi. Masalan 1-raqamli borning diametri 0,85 mm. 13-raqamli bor-niki esa 3,1 mm ga teng. To'g'ri uch uchun borning uzunligi 44 mm, burchakli dasta uchun esa 22 mm teng. Borlar zanglamaydigan po'lat-dan, qattiq qotishmali va ishchi qismi olmos bilan qoplangan borlardan foydalaniladi. Hozirgi kunda deyarli 90 % trubinali dasta borlardan foydalaniladi.

3-guruh. Tishdagi toshlarni tozalashda ishlatiladigan asboblar.

Ushbu guruhga ekskavator, ilgovich va boshqalar kiradi.

Ekskavator. Ekskavator dasta va ishchi qismdan iborat. Ishchi qismlari bukilgan bo'lib har xil o'lchamdagagi qoshiqchalari bor. Ekska-vator yordamida kariyes bo'shlig'idan ovqat qoldiqlari, yumshagan dentin, vaqtinchalik plomba chiqariladi, hamda yumshoq va qattiq tish karashlarini tozalashda foydalaniladi.

4-guruh. Tish kovaklarini plombalashda foydalaniladigan asboblar.

Ushbu guruhga shpatel, silliqlagich, shtopfer kiradi.

Shpatel. Shpatel dasta va uzun yassi kuraklardan iborat. Shpatel yordamida vaqtinchalik va doimiy plombalar qoriladi. Shpatelning metalli va plastmassali turlaridan foydalaniladi.

Silliqlagich. Silliqlagich ishchi qismining bir tomoni kuraksimon bo'lib ikkinchi tomoni plomba sathlarini tekislashga moslangan. Silliq-lagich yordamida kerakli miqdorda plomba xomashyosi tish kovagiga kiritiladi va silliqlanadi. Silliqlagich turli o'lchamda chiqariladi. Silliq-lagich bir tomonlama va ikki tomonlama bo'lishi mumkin. Silliqlagichni shtopfer bilan kombinatsiya qilingan turi ham mavjud.

Shtopfer. Shtopferning ishchi qismi, silindrsimon yoki noksimon shaklga ega bo'lib plomba ashynosini zichlash uchun ishlataladi.

5-guruh. Endodontik asboblar.

Yuqorida bayon etilgan asboblar yordamida kariyes kovagidagina muolajalar o'tkazish mumkin. Pulpa va periodont kasalliklarini davolashda tishning ildiz kanallarida muolaja o'tkazish kerak bo'ladi. Buning uchun maxsus endodontik asboblarning bir necha turi ishlataladi.

Endodontik asboblarga quyidagilar kiradi: pulpekstraktor, burov, rashpil, drilbor, razvyortka, kanal to'ldirgich, shtopfer, kanal uzunligini ulovchi igna, ildiz ignasi, fayller, rimmerlar, fleksofayllar va boshqalar (9-rasm).


Tayanch iboralar:

Terapevtik stomatologiya – tish, parodont va og'iz bo'shlig'i shilлиq pardasi kasalliklari davolanadi;

Jarrohlik stomatologiya – yuz-jag' sohasida jarrohlik muolajalari ni o'tkazish, tish va ildizlarni olish operatsiyalari amalga oshiriladi;

Ortopedik stomatologiya – tish va tish qatori nuqsonlarini sun'iy tish protezlar yordamida tiklashni ta'minlaydi;

Bor mashina – tishlarni davolash uchun tish qattiq to'qimalarini charxlash tadbirini amalga oshirish uchun mo'ljallangan apparat;



9-rasm. Endodontik asboblar:

- 1 – chuqurlik o'lchagich; 2 – pulpekstraktor; 3 – burov; 4 – rashpil; 5 – drilbor;
6 – razvyortka; 7 – kanal to'ldirgich; 8 – shtopfer.

Stomatologik oyna – dasta va oynadan tashkil topgan ishchi qisimdan iborat asbob;

Stomatologik zond – ishchi qismi bigizga o‘hshash asbob bo‘lib, kariyes kovagi borligini, uning chuqurligini, og‘riqli nuqtalari borligini aniqlashda foydalaniladi;

Stomatologik pinset – ishchi qismi o‘tmas burchak ostida bukilgan asbob bo‘lib paxtali tamponlarni ushlab og‘iz bo‘shlig‘iga kiritishda, tishning qimirlash darajasini aniqlashda, endodontik asboblarni olishda foydalaniladi;

Shpatel – dasta va uzun yassi kuraklardan iborat bo‘lgan vaqtinchalik va doimiy plombalarни qorish uchun foydalaniladigan asbob;

Silliqlagich – ishchi qismining bir tomoni kuraksimon bo‘lib ikkinchi tomoni plomba sathlarini tekislashga moslangan asbob;

Shtopfer – ishchi qismi silindrsimon yoki noksimon shaklga ega bo‘lib plomba ashvosini zichlash uchun ishlatiladigan asbob;

Endodontik asboblар – pulpa va periodont kasalliklarini davolashda tishning ildiz kanallarida muolaja o‘tkazish uchun mo‘ljallangan asboblар.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Stomatologik poliklinika qanday tuzilishga ega?
2. Stomatologik poliklinikalarda qanday yordam turlari amalga oshiriladi?
3. Terapevtik stomatologiya bo‘limida qanday davo muolajalari o‘tkaziladi?
4. Jarrohlik stomatologiya bo‘limida qanday davo muolajalari o‘tkaziladi?
5. Ortopedik stomatologiya bo‘limida qanday davo muolajalari o‘tkaziladi?
6. Stomatologik hona qanday sanitar me’yoriy talablariga javob berishi kerak?
7. Stomatologik asboblар foydalanish sohasiga ko‘ra nechta guruhga bo‘linadi?
8. Og‘iz bo‘shlig‘i va tishlarni tekshirish uchun qanday asboblardan foydalanadi?
9. Borlar nima uchun ishlatiladi?
10. Tishdagи toshlarni tozalash uchun qaysi asboblар ishlatiladi?
11. Tishkovaklarini plombalashda qaysi asboblardan foydalaniladi?
12. Qanday asboblarni endodontik asboblар deyiladi?

III BOB ASEPTIKA VA ANTISEPTIKA

Ko‘pgina stomatologik muolajalarda yuz terisining, og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasining, pulpa va parodont to‘qimalarining butunligi buzilishi kuzatiladi. Shuning uchun infeksiyaning rivojlanishi va tarqalishini oldini olish maqsadida aseptika va antiseptika qoidalariga qat’iy roya qilish zarur.

Infeksiya – lotincha «infektio» so‘zidan olingan bo‘lib ifloslanish, yuqish degan ma’noni anglatadi. Infeksiya kasallik tug‘diruvchi mikroorganizmlarning odam organizimiga kirishi natijasida organizm bilan ular o‘rtasida vujudga keladigan patologik jarayondir. Inson organizmini kasallik va uning asoratlaridan himoya qilish kerak.

Aseptika – xirurgik infeksiyaga qarshi kurash usuli bo‘lib, unung asosi jarohatga infeksiya tushishining oldini olish hisoblanadi. Aseptika quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- asbob-uskunalarni va bog‘lov materiallarini sterillash;
- qo‘lga tibbiy ishlov berish;
- muolaja vaqtida maxsus usullarni qo‘llash;
- tibbiyat muassasalarida gigienik va tashkiliy ishlarni amalga oshirish.

Tibbiyat xodimi yuqorida belgilangan prinsiplarga va antiseptikaga roya qilishi kerak.

Sterillash deb, mikroblar va ularning sporalarini yo‘qotish usuliga aytildi. Sterillashning quyidagi usullaridan foydalilanadi: kuydirish, cho‘g‘lantirish, qaynatish, avtoklavlash, fizik va kimyoviy modalar yordamida.

Antiseptika – jarohatdagi yoki organizmdagi mikroblarni yo‘qotishga qaratilgan chora tadbirlar kompleksidir. Antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy va biologik turlari mavjud. Mexanik usulda jarohatga birlamchi xirurgik tozalash beriladi. Ya’ni jarohat chetlarini, tubini kesish va uni o‘lgan to‘qimalardan va yot jinslardan toza-

lash hamda jarohatni antiseptik eritmalar bilan yuvishdan iborat. Fizikaviy usulning asosiy vazifasi jarohatga fizikaviy usul bilan ta'sir ko'rsatishdir. Masalan, jarohatni quritish, issiqlik va yorug'lik muolajalarini o'tkazish, jarohatga ultrabinafsha nurlarini ta'sir ettirish, kimyoviy usulda jarohatdagi mikroblar florasini har xil kimyoviy moddalar yordamida yo'q qilishga qaratilgan.

Aseptika prinsiplariga amal qilmaslik bir bemorning infeksiyasini shifokorning o'ziga va ikkinchi bemorga yuqishiga olib keladi. Natijada virusli gepatit B va OITV – retrovirusini yuqtirish mumkin. OITS – ortirilgan immunitet tanqisligi sindromi virus qo'zg'atadigan fojiali yuqumli kasallik. OITS qo'zg'atuvchisi OITV – retrovirusi. Infeksiya manbayi bemorlar va virus tashib yuruvchilar. Viruslarning asosiy yuqumli materiallari sperma va qon hisoblanadi. Virus parenteral yo'l bilan ham yuqadi. Ya'ni kasallik qon va qon mahsulotlarini quyish, jarrohlik operatsiyalar, stomatologik muolajalar, infeksiya yuqqan igna va asbob-uskunalarini qo'llash oqibatida yuqadi. OITV infeksiyasini profilaktika qilish uchun sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, qon va uning komponentlarini quyishda OITSni yuqtirmaslik, barcha davolash-profilaktika muassasalarida bir martalik tibbiy va laboratoriya asboblaridan foydalanish, barcha bemor bilan to'qnashadigan asbob-uskunalar sterillanishi lozim. Stomatologik asboblar avtoklavlash (bosim va bug' bilan) usulida sterillanishi kerak.

Stomatologiyada sterillashning asosan quyidagi usullari qo'llaniladi: qaynatish, bosim va bug' bilan, quriq issiqlik bilan va sovuq bilan.

Qaynatib sterillash. Bu usul bilan to'liq metalldan tashkil topgan asboblar sterillanadi. Qaynatishda cho'kma hosil bo'lishini kamaytirish maqsadida sterilizatorga distillangan suv va natriy bikorbanatning 1% eritmasi solinadi.

Sterillashning avtoklavlash (bosim va bug' bilan sterillash) usulini maxsus sterillash apparatida amalgalash oshiriladi. Avtoklavda sterillashni 120–130°C haroratda 1,1 va 2,0 kg/sm² ostida olib boriladi. Avtoklavda jarrohlik asboblari, choyshablar, korroziyaga chidamli metall qotishmalaridan tayyorlangan apparat qismlari, shisha idishlar, rezinali mahsulotlar (qo'lqop, drenaj) sterillanadi.

Quriq issiqlik bilan sterillash. Bu usulni qo'lllash uchun quriq issiqlik beradigan maxsus apparatdan foydalilanadi. Quruq issiqlik bilan jarrohlik asboblari, kesuvchi asboblar sterillanadi. Sterillash 40 daqiqa mobaynida olib boriladi. Belgilangan vaqtning 25 daqiqasida metall asboblar qizisa 15 daqiqasida zararsizlanadi. Jarrohlik asboblari, shisha idishlar 180°C 1 soat mobaynida, agar 160°C harorat bo'lsa 2 soat mobaynida sterillanadi.

Sovuq usulda sterillash. Bu usul bilan kesuvchi asboblar va stomatologik oyna sterillanadi. Buning uchun ularni 96% spirtga 2 soatga solib qo'yiladi. So'vuq sterillash uchun 1% xloramini, 6% periks vodorod, 3% formalin, 1% xlorgeksin va boshqa eritmalardan foydalilanadi.

FOYDALANILGAN STOMATOLOGIK ASBOBLARGA ISHLOV BERISH

Foydalanilgan stomatologik asboblarga ishlov berish uchun yuvuchi eritma solingan idish, dezinfeksiyalovchi eritma solingan 2ta idish, cho'tkalar, distillangan suv solingan idish, qon borligini aniqlash sinamalarini o'tkazish uchin reaktivlar va yuvuvchi vositalar kerak bo'ladi.

Stomatologik asbob-uskunalar avtoklavlash usulida quyidagicha sterillanadi:

1. Foydalanilgan asboblar cho'tka bilan dezinfeksiyalovchi eritmali idishga solib yuviladi;
2. Qondan tozalangan asboblar dezinfeksiyalovchi eritmali ikkinchi idishga solinadi;
3. 5 daqiqa davomida suvda yuviladi;
4. Yuvilgan asboblarni 45–50°C li yuvuvchi eritmali idishga 15–20 daqiqaga botirib qo'yiladi;
5. So'ng 3 daqiqa davomida oqar suvda yuviladi;
6. Distillangan suvda chayiladi;
7. Quruq issiqlik shkafida 85–90° C temperaturada quritiladi;
8. Sinamalar o'tkaziladi;
9. Quritilgan asboblar bikslarga joylanadi;
10. Biksnинг yon teshiklari ochib qo'yiladi;

11. Bikslar avtoklavga joylanadi;
12. Avtoklav qopqog'i zich qilib yopiladi, bug' chiqarib yuborigan jo'mrakni ochiq qoldirib, boshqa jo'mraklar berkitiladi va ozon qizdiriladi;
13. Avtoklav kamerasiga bug' kirganida bug' o'tkazadigan jo'mragidan havo chiqadi. Havoni bug' bilan shu tariqa haydab chiqarish 2,0 kg/sm bosim ostida, 132°C haroratida, 20 daqiqa davomida olib boriladi.

STERIL STOLNI TAYYORLASH

Steril stolni tayyorlash uchun stomatologik xonaning hamshirasi qo'llarini yuvib steril rezinali qo'lqop kiyadi. Qo'lqopdag'i talk yuqlarini ketkazish uchun 96 gradusli spirt bilan artadi. Honada steril oqliklar solingan biksni ochib asboblar turadigan maxsus stolga steril kleyonka, ustidan ikkiga buklangan steril choyshab yozadi. Choyshabning ichki tomoniga stomatologik asbob-uskunalarни va bog'lov materiallarni terib chiqadi. Choyshabning ustki qismi joylangan asbobuskunalar ustiga yopib qo'yiladi.

Hozirgi vaqtida stomatologik xonalarda steril stol vazifasini bajara-digan maxsus apparatdan foydalanimoqda.

Tayanch iboralar:

Infeksiya – kasallik tug'diruvchi mikroorganizmlarning odam organizimiga kirishi natijasida organizm bilan ular o'rtaida vujudga keladigan patologik jarayon;

Aseptika – xirurgik infeksiyaga qarshi kurash usuli bo'lib, unung asosi jarohatga infeksiya tushishining oldini olishdir;

Antiseptika – jarohatdagi yoki organizmdagi mikroblarni yo'qotishga qaratilgan chora tadbirlar kompleksidir;

Sterillash – mikroblar va ularning sporalarini yo'qotish usullari;

OITV – ortirilgan immunitet tanqisligi retrovirusi;

OITS – ortirilgan immunitet tanqisligi sindromi – virus qo'zg'atadigan fojiali yuqumli kasallik;

Avtoklav – bosim va bug' bilan sterillash usulini amalga oshiruvchi maxsus sterillash apparati;

Steril stol – sterillangan stomatologik asbob-uskunalar va bog‘lov materiallarini steril holda saqlanishini ta’minlash uchun hamshira tomonidan tayyorlanadigan stol.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Infeksiya deganda nimani tushunasiz?
2. Aseptika deb nimaga aytildi?
3. Aseptika qanday tadbirlarni o‘z ichiga oladi?
4. Sterillash deb nimaga aytildi?
5. Sterillashning qanday turlari bor?
6. Sterillash qanday ahamiyatga ega?
7. Antiseptika deganda nimani tushunasiz?
8. Antiseptikaning qanday turlari mavjud?
9. Aseptika qoidalariga rioya qilmaslik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
10. OITV qanday virus?
11. OITS qanday kasallik?
12. OITS kasalligining qo‘zg‘atuvchisi qanday nomlanadi?
13. OITSni yuqtirmaslik uchun nima qilish kerak?
14. Qaysi asbob-uskunalar qaynatib sterillanadi?
15. Sterillashning avtoklavlash usuli qanday amalga oshiriladi?
16. Quriq issiqlik bilan sterillash jarayonini bilasizmi?
17. Sovuq usulda sterillash uchun qanday kimyoviy eritmalaridan foydalaniladi?
18. Foydalanilgan stomatologik asboblarga avtoklavlash usulida qanday ishlov beriladi?
19. Steril stolni kim tayyorlaydi?
20. Steril stolni qanday tayyorlanadi?

IV BOB

STOMATOLOGIK BEMORNI TEKSHIRISH USULLARI

Tekshirish usullarining maqsadi bemor kasalligining aniq tashxisi sini qo'yish. Tekshirish usullari quyidagi guruhlarga bo'linadi: so'rov, ko'rik, yordamchi tekshirish usullari, laboratoriya tekshirish usullari.

So'rov. So'rov tekshirishning birinchi bosqichi hisoblanadi. So'rov vaqtida quyidagilarni aniqlash lozim: bemorning shikoyatini, hozirda va avvalda kechirgan kasalliklarini, ish faoliyati tarzini va og'riq xarakterini. So'rov bemor shikoyatlarini aniqlashdan boshlanadi, ya'ni og'riq qachon paydo bo'lganligi, qanday ta'sirlardan zo'rayishi yoki susayishi va og'riqning davomliligi aniqlanadi. Og'riqning xarakteri tashxisni aniqlashda va solishtirma tashxis o'tkazishda asosiy mezon hisoblanadi. Tish-jag' tizimidagi kasalliklar organizmdagi ko'pgina somatik kasalliklar bilan bog'langan holda kechishi mumkin. Shuning uchun so'rov vaqtida avvalda va hozirda kechayotgan kasalliklarni aniqlash zarur bo'ladi. Shuningdek shu kasalliklardan qanday davolanganligi ham ahamiyatli. Bemorning ish faoliyati tarzini aniqlash ham muhim o'rinni tutadi. Sababi ayrim zararli ta'sirlari bor bo'lgan korxonalarda xizmat qiladigan xizmatchilarda stomatologik kasalliklarni rivojlanishi kuzatiladi. Masalan, kislotalar bilan ishlaydigan korxona xizmatchilarida tish qattiq to'qimalarining nokariyesli nuqsonlari kuza tiladi. So'rov vaqtida bemorning tovushiga ham e'tibor berish lozim. So'rov dastlabki tashxisni aniqlashda muhim o'rinni tutadi.

Ko'rik. Ko'rik obyektiv tekshiruvning birinchi bosqichi bo'lib, u yaxshi yoritilgan sharoitda amalga oshirilishi lozim. Ko'rik tashqi ko'rikka va og'iz bo'shlig'i ko'rigiga bo'linadi.

Tashqi ko'rikda bemor yuz terisining rangi, yuz simetriyasi aniq lanadi. Og'iz bo'shlig'i ko'rigida tishlar, og'iz bo'shlig'i shilliq pardasi ko'zdan kechiriladi. Yuzning assimmetriyasi yuz-jag' sohasining yal lig'lanish kasalliklarida, o'sma kasalliklarida, jarohatlarda, endokrin va

buyrak kasalliklarida kuzatiladi. Yuz terisining rangiga ahamiyat beriladi. Masalan: yuz terisi anemiyada va buyrak kasalliklarida oqaradi; jigar va ichak kasalliklarida sarg‘ayadi. Tashqi ko‘rik o‘tkazayotganda limfa tugunlari holati ham muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun jag‘ osti, iyak osti va bo‘yin limfa tugunlari holati tekshiriladi. Bunda limfa tugunlarining hajmiga, harakatchangligiga, og‘riqliligiga va yondosh to‘qimalar bilan tutashganligiga e’tibor beriladi.

Og‘iz bo‘shlig‘i ko‘rigi, avval tish qatori jipslashtirilgan holatda boshlanadi. Bunda lablar konturi, rangi, lab burchaklarida patologik o‘zgarishlar bor-yo‘qligi ko‘zdan kechiriladi. Lablarni ko‘rikdan o‘tkazilgandan so‘ng og‘iz dahlizi tekshiriladi. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasining rangiga, milk so‘rg‘ichining shakliga, patologik milk cho‘ntagiga bor-yo‘qligi, milk usti va milk osti qattiq karashlar bor-yo‘qli-giga e’tibor beriladi. Odatda lunj, og‘iz bo‘shlig‘i tubi, milklar, qattiq tanglay nam, och pushti rangda bo‘lishi kerak. Patologik jarayonlar natijasida og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi: rangi o‘zgaradi, shishlar hosil bo‘ladi, patologik milk cho‘ntaklari paydo bo‘ladi va hokazo.

Og‘iz bo‘shlig‘i ko‘rigini o‘tkazayotganda hamma tishlarni ko‘rikdan o‘tkazish zarur. Bunda kariyes kovagi borligi, uning o‘lchami, joylashgan yuzasi, avval davolanganligi, rangi, qimirlash darajasi aniqlanadi.

Tishlar ko‘rigi stomatologik oyna va zond yordamida amalga oshiriladi. Bunda ularning soni, rangi, tish qatorida joylashganligi va tish protezlari bor yo‘qligi aniqlanadi. Tishlarni ko‘rikdan o‘tkazish ma’lum tartibda amalga oshirilishi kerak. Ko‘rikni, avval o‘ng yuqori jag‘ning oxirgi molyar (katta oziq tish)lardan boshlab chap oxirgi molyarda tugatiladi. So‘ng pastki chap oxirgi molyarlardan boshlab, o‘ng pastki oxirgi molyarlarda tugatiladi. Har bir tishning barcha yuzasi ko‘rikdan o‘tkaziladi. Har bir tishni ko‘rikdan o‘tkazilgandan so‘ng aniqlangan holatni tibbiy varaqada belgilangan shartli belgilar yordamida ifodalanadi.

Zondlash. Zondlash to‘g‘ri yoki bukilgan zond yordamida amalga oshiriladi. Zondlash yordamida kariyes kovagining bor-yo‘qligi, kariyes kovagining chuqurligi, yumshagan dentin borligi, tish bo‘shlig‘i

ochiqligi, ildiz kanalining boshlanish joyi, og‘riqli nuqtalar borligi aniqlanadi. Maxsus belgili parodontologik zond yordamida milk cho‘n-tagining chuqurligi o‘lchanadi.

Perkussiya (tukillatib korish). Perkussiya tekshiruv usuli periodont to‘qimasining holatini aniqlashga yordam beradi va u stomatologik oynaning dastasi yordamida amalga oshiriladi. Perkussiya ikki xil usulda aniqlanadi: gorizontal va vertikal. Gorizontal perkussiya yordamida marginal periodont to‘qimasi holati aniqlansa, vertikal perkussiyada ildiz uchi periodonti holati aniqlanadi. Perkussiyani yengil, bir tekisda, avval sog‘lom tishdan boshlash lozim.

Vertikal perkussiyada tishlarning kesish yoki chaynash yuzalarida tukillatiladi. Gorizontal perkussiyada tishning yon yuzasidan tukillatiladi. Perkussiyani doimo solishtirma tartibda o‘tkazish zarur. Buning uchun tekshirilayotgan tish yonidagi va boshqa kvadratda joylashgan tish guruhi perkussiya qilinadi. Sog‘lom tishda perkussiya og‘riqsiz o‘tadi.

Palpatsiya (paypaslab ko‘rish). Palpatsiya tekshirish usuli yordamida infiltrat, o‘smalar, tishlarning qimirlash darajasi, limfa tugunlarining holati aniqlaniladi. Palpatsiya yuza yoki chuqur bo‘lishi hamda tashqi va og‘iz bo‘shlig‘ida o‘tkazilishi mumkin. Palpatsiyani mayinlik bilan, og‘riq reaksiyasini hosil qilmasdan olib borish kerak. Buning uchun, avval palpatsiyani bemorning sog‘lom tish tomonidan boshlab asta-sekinlik bilan kasallangan tomonga o‘tish lozim. Palpatsiyani, avval yuza, so‘ng chuqur amalga oshiriladi. Palpatsiya barmoqlar yordamida bajariladi. Tishning qimirlash darajasini pinset yordamida aniqlanadi. Tishning quyidagi qimirlash darajalari belgilangan:

I-daraja tishni vestibulyar va oral tomoniga qimirlashi;

II-daraja tishni vestibulyar, oral va yon tishlar tomoniga qimirlashi;

III-daraja tishni o‘z o‘qi atrofida qimirlashi.

YORDAMCHI TEKSHIRISH USULLARI

Yordamchi tekshirish usullari maxsus apparatlar va moddalar yordamida amalga oshiriladi va tashxisni aniq o‘rnatalishini ta’minlaydi.

Rentgenologik usul. Stomatologiyada ushbu usul keng qo'llaniladi. Rentgenografiyaning tashqi, og'iz ichi, panaram, ortopantomografiya, tomografiya usullari mavjud. Rentgenologik usul yordamida yashirin kariyes bo'shliqlari (qoplama ostidagi, aproksimal yuzalardagi), ildizlar holati (ildiz uchining so'rilishi, shakllanishi, yallig'lanishi), ildizlar yo'nalishi va ildiz kanallarining holati (o'tuvchanligi, plombalanish darajasi), ildiz uchi to'qimalarining holati (alveola o'siq distruksiyasi), yumshoq to'qimalardagi yot jinslar, o'sma kasalliklari, tish-jag' sohasi jarohatlari aniqlanadi.

Ortopantomografiya. Ortopantomografiya usulida bitta plyonkada tasvir yoyilgan va kattalashtirilgan holatda aks ettiriladi. Bu esa tekshirilayotgan sohani boshqa sohalar bilan taqqoslash imkoniyatini beradi.

Tomografiya. Tomografiya to'qima va organlarning ma'lum qatla mini rentgen tasvirini aks ettiradi. Rentgenografiyaning ushbu usuli tekshirilayotgan to'qimani qatlamma-qatlam o'rghanish, tekshirish imkoniyatini beradi.

Elektroodontometriya. Elektroodontometriya usuli tish pulpasi va parodont to'qimasining elektr tokiga qilgan javob reaksiyasiiga asoslangan. Bu tekshirish usuli maxsus apparatlar (EOM-REOM-3, UVN-1) yordamida amalga oshiriladi. Sog'lom tishlar 2–6 mA da, chuqur kariyes 20–40 mA da, pulpaning faqat toj qismida yallig'-lanishi 60 mA da og'riqli reaksiya bilan javob beradi. EOD da og'riqli reaksiya 100 mA dan katta bo'lsa, pulpaning toj va ildiz qismlari nobud bo'lganligidan, hamda periodont to'qimasida patologik o'zgarish bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi. Elektroodontometriya solishtirma tashxis o'tkazish uchun tavsiya etiladi.

Termodiagnostika. Tishning termik ta'sirlardan ta'sirlanishi. Ta'sirlovchi sifatida issiq yoki sovuq suvdan foydalaniladi. Tekshirishni o'tkazishdan, avval, tishni izolyatsiya qilinadi, quritiladi va shpris yordamida kariyes bo'shlig'iga issiq yoki sovuq suv yuboriladi.

Profilometriya. Profilometriya tekshirishning yangi usuli bo'lib oddiy uzunligi 1 mikromertdan kam bo'lмагan infraqizil lazerni qo'lashga asoslangan.

Tekshiriladigan tish lazer nurlari yordamida qizdiriladi va natijada tishning o'zi infraqizil diapazonida nur tarqata boshlaydi. Bu nurlardan

tibbiyot xodimi kompyuter yordamida tishning ichki strukturasini tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Stomaskapiya. Bu usul tishlarni ulrtrabinafsha lampa bilan tekshirishga asoslangan. O‘zgarish bo‘lmagan emalda nur yutilmaydi, nuqsoni bo‘lgan emal sohasida esa nurning yutilishi kuzatiladi.

Vital bo‘yash usuli. Bu usul emalning butunligini aniqlashga asoslangan. Vital bo‘yash usulini o‘tkazish uchun tekshirilayotgan tishning yuzasi karashlardan tozalanadi, quritiladi va tish yuzasiga 3 daqiqaga metilen ko‘kning 2–3% suvli eritmasiga botirilgan tampon qo‘yiladi. Belgilangan vaqt o‘tganidan so‘ng tampon olib tashlanadi, tish yuzasi suv bilan yuviladi va emalning bo‘yalish darajasi aniqlanadi. Emalning demineralizatsiya bo‘lgan qismi och ko‘kdan to‘q zangori ranggacha bo‘yaladi.

Og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenik indeksini aniqlash. Og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenik indeksini aniqlash kasallikni kelib chiqishi va kechishida muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Hozirgi kunda og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenik indeksini aniqlashning ko‘pgina usullari mavjud. Fedorov-Voldkin usulini o‘tkazish uchun 6 ta kesish tishlarning vestibulyar yuzasiga yo‘did kaliy eritmasi surtiladi. Tishlarni bo‘yalish darajasiga qarab 5 balli shkala asosida baholanadi. Yani:

- tishning butun yuzasi bo‘ysalsa – 5 ball;
- 3/4 qismi bo‘ysalsa – 4 ball;
- 1/2 qismi bo‘ysalsa – 3 ball;
- 1/4qismi bo‘ysalsa – 2 ball;
- Bo‘yalmasa – 1 ball.
- Indeksni quyidagi formula yordamida hisoblab chiqariladi.

$$TKI = \frac{6 \text{ ta tishning} \\ \text{ko‘rsatkichlari}}{6}$$

3 va undan ortiq ball bo‘lsa og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenik holati qoniqarsiz, 0 ball bo‘lsa qoniqarli hisoblanadi (10-rasm).

Laboratoriyada tekshirish usullari. Bemorlarga aniq tashxis o‘rnatishda laboratoriya tekshirishlarini o‘tkazish kerak bo‘lib qoladi.



10-rasm. Lugol eritmasida bo'yagan tish karashi.

Laboratoriya tekshirish usullariga sitologiya, bakteriologik, biopsiya, immunobiologik tekshirish usuli, bioximik usul, qonning klinik analizlari va boshqalar kiradi.

Sitologiya. Sitologiya usuli hujayra elementlarini o'rganishga asoslangan. Stomatologiyada sitologik tekshirish usuli uchun qirindi, punksiya mahsulotlaridan foydalaniladi. Sitologiya usuli yordamida o'sma kasalliklari, tuberkulyoz yazvalari, og'iz bo'shlig'i shilliq pardasi kasalliklarini aniqlashda muhim o'rinni tutadi.

Biopsiya. Patologik o'zgargan to'qimalarni sitologik tekshirishdan o'tkazish. Skalpel va maxsus asboblar yordamida patologik o'zgargan qismdan 5–6 mm to'qima kesib olinadi va gistologik tuzilishni mikroskop ostida tekshiriladi.

Immunobiologik tekshirish usuli. Og'iz bo'shlig'i shilliq pardasining ba'zi kasalliklari tashxisini aniqlash uchun imunobiologik tekshirish usulidan foydalaniladi. Masalan zaxm, brutsellyoz kasalliklari ni aniqlashda muhim o'rinni tutadi.

Bakteriologik tekshirish usuli. Bu usul kasallikni keltirib chiqar-gan mikrob va zamburug'lar turini aniqlash hamda ularni sezuvchanlik darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Sezuvchanligi yuqori bo'lgan dori vositalaridan foydalanish kasallikni tez davolanishiga zamin bo'ladi.

Bioximiya usuli. Bu usulda qon va peshobning tarkibida qand borligi aniqlanadi. Ko'pincha bu usul og'iz bo'shlig'i shilliq pardasi kasalliklari tez-tez qaytalaydigan bemorlarda, qandli diabet kasalligi bor yo'qligini aniqlashda yordam beradi.

STOMATOLOGIK BEMORNING KASALLIK VARAQASI

Stomatologik bemorning kasallik varaqasini qayd qilish formasi № 043/Y. Kasallik varaqasi – bemorning pasport tafsilotlarini, tekshirish usullari, tekshirish natijalarini, aniqlangan tashhisni va davolash usullarini qayd qiluvchi hujjat. Kasallik varaqasining pasport qismini registraturadagi tibbiyot xodimi to'ldiradi. Bunda bemorning familiyasi ismi otasining ismi, yoshi, jinsi, manzili, kasbi aniqlanadi va yoziladi. Tashxis qatorida bemorda obyektiv va subyektiv tekshirishlar o'tkazilishi natijasida aniqlangan tashhis yoziladi, bemorda aniqlangan shikoyatlar qayd qilinadi. Boshidan kechirgan va yo'ldosh kasalliklar qatorini to'ldirish uchin bemor bilan suhbat o'tkazilib, avvalda kechirgan kasalliklari aniq yozilishi muhim ahamiyatga ega. Kasallikni rivojlanishi bemorning birinchi qatnovida aniqlanadi va kasallik qanday boshlanganligi, uning belgilari yoziladi. Obyektiv tekshirishlar va tashqi ko'rinishida o'tkazilgan tekshirish usullari va ularning natijalari haqida ma'lumotlar beriladi. Tishlar ko'rige maxsus tish formulasi sxemasida belgilanadi. Sxemadagi vertikal chiziq o'ng va chap tomon tishlarni, gorizontal chiziq yuqori va pastki tishlarni anglatadi. Tish formulasi sxemasida doimiy tishlar arab raqamlar bilan sut tishlar rim raqamlar bilan belgilanadi. Tish holatini belgilash uchun quyidagi ma'lum harfli belgilaridan foydalaniladi: O – yo'q tish, R – ildiz, C – karieys, P – pulpit, Pt – periodontit, Π – plomba, A – paradantoz, I, II, III – qimirlash darajalari, K – qoplama. Tish formulasini to'ldirilgandan so'ng bemorning tishlovi, og'iz bo'shlig'i shilliq pardasi, alveola o'sig'i va tanglay holatlari ifodalanadi. Agar rentgenologik tekshirish o'tkazilgan bo'lsa uning tahlili yoritib beriladi. Davolash bobida aniqlangan kasallikni davolash uchun tuzilgan davo rejasi aniq yozilashi shart. Ayrim hollarda bemorlarni davolashni bir shifokor boshlab keyingi bosqichni boshqa shifokor davom ettirishiga to'g'ri keladi. Shinday hollarda davo rejasi tuzilganligi yaxshi samara beradi. Kasallik varaqasining kundalik qatorida bemorning umumiyligi holati va o'tkazilgan davo muolajasi aniq yozilishi kerak. Kundalik yozilayotganda albatta sana qo'yiladi.

Kasallik varaqasini tahlil qilib, aniqlangan tashhis to‘g‘riliqi, davo muolajalari qanday olib borilganligi va ularning natijalarini aniqlash mumkin. Bemorning kasallik varaqasi ilmiy va yuridik hujjat bo‘lib, registraturada 5 yil moboynida saqlanadi so‘ng arxivga topshiriladi.

Tayanch iboralar:

So‘rov – tekshirishning birinchi bosqichi bo‘lib, bemor shikoyatlarini aniqlashdan boshlanadi;

Ko‘rik – obyektiv tekshirishning birinchi bosqichi bo‘lib, tashqi ko‘rikka va og‘iz bo‘shlig‘i ko‘rigiga bo‘linadi;

Zondlash – zond yordamida amalga oshiriladigan tekshirish usuli;

Perkussiya – tishni stomatologik oyna dastasi yordamida tukillatib korib, periodont to‘qimasining holatini aniqlaydigan tekshirish usuli;

Palpatsiya – paypaslab ko‘rish;

Rentgenologik usul – rentgen nurlari yordamida olib boriladigan tekshirish usuli;

Ortopantomografiya – bitta rentgan plyonkada tasvir yoyilgan va kattalashtirilgan holatda aks ettiriladigan tekshirish usuli;

Tomografiya – to‘qima va organlarning ma’lum qismini qatlamma qatlam rentgan tasvirini aks ettiruvchi usul;

Elektroodontometriya – tish pulpasi va parodont to‘qimasining elektr tokiga qilgan javob reaksiyasiga asoslangan tekshirish usuli;

Termodiagnostika – tishning termik ta’sirlardan ta’sirlanishini aniqlashga asoslangan tekshirish usuli;

Profilometriya – uzunligi 1 mikromertdan kam bo‘lmagan infra-qizil lazerni qo‘llashga asoslangan tekshirish usuli;

Stomaskapiya – tishlarni ulrtrabinafsha lampa bilan tekshirishga asoslangan usul;

Vital bo‘yash usuli – metilen ko‘kning 2–3% suvli eritmasi yordamida emalning butunligini aniqlashga asoslangan tekshirish usuli;

Gigiyenik indeksini aniqlash – tishlarni yumshoq karashlar bilan qoplanish darajasiga asoslanib gigienik holatini aniqlash;

Sitologiya – hujayra elementlarini o‘rganishga asoslangan tekshirish usuli;

Biopsiya – patologik o‘zgargan to‘qimalarni sitologik tekshirishdan o‘tkazish;

Bakteriologik tekshirish usuli – kasallikni keltirib chiqargan mikrob va zamburug‘lar turini hamda ularning sezuvchanlik darajasini aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan tekshirish usuli.

Kasallik varaqasi – bemorning pasport tafsilotlarini, tekshirish usullari, tekshirish natijalarini, aniqlangan tashhisni va davolash usullarini qayd qiluvchi hujjat.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Tekshirishning qanday usullarini bilasiz?
2. So‘ro‘v qanday olib borilishi kerak?
3. Ko‘rikning qanday turlari bor?
4. Zondlash yordamida nima aniqlanadi?
5. Perkussiya necha hil bo‘ladi?
6. Palpatsiya yordamida qanday patologik jarayonlarni aniqlash mumkin?
7. Rentgenologik tekshirish usularidan qaysilarini bilasiz?
8. To‘qima va organlarning ma‘lum qismini qatlamma qatlama rentgan tasvirini aks ettiruvchi usul qanday nomlanadi?
9. Tish pulpasi va parodont to‘qimasining elektr tokiga qilgan javob reaksiyasiga asoslangan tekshirish usuli qanday nomlanadi?
10. Termodiagnostika qanday amalga oshiriladi?
11. Vital bo‘yash usulini o‘tkazish uchun qanday eritmalaridan foydalaniлади?
12. Qaysi kasalliklarda biopsiya tekshirish usuli o‘tkaziladi?
13. Tishlarni yumshoq karashlar bilan qoplanish darajasiga asoslanib, gigienik holatini aniqlash tekshirish usuli qanday nomlanadi?
14. Kasallik varaqasidan nimani aniqlash mumkin?

V BOB

STOMATOLOGIYADA OG‘RIQSIZLANTIRISH

Og‘riqsizlantirish deganda og‘riq sezgisini qoldirish maqsadida qo‘llaniladigan tadbirlar yig‘indisi tushuniladi. Stomatologik xastaliklarni muvaffaqiyatli davolash muolajaning qay darajada og‘riqsiz bajarishga bog‘liq. Tishlarni davolashda va yuz – jag‘ sohasidagi jarrohlik muolajalarida og‘qisizlantirishning turli usullari qo‘llaniladi. Og‘riqsizlantirish ikkiga bo‘linadi: umumiylar va mahalliy og‘riqsizlantirish.

UMUMIY OG‘RIQSIZLANTIRISH

Umumiy og‘riqsizlantirish deganda sun‘iy vositalarni qo‘llash yo‘li bilan markaziy nerv sistemasini chuqur tormozlantirish tushuniladi. Bunda bemorning es-hushi, sezuvchanligi yoqoladi, skelet muskullari bo‘shashadi va reflekslari so‘nadi.

Umumiy og‘riqsizlantirish uchun ko‘rsatmalar:

- mahalliy og‘riqsizlantiruvchi moddalarga allergik reaksiyasi bo‘lganda;
- mahalliy og‘riqsizlantirish o‘tkazishning imkonini bo‘lmasa yoki samarasini bo‘lmasa;
- bemorning o‘ta emotsiyonal holatda bo‘lishi;
- aqlan ojiz bemorlarda;
- muolaja maydoni katta bo‘lganda;
- muolaja vaqtida davomli bo‘lganda;
- yurak – qon tomiri va nafas yo‘llari kasalliklarida;
- endokrin tizimi kasalliklarida;
- hozirgi vaqtida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatmalari bo‘lmasa ham bemorning xohishiga binoan o‘tkazilishi mumkin.

Umumiy og‘riqsizlantirishda narkotik moddani kiritish yo‘liga ko‘ra ikki turi farqlanadi:

1. Ingatlatsion.
2. Ingatlatsiyasiz.

Ingalatsion usulda umumi og'riqsizlantirish (narkoz). Ingala-tsion narkoz deb, narkotik modda nafas yo'llari orqali yuboriladigan umumi og'riqsizlantirish turiga aytildi. Bu usulni o'tkazishda turli og'riqsizlartiruvchi dori-moddalardan foydalaniladi: azot oksidi, ftoritan, trilen, siklopropan, pentran.

Ingalatsiyasiz usulda umumi og'riqsizlantirish (narkoz).

Ingalatsiyasiz narkozlarga vena ichi, to'g'ri ichak, teri osti turlari kiradi. Vena ichiga narkoz o'tkazish qulay. Sababi hech qanday mos-lama va apparatlar kerak emas. Buning uchun quyidagi narkotik mod-dalardan foydalaniladi: seduksen, propofol, ketamin. Vena ichiga nar-koz ko'pincha yuz-jag' sohasida jarrohlik muolajasi kam vaqtini talab etsa amalga oshiriladi.

Stomatologiyada muolaja bajarishda qulaylik yaratish uchun ko'pin-cha umumi og'riqsizlantirishning aralash usuli qo'llqniladi.

PREMEDIKATSIYA

Ko'pincha bemorlarda stomatologik davo oldidan qo'rquv, emotsi-onal xavotirlik paydo bo'ladi. Bu holatni mahsus dori-darmonlar yor-damida bartaraf etishni premedikatsiya deb ataladi. Premedikatsiya o'tkazishga ko'rsatma davo muolajasining turiga va bemorning hola-tiga bog'liq.

Premedikatsiyaga ko'rsatmalar:

1. Qo'rquv.

a) Qo'rquv va bezovtalik oqibatida vegetativ o'zgarishlar sodir bo'lishi, pulsning tezlashuvi (90 marta 1 daqiqada).

b) Yurak – qon tomir sistemasi, nafas organlari sistemasi kasallik-larida

2. Avvalida hushidan ketish holatlari bo'lgan bo'lsa.

Kattalarda premedikatsiya uchun trankivilizator (tinchlantiruvchi dori)lardan foydalaniladi. Trankvilizatorlar ta'sirida bemorlarning aqliy va jismoniy mehnat faoliyati saqlanadi. Bundan tashqari trankivilizator anestetiklar, analgetinlar ta'sirini oshiradi.

Trankivilizatorlarning bir marotabali dozalari qo'llaniladi. Mepro-tan – 0,2 gr, elenium – 0,1 gr, diazepam – 0,005 gr, seruksen – 0,005 gr.

Yuqorida qayd etilgan dori vositalarini stomatolog qabulida bo‘lishdan 30–60 min oldin qabul qilinadi. Boshqa guruh dori vositalaridan valeriyanu, karvolal nastoykalari qo‘llaniladi.

MAHALLIY OG‘RIQSIZLANTIRISH

Mahalliy og‘riqsizlantirish deb, bemorning es-hushini saqlagan holda tananing biron-bir qismidagi og‘riq sezgisini yo‘qotishga qaratilgan davo chorasisiga aytildi. Mahalliy og‘riqsizlantirishning inyeksiyon va noinyeksion turlari farqlanadi. Inyeksiyon og‘riqsizlantirishning infiltratsion va o‘tkazuvchi turlari mavjud. Noinyeksion og‘riqsizlantirishning kimiyoiy, fizikaviy, fizik-kimiyoiy turlari mavjud. Poliklinika sharoitida ko‘proq mahalliy og‘riqsizlantirish usulidan foydalilaniladi.

Applikatsiyali og‘riqsizlantirish. Teriga ta’sir qilmaydi og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasiga anestetik moddani surtish, sepish, doka sochiqchasiga shimdirib qo‘yishdan iborat. Og‘riqsizlantirishning bu usulidan igna kiradigan sohani og‘riqsizlantirishda foydalaniladi.


Buning uchun 10% lidokain, 2% li pirolikain eritmalaridan foydalilaniladi. Hozirda anestetinlarning aerozolli shakldagisidan foydalanmoqda. Aerozolli usuldan foydalanishning kamchiligi uning boshqa sohalarga ham sachrash, me’yorini aniqlashning qiyinligi.

Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasida og‘riqsizlantiruvchi moddani surtish uchun, ushbu soha so‘lakdan ajratiladi, quritiladi va anistetik shimdirilgan paxta sharchasi qo‘yiladi. Applikatsiya muddati 1 daqiqa, og‘riqsizlanish muddati 10 daqiqa.

Inyeksiyon og‘riqsizlantirish turida anestetik eritmasi bevosita to‘qima ichiga kiritiladi. Inyeksiyon og‘riqsizlantirish o‘z navbatida ikki guruhga bo‘linadi: infiltratsion va o‘tkazuvchi.

Infiltratsion og‘riqsizlantirish

Infiltratsion og‘riqsizlantirish turida anestetik eritmasi bevosita jarrohlik harakati maydonida to‘qima ichiga kiritiladi va pereferik nerv retseptorlarining sezgirligini oshiradi. Infiltratsion usuldagagi og‘riqsizlantirish yordamida yuz, og‘iz bo‘shlig‘ining yumshoq to‘qimalarida,



11-rasm. Infiltratsion og'riqsizlantirish:

A – suyak pardasi ostida og'riqsizlantirish, B – suyak ichida og'riqsizlantirish.


yuqori jag‘ alveola sohasida, pastki jag‘ alveolalar o‘sig‘ining frontal tishlar sohasida va qattiq tanglay sohasida o‘tkaziladigan jarrohlik maydonini og'riqsizlantirish mumkin. Anestetiklarni periodont yorig‘i ichiga (intraligamentar) suyak pardasi ostiga (sub periostal), suyak ichiga (intraostal) yuborish mumkin (11-rasm).

Infiltratsion og'riqsizlantirish o‘tkazish texnikasi sodda. Ignani vestibulyar yuzaga, o‘tuv burma sohasiga kiritiladi va anestetik modda 2,3 ml yuboriladi. Alveola o‘silqlar sohasida og'riqsizlantirish o‘tkazilganda, shpris gorizontal yo‘naltirilgan holda, igna uchi o‘tuvchi burma sohasidagi shilliq qavatga 40° – 45° burchak ostida sanchiladi. Bunda igna uchining charxlangan tomoni suyakka qaragan bo‘lishi kerak. Anestetikni tafsiya etiladi 15 sekund ichida 1 ml yuboriladi.

Infiltratsion og'riqsizlantirish yuqori jag‘da yaxshi samara beradi. Pulpitni davolashda pulpa ichiga og'riqsizlantirish o‘tkazish mumkin. Buning uchun tish bo‘shlig‘i ochiladi va juda kichik igna yordamida anestetik tish bo‘shlig‘iga 0,2–0,3 ml yuboriladi.

O‘tkazuvchi og'riqsizlantirish

Mahalliy og'riqsizlantirishning o‘tkazuvchi turida jarrohlik maydonini innervatsiya qiluvchi, sezuvchi nervni tanasini yoki biron bir shoxini blokada qilinadi. O‘tkazuvchi og'riqsizlantirishning quyidagi



12-rasm. Pastki jag'da o'tkazuvchi og'riqsizlantirish turi.

turlari mavjud: tuberal, infrorbital, palatinal, mandibular, torusali, mental va engak nervini og'riqsizlantirish.

O'tkazuvchi og'riqsizlantirishda anestetik eritma og'riqsizlantirilayotgan nerv tolasini yoki uning shox tolalari atrofidagi to'qima ichiga yuboriladi va anistetik eritma nerv ichiga diffuziya yo'li bilan kirib borib, sezgi impulslarini pereferiyadan markaziy nerv sistemasi tomon o'tishini to'xtatadi (12-rasm). Dorilarni bevosa va bilvosita yuborish usullari mavjud.

Vazokon strukturalar anestetik eritma yuborilgan sohaga qon kelishini kamaytiradi, og'riqsizlanish darajasini oshiradi. Shu maqsadda ko'pincha adrenalindan yoki noradrenalindan foydalananiladi. Adrenalinni 1:50000–1:200000, noradrenalin 1:25000–1:100000. Kattalar uchun adrenalinning umumiyligi miqdori 0,2 mg dan oshmasligi, noradrenalinning miqdori 0,34 mg. Ayrim bemorlarga ular qo'llanilmaydi.

MAHALLIY OG'RIQSIZLANTIRISHDA UCHRAYDIGAN XATO VA ASORATLAR

Asoratlar umumiyligi va mahalliy bo'lishi mumkin. Umumiyligi asoratlarga anafilaktik shok, hushdan ketish, anistetikdan zaharlanish kiradi.

Anafilaktik shok: Bu o'ta xavfli asorat bo'lib, ko'pincha allergik kasalliklarga moyil bemorlarda uchraydi. Uning turli xillari mavjud. Anafilaktik shokning tipik, kordial, astmasimon, serebral, abdominal

turlari farqlanadi. Kechishi bo'yicha o'ta tez kechuvchi, og'ir, o'rtacha og'irlikdagi va yengil ko'rinishlari farqlanadi. Kasallikning tipik ko'rinishida anesteziya o'tkazilgandan biroz vaqt o'tgach, bemor bezovtala-nadi. Unda qo'rquv hissi paydo bo'ladi, bosh, yuz va qo'l terisida qichishish va igna sanchilganga o'xshash sezgi paydo bo'ladi. Bemor terlaydi, boshida qattiq og'riq, qulog'ida shang'illash paydo bo'ladi. Yuz terisi oldin qizaradi, keyin esa oqarib ketadi. Qo'l oyoqlari tortishib qolishi va bemor hushidan ketishi mumkin. Ko'z qorachiqlari kengayib ketadi va yorug'likni sezmaydi. To'sh suyagi ortida kuchli og'riq paydo bo'lib, u yurak og'rig'iga o'tadi. Taxekardiya kuzatiladi. Qon bosimi keskin tushib ketadi. Bemorni ko'ngli aynab, quishi mumkin. Ayrim bemorlarda qorin shishishi, o'z-o'zidan siyidik ajralishi va defekatsiya holatlari ro'y berishi mumkin. Anafilaktik shokning boshqa ko'rinishlarida o'sha tana a'zosining kasallanishiga xos bo'lgan belgilar bilan kechishi kuzatiladi. Kasallikning chaqmoqsimon va og'ir shakllrida sanalgan belgilar yuzaga chiqmasdanoq o'lim bilan tugashi mumkin. Birinchi yordam ko'rsatish uchun yuqorida nafas yo'llarining yetarlicha o'tkazuvchanligini ta'minlash lozim. Buning uchun bemorning boshi yon tomonga burib qo'yiladi, tili tortib chiqariladi, pastki jag' oldinga siljitaladi. Og'iz ichi quсиq massalaridan artib tozalanadi. Agar, nafas olish to'xtab ulgurgan bo'lsa, sun'iy nafas oldirishga kirishiladi. Yuborilgan anestetikni qonga so'rilihini to'xtatish maqsadida shu anestetik kiritilgan soha atrofida 5 ml fiziologik eritmaga aralashtirilgan 0,5 ml – 0,1% adrenalin gidroxlorid eritmasi yuboriladi. Agar buni qilishning iloji bo'lmasa, 1 ml adrenalin eritmasini anestetik kiritilgan yo'l bo'ylab yuboriladi. Albatta antigistamin preparatlari yuboriladi (2–4 ml dimedrol eritmasi, 2–3 ml 2,5% suprastin yoki pipolfen eritmalar). Vena yoki mushak ichiga 3–5 ml 3% prednizolon, 0,5 ml 0,1% adrenalin gidroxlorid eritmalarini yuboriladi. Agar bronxaspazm belgilari bo'lsa, 10 ml 2,4% eufillin yoki 2 ml 0,5% izadrin eritmalarini yuborish zarur. Yurak faoliyatini qo'llab turish uchun yurak glikozidlari va diuretiklar yuboriladi.

Anestetikdan zaharlanish. Buning sababi anestetik dozasini oshirib yuborish va tomirga ignaning tushib qolishi oqibatida qonda mod-

da konsentratsiyasining oshib ketishi hisoblanadi. Zaharlanish ikki davrga bo'linadi:

1-davrda qo'zg'alish, ko'ngil aynish, bosh aylanishi, qulq shang'illashi, quşish kuzatiladi. Yordam ko'rsatish uchun bemorni yotqizib, 10% ammiak eritmasi hidlatiladi. Tomir ichiga 200–600 mg geksinal yoki tiopental natriy sekin yuboriladi;

2-davrda bemorning holati sustlashadi, A/D pasayadi, taxikardiya, terlash, hushdan ketish, nafas va yurak tomir faoliyatining to'xtab qolishi kuzatiladi. Yordam berish uchun yurak – qon tomir vositalari va yurakni bilvosita massaj qilish tavsija qilinadi. Profilaktika uchun anestetik yuborishdan 40–50 daqiqa oldin barbituradlar (fenobarbital 0,1 gr) yuborish kerak.

Hushdan ketish. Bu ko'p uchraydigan asorat bo'lib, bosh miyaning o'tkir gipoksiyasiga (kislорodning yetishmasligi) bog'liq bo'ladi. Bosh aylanishi, qulq shang'illashi, esnash bilan boshlanadi. Teri qoplamlari oqaradi, namanganadi, qorachiqlari kengayadi, puls kuchsiz bo'lib A/D pasayadi, nafas yuzaki, mushak tonusi yo'qolib hushdan ketish yuz beradi.

Yordam berish uchun bemorni yotqizib toza havo kelishini ta'milanadi. Novshadil spirti hidlatiladi. Yuz, bo'yin terisi sovuq suvganamlangan sochiq bilan ishqalanadi. Kam hollarda nafas analeptiklari va tomir vositalari (kordiamin, efedrin, izadrin) mushak ichiga yuborilishi mumkin.

Mahalliy og'riqsizlantirish o'tkazish jarayonida va undan so'ng asoratlar sodir bo'lishi mumkin.

I. Og'riqsizlantirish vaqtidagi asoratlar:

1. Qon tomirlarning jarohatlanishi.
2. Yumshoq tanglay muskuli parezi.
3. Mimika muskullarning parezi.
4. Diplopiya.
5. Ignaning sinishi.

II. Og'riqsizlantirishdan so'nggi asoratlar.

1. Nervlarning jarohatlanishi (nevrit, parasteziya).
2. Pastki jag'ning ineksiyadan so'nggi kontrakturasi.
3. Ineksiyadan so'nggi infiltrat.

4. Ineksiyadan so‘nggi abssess va flegmona.

Qon tomirlarning jarohatlanishi. Qon tomirlarning jarohatlanishi gematoma hosil bo‘lishi bilan nomoyon bo‘ladi. Ko‘pincha o‘tkazuvchi og‘riqsizlantirish amalga oshirilganda kuzatiladi. Bunda bemorga sovuq kompres tavsiya etiladi.

Yumshoq tanglay muskuli parezi. Perez – muskulning vaqtinchalik qisqarish hususiyatining buzilishi. Yumshoq tanglay muskuli parezida bemorda yo‘talish va quşish refleksi sodir bo‘lishi kuzatiladi.

Mimika muskullarning parezi. Og‘riqsizlantirish jarayonida yuz nerv tolasini jarohatlab qo‘yish natijasida namoyon bo‘ladi. Bu holat anestetik modda so‘rilishi bilan o‘tib ketadi.

Diplopiya – predmetni ikkita ko‘rish. Infraorbital og‘riqsizlantirishda anestetikni ko‘z kosasiga kirishi oqibatida kelib chiqadi va bu holat tezda o‘tib ketadi.

Og‘riqsizlantirish vaqtida ignaning sinishi. Inyeksion ignaning sinishi shifokorning qo‘pol harakati, suyakka qattiq bosish oqibatida yuz beradi. Agar igna ko‘rinmasa yoki pinset bilan chiqmasa, jarrohlik aralashuvi kerak bo‘ladi.

Nervlarning jarohatlanishi. Nervlarning jarohatlanishi oqibatida travmatik nevrit bo‘lishi va bunda bemor ushbu nerv inervatsiyasi (nerv tolalari bilan ta‘minlanishi) sohasida doimiy simillovchi og‘riqlar bo‘lishidan shikoyat qiladi. Paresteziyada esa nerv inervatsiyasi soha-sida sezish hususiyati pasayishi bilan namoyon bo‘ladi.

Pastki jag‘ning inyeksiyadan so‘nggi kontrakturasi. Pastki jag‘-ning inyeksiyadan so‘nggi kontrakturasida pastki jag‘ harakati chegaralanib qoladi va natijada bemor og‘zini to‘liq ocha olmaydi.

Inyeksiyadan so‘nggi infiltrat. Inyeksiyadan so‘nggi infiltrat igna bilan to‘qimalarni jarohatlanishi va ko‘p miqdorda anestetik modda yuborilishi oqibatida sodir bo‘ladi.

Inyeksiyadan so‘nggi abssess va flegmona. Ineksiyadan so‘nggi abssess va flegmona hosil bo‘lishi inyeksiya davrida infeksiya tushishi natijasida ro‘y beradi.

Tayanch iboralar:

Og‘riqsizlantirish – og‘riq sezgisini qoldirish maqsadida qo‘llaniladigan tadbirlar yig‘indisi;

Umumiy og‘riqsizlantirish – sun’iy vositalarni qo‘llash yo‘li bilan markaziy nerv sistemasini chuqr tormozlantirish;

Ingalyatsion usulda umumiy og‘riqsizlantirish – narkotik moddani nafas yo‘llari orqali yuboriladigan turi;

Ingalyatsiyasiz usulda umumiy og‘riqsizlantirish – narkotik moddani vena ichi, to‘g‘ri ichak va teri ostiga yuborish turi;

Premedikatsiya – stomatologik davo oldidan qo‘rquv, emotsiyal xavotirlikni mahsus dori-darmonlar yordamida bartaraf etish;

Mahalliy og‘riqsizlantirish – bemorning es-hushini saqlagan hol-da tananing biron-bir qismidagi og‘riq sezgisini yo‘qotishga qaratilgan davo chorasi;

Applikatsiyali og‘riqsizlantirish – og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasiga anestetik moddani surtish, sepish, doka sochig‘iga shimdirib qo‘yish bilan og‘riqsizlantirish;

Inyeksion og‘riqsizlantirish – anestetik eritmasini shpris yordamida bevosita to‘qima ichiga kiritilishi;

Infiltratsion og‘riqsizlantirish – anestetik eritmasi bevosita jarrohlik harakati maydonida, to‘qima ichiga kiritilishi va pereferik nerv retseptorlarining sezgirligini oshirilishi;

O‘tkazuvchi og‘riqsizlantirish – jarrohlik maydonini innervatsiya qiluvchi, sezuvchi nervni tanasini yoki biron bir shoxini blokada qilish;

Anafilaktik shok – allergik kasallikkarga moyil bemorlarda uch-raydigan o‘ta xavfli asorat;

Hushdan ketish – bosh miyaning o‘tkir gipoksiyasiga bog‘liq bo‘lgan bosh aylanishi, qulq shang‘illashi, esnash bilan boshlanib, teri qoplamlari oqarishi, ko‘z qorachiqlari kengayishi, pulsi kuchsiz bo‘lib A/D pasayishi, nafas olish susayishi, mushak tonusi yo‘qolib hushdan ketish.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Og‘riqsizlantirish deb nimaga aytildi?
2. Og‘riqsizlantirish necha turga bo‘linadi?
3. Umumiy og‘riqsizlantirish deb nimaga aytildi?
4. Umumiy og‘riqsizlantirishning qanday turlarini bilasiz?
5. Premedikatsiya nima uchun amalga oshiriladi?

6. Mahalliy og‘riqsizlantirish deganda nimani tushunasiz?
7. Mahalliy og‘riqsizlantirishning qanday turlarini bilasiz?
8. Applikatsiya usulida og‘riqsizlantirish qanday amalga oshiriladi?
9. Infiltratsion og‘riqsizlantirish deb nimaga aytildi?
10. Infiltratsion og‘riqsizlantirish o‘tkazish uchun qanday ko‘rsatmalarni bilasiz?
11. O‘tkazuvchi og‘riqsizlantirish infiltratsion og‘riqsizlantirishdan nimasi bilan farq qiladi?
12. O‘tkazuvchi og‘riqsizlantirishning qanday turlarini bilasiz?
13. Og‘riqsizlantirishdagi asoratlar nechta guruhgaga bo‘linadi?
14. Anafilaktik shok qanday klinik ko‘rinishga ega?
15. Anafilaktik shokda birinchi yordam qanday tartibda ko‘rsatiladi?
16. Hushdan ketish asorati nima uchun sodir bo‘ladi va qanday klinik ko‘rinishga ega?
17. Og‘riqsizlantirish vaqtida qanday asoratlar sodir bo‘lishi mumkin?
18. Og‘riqsizlantirish o‘tkazilganidan so‘nggi qanday asoratlar sodir bo‘lishi mumkin?

VI BOB

TISH QATTIQ TO‘QIMALARINING NUQSONLARI

Tish qattiq to‘qimasi nuqsonlari kasalliklari nokariyesli va kariyesli nuqsonlarga bo‘linadi.

TISH QATTIQ TO‘QIMALARINING NOKARIYESLI NUQSONLARI

Tish qattiq to‘qimalarining nokariyesli nuqsonlari 80–82% aholida uchraydi. Ushbu kasalliklarni kelib chiqish sabablari to‘liqligicha aniq emas. Nokariyesli nuqsonlar kundan kunga ortib bormoqda. Kasalliklarni kelib chiqishida kasbiy zararlar, yo‘ldosh kasalliklar (oshqozon ichak kasalliklari, revmatizm...), tish to‘qimalari mineralallashuvining buzilishlari asosiy o‘rin tutadi. Nokariyes kasalliklar paydo bo‘lish muddatiga asoslanib ikki guruhga bo‘linadi:

I. Tishning rivojlanish davrida hosil bo‘lgan (murtak davrida) nuqsonlar.

- Gipoplaziya;
- Giperplaziya
- Endemik flyuoroz;
- Tish rangining o‘zgarishi;
- Tish hajmi va shakli anamaliyasi;
- Irsiy o‘zgarishlar.

II. Tish chiqqanidan so‘ng hosil bo‘lgan nuqsonlar.

- Patologik yedirilish;
- Ponasimon nuqson;
- Tish eroziyasi;
- Tish qattiq to‘qimalarining nekrozi;
- Tish jarohati;
- Tish pigmentatsiyasi;
- Tish gipersteziyasi.

TISHNING RIVOJLANISH DAVRIDA HOSIL BO'LGAN NUQSONLARI

Gipoplaziya bu nuqsonli tish to'qimalarining rivojlanmasligi nuqsoni bilan xarakterlanadi. Tish murtak rivojlanish davrida metabolitik buzilishlar natijasida, emalda miqdor va sifat jihatdan buzilishlar bo'ladi.

Gipoplaziya sut tish va doimiy tishlarda uchraydi. Gipoplaziya turli klinik ko'rinishga ega. Gipoplaziyaning sistemali, mahalliy va chegaralanganligi farqlanadi.

Sistemali gipoplaziya. Sistemali gipoplaziyaning kelib chiqishi tishning rivojlanishi davrida, sodir bo'lgan modda almashinuvining buzilishi bilan bog'liq, aynan minerallar almashinushi muhim o'rinni tutadi. Sut tishlarning gipoplaziyasi homilador onaning xastaligi, ovqatlanish me'yoringizni buzilishi, kerak bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilmaslik oqibatida kelib chiqadi. Xastalik bir guruuhga kirgan tishlarda borsimon ba'zan, sarg'ish dog'lar, nuqson paydo bo'lishi bilan kechadi. Nuqsonlar simmetrik bo'lib nuqsonlar aksariyat hollarda vestibulyar yuzada joylashadi.

Mahalliy gipoplaziya. Mahalliy gipoplaziya faqat bir dona tishda aniqlanadi. Periodont to'qimasi yallig'langan sut tishning ostidagi doimiy tish murtagi zararlanishi oqibatida hamda jarohat ta'sirida kelib chiqadi. Xastalik yengil kechganda tish emal qavatining rangi o'zgarib, bo'rsimon, sarg'ish yoki qo'ng'ir tus oladi. Og'ir shaklida tishning o'lchamlari, shakli va strukturasida o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Chegaralangan gipoplaziya. Bir guruuh yonma-yon joylashgan tishlarda emal qavatining noma'lum sabablarga ko'ra jarohatlanishi oqibatida yupqalashib, ular relefining o'zgarishi bu xastalik uchun xarakterli hisoblanadi. Chegaralangan gipoplaziya yuz-jag' sohasidagi jarohat natijasida, surunkali kechadigan jag' suyagini yiringli yallig'lanishi va radioaktiv nurlanish oqibatida kelib chiqishi mumkin.

Gipoplaziyaning yengil shakllarida tishlarning vestibulyar yuzasida bo'rsimon dog'lar paydo bo'ladi. Dog'ning kattaligi, shakli, hajmi har xil. Dog' yuzasi yaltiroq va silliq. Gipoplaziyaning og'ir shakllarida

bemorlar nuqtali, piyolasimon o‘yiqlar, ko‘ndalang egatlar paydo bo‘li- shidan shikoyat qiladilar.

Solishtirma tashxis. Gipoplaziyani aniqlashda kariyes bilan solish- tirma tashxis o‘tkaziladi. Gipoplaziyada dog‘lar simmetrik, vestibulyar yuzada joylashgan, vital bo‘yash sinamasini o‘tkazganda bo‘yalmaydi, kariyesda bo‘yaladi. Gipoplaziyani zondlaganda kariyesdan farqli yuzasi silliq.

Davolash. Davolash klinik formasiga bog‘liq. Profilaktika maqsadi- da remeneralizatsiya terapiyasi o‘tkaziladi. Og‘ir formalarida nuqsonni bartaraf qilish maqsadida plombalanadi yoki protezlanadi.

ENDEMIK FLYUOROZ

Tish qattiq to‘qimalarida qayd etiladigan bunday xastalik organizm- ga tashqi muhitdan ichimlik suvi orqali me’yordan ko‘proq ftor ele- mentining (suvda erigan holda) kirishi oqibatida yuzaga keladi. Flyuo- roz bu ftor elementi chaqirishi mumkin bo‘lgan gipoplaziyadir, desak ham xato qilmaymiz. Kishi organizmining ftorga bo‘lgan bir sutkalik talabi 3,5 mg atrofidadir. Bu talab asosan ichimlik suvi tarkibida bo‘ladigan ftor orqali qondiriladi. Organizmnning ana shunday talabini qondirish uchun ichimlik suvining 1 litrida 0,8–1,2 mg ftor bo‘lishi kifoyadir. Ichimlik suvi tarkibidagi ftor miqdori ko‘rsatilgandan oshib ketgan hollarda flyuoroz xastaligi kuzatiladi. Flyuoroz xastaligi 5 xil shaklda namoyon bo‘ladi.

Chiziqchali (shtrixli) shakli. Bunda tish emali sathida ko‘pincha vertikal yo‘nalishdagi bo‘rsimon chiziqlar paydo bo‘ladi. Ayrim hollar- da bu chiziqlar faqat lupa oynasi orqali qaralganda aniqlanishi mum- kin bo‘lgan darajada nozik bo‘lishi tabiiy. Emal qavatining bu xil jarohatlanishi ko‘pincha yuqori jag‘ markaziylari va yon kurak tishlari sathidagina, ba’zan esa pastki kurak tishlarda namoyon bo‘ladi. Bu xastalikda tish emal qavatining faqat dahliz (vestibulyar) sathigina o‘zgarishga uchraydi.

Dog‘simon shakli. Tish emal qavati sathida katta-kichik, yaqqol namoyon bo‘luvchi bo‘rsimon rangli dog‘lar paydo bo‘ladi. Bu dog‘lar yalpi bo‘lib, unda chiziqlar bo‘lmaydi va ular butun emal qavati sathi



13-rasm. Flyuoroz.

bo'ylab joylashgan bo'ladi. Ayniqsa bunday dog'lar kurak tishlarining kesuvchi qirralari atrofida ko'plab hosil bo'ladi. Emaldagi bu xil dog'-lar keskin sog'lom to'qimaga o'tib ketadi. Dog'li emal sathi silliq va yaltiroqdir. Dog'lar aksariyat hollarda oldingi kurak tishlarda uchrasada, boshqa tishlar ham ulardan xoli bo'lmaydi (13-rasm).

Hol-hol bo'rsimon nuqtali shakli. Flyuoroz xastaligining bu xil shakli har xil klinik belgilari bilan kechadi. Odatda tish emal qavati bo'r rangida bo'ladi. Ba'zan esa u yaltiroqligini saqlashi yoki tiniqligini yo'qotishi mumkin. Emal sathida jarohatli nuqta (chuqurcha)lar paydo bo'lishi xususiy hol hisoblanadi. Bunday chuqurchalar atrofi (devorlari) notekis, qoramtil tusda bo'lib, o'lchamlari 1–1,5 mm diametrli, chuqurligi esa 0,1–0,3 mm bo'ladi. Bu xil nuqtasimon chuqurchalar, aksariyat hollarda tish emalining dahliz sathida joylashgan bo'ladi. Bunday sathlarda emalning jarohati natijasida ochilib qolgan dentin to'qimasining yuzasi och sarg'ish rangdan tortib, qo'ng'ir-to'q jigar-ranggacha bo'yalgandir.

Flyuoroz xastaligi ba'zan emalning eroziyasi shaklida ham namoyon bo'ladi. Bo'rsimon rangli emal sathida birmuncha keng va chuqr jarohatlar paydo bo'lib, tish yuzasining katta qismini egallashi mumkin. Hosil bo'lgan jarohatlar har xil notekis shakllarga ega bo'ladi. Emalning bu xil jarohatlanishi natijasida tishlar kuchli yemiriladi.

Destruksiya shaklida kechuvchi flyuoroz xastaligi. Emalning bu xil jarohatlanishi, aksariyat hollarda suv tarkibida ftorning me'yordan

bir necha marotaba ko‘p bo‘lishi natijasida, shu suv ichiladigan hudud va tumanlardagina qayd qilinadi. Bunday hollarda tishning nafaqat emal qavati jarohatlanib qolmay, balki dentin to‘qimasining jarohatlanishi ham kuzatiladi. Natijada tish koronkasining shakli o‘zgarishi, uning kuchli yemirilishi hollari namoyon bo‘ladi. Tish emal qavatining tusi keskin o‘zgaradi.

Flyuoroz xastaligida bemorlar tishlarining rangi o‘zgarishidan, ba’zan ularning yemirilayotganidan shikoyat qilishadi. Flyuoroz xastaligidagi emal rangining o‘zgarishini kariyes va gipoplaziya natijasi da sodir bo‘ladigan aynan shu xildagi o‘zgarishlardan farqlay bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Solishtirma tashxis. Flyuorozni aniqlashda kariyes kasalligi bilan solishtirma tashxis o‘tkaziladi. Kariyesda nuqson bitta va bo‘yin qismida joylashgan, flyuorozda esa bir nechta va tishning vestibulyar yuzasida joylashadi.

Davolash. Davo tadbirlari tish qattiq to‘qimalaridagi o‘zgarishlarning chuqurligiga bog‘liqdir. Jarohatlarning chuqurligi natijasida tishlarda yemirilishlar, toj qismi shaklining o‘zgarishi sodir bo‘lgan taqdirda davo tadbirlari ortopedik usulda olib boriladi. Yengil klinik belgilar bilan kechuvchi flyuoroz xastaligida terapevtik davo chora-tadbirlari qo‘llaniladi. Tishlar sathida hosil bo‘lgan dog‘larga kuchsiz kislotalar eritmasi bilan ishlov berilib, undan keyin minerallashtiruvchi xususiyatga ega bo‘lgan eritmalar yordamida dog‘lar yo‘qotiladi. Pigmentli dog‘larni yo‘qotishda 10% li xlorid, fosfat kislotasini ishlatish maqsadga muvofiqdir. Fosfat kislotasi kompozit plomba to‘ldirgichlar tarkibida alohida shisha idishda bo‘ladi. Flyuorozni davolash va profilaktika qilish uchun suvdagi fтор miqdorini me’yorga olib kelish kerak. Hozirgi kunda flyuorozni fotopolimerlar bilan davolanadi.

TISH MILKNI YORIB CHIQQANIDAN SO‘NG HOSIL BO‘LGAN NUQSONLAR

Patologik yedirilish. Har qanday tish yoshga qarab sekin-asta yediriladi. Ushbu yedirilishni fiziologik yedirilish deyiladi. Lekin ayrim hollarda yedirilish tez kechadi va bu yedirilishni patologik yedi-

rilish deyiladi. Patologik yedirilish anomaliyali prikuslarda, yomon odatlar oqibatida, zararli ishlab chiqarish omillari ta'sirida, masalan havoda kislota parlari ko'p bo'lganida sodir bo'ladi. Tishlar yedirilishi yuqori va pastki jag'larni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bu esa prikus balandligining pasayishiga va natijada yuz shaklining o'zgarishiga olib keladi. Ayrim hollarda patologik yedirilishda bemor gipersteziyadan (sezuvchanlik) shikoyat qiladi. Patologik yedirilishni davolash tish qatorlariga olinadigan yoki olinmaydigan ortopedik protezlar taylorlash, modda almashinuvini yaxshilash va kalsiy preparatlarini qabul qilishga qaratiladi, avvalambor, patologik yedirilishni keltirib chiqargan sababchi faktor bartaraf etiladi, gipersteziya davolanadi. Ortoped stomatolog bilan maslahatlashgan holda prikus balandligi tiklanadi.

Ponasimon nuqson. Ponasimon nuqson o'rta va katta yoshdag'iinsonlarda uchraydi. Kasallikning kelib chiqishida mexanik ta'sir muhim o'rin tutadi. Tishlarning vestibulyar yuzasining bo'yin qismida «V» shaklida nuqson paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ko'pincha premo-lyarlarda kuzatiladi. Nuqson yuzasi silliq, yaltiroq, qattiq bo'ladi. Kasallik sekin, ikkilamchi dentin hosil bo'lishi bilan kechadi. Shuning uchun ko'pincha bemor og'riqlardan shikoyat qilmaydi. Ayrim hollarda bemorlar ximik, termik, mexanik ta'sirlardan hosil bo'lgan qisqa muddatli og'riqdan va albatta kosmetik nuqsonдан shikoyat qilishadi (14-rasm).



14-rasm. Ponasimon nuqson.

Solishtirma tashxis. Ponasimon nuqsonni aniqlashda tish qattiq to‘qimalari eroziyasi bilan solishtiriladi. Ponasimon nuqson uning shakli, joylashish o‘rni, og‘riqli sezgilarining yo‘qligi bilan farqli.

Davolash. Davolash kasallikning rivojlanish darajasiga bog‘liq. Kasallikning boshlang‘ich bosqichlarida remineralizatsiya terapiysi o‘tkaziladi. Agar nuqson 2 mm dan katta bo‘lsa kompazit plomba-lovchi xomashyolar yordamida plombalanadi.

Tish qattiq to‘qimalari eroziyasi. Xastalik tish emalida ba’zan emal va dentinda hosil bo‘ladi. Tishning vestibulyar yuzasida bo‘yin qismiga yaqinroq oval, yumaloq, noaniq shaklga ega bo‘lgan nuqson paydo bo‘ladi.

Eroziya faqat kurak, qoziq va premolyarlarda kuzatiladi. Eroziya ikkitadan ortiq tishlarda uchraydi. Bemorlar mexanik va termik ta’sirlardan hosil bo‘ladigan keskin og‘riqdan (gipersteziya) shikoyat qiladilar. Xastalikning boshlanish shaklida, emal eroziyasida emalning rangi o‘zgarmaydi, silliq, yaltiroq bo‘ladi. Rivojlangan shakllarida nuqson dentinni ham zararlab, och sariq ayrim hollarda to‘q rangga ega bo‘ladi. Klinik kechishiga ko‘ra ikki shaklga bo‘linadi: aktiv va stabil. Kasallikning aktiv shaklida gipersteziya bilan kechuvchi nuqson paydo bo‘ladi. Stabil shaklida nuqson sekin paydo bo‘ladi, bemor og‘riqlardan shikoyat qilmaydi.

Solishtirma tashxis. Eroziyani aniqlashda solishtirma tashxis ponasimon nuqson va yuza kariyes bilan o‘tkaziladi. Kariyesda nuqson tubi va cheti g‘adir-budur, eroziyada esa aksi silliq bo‘ladi. Ponasimon nuqson nuqsonning shakli bilan farq qiladi.

Davolash. Davolash kasallikning kechish shakliga bog‘liq. Kasallikning boshlang‘ich bosqichida gipersteziya bartaraf qilinadi va remineralizatsiya terapiyasi o‘tkaziladi. Nordon sharbatlar, mevalar iste’mol qilmaslik tavsiya etiladi. Kasallikning og‘ir formalarida nuqson kompozit plomba xomashyolari bilan plombalanadi.

TISH JAROHATLARI


Tish jarohatlari o‘tkir va surunkali bo‘ladi. O‘tkir jarohat ta’sirida lat yeishi, tishning chiqishi va sinishi kuzatiladi.

Lat yeish

Lat yeishda tish tish qatorlarini jipslashtirilganda va tishlaganda og'riydi. Palpatsiya biroz og'riqli bo'ladi. Og'riqlar ayniqsa tish ildizi sohasidagi o'tuv burma sohasida, hamda tishni qimirlatilganda kuza tiladi. Tishning toj qismining rangi o'zgarib, pushti tusga kiradi. Davolash uchun og'riqsizlantiriladi, tish bo'shlig'i ochiladi, pulpa eks terpatsiya qilinib, plombalanadi. Agar tish toj qismining rangi o'z garmasa, pereodontdagi reaksiyani bartaraf qilish maqsadida tishga bir necha kun «dam» beriladi. Ya'ni shu tishda ovqat luqmasi uzib olinmaydi, chaynalmaydi.

Tishning chiqishi

Tishning chiqishi deb, uning alveola katagida bo'shashib qolishiga aytildi. Tishning chiqishi to'liq, to'liq bo'limgan va ezelgan bo'lishi mumkin. Tishning to'liq chiqishida tish pereodontal tolalardan to'liq uzilib, alveola katagidan chiqishi oqibatida tishning tushishi kuzatiladi. To'liq bo'limgan chiqish tish ildizining alveola katagida qisman nishablanishi va pereodontal tolalarning jarohatlanishi bilan kechadi (15-rasm). Tish chiqishida bemor tish holatining o'zgarganligiga,



15-rasm. Yuqori o'ng markaziy kurak tishning to'liq chiqishi, chap markaziy kurak tishning to'liq bo'limgan chiqishi.

og‘riqdan va qimirlab qolganligidan shikoyat qiladi. Tishning ezilgan chiqishida tishni alveola katagidan jag‘ tanasi tomon qisman yoki to‘liq nishablanganligi va suyak to‘qimasining qisman buzilganligi kuzatiladi. Tish ildizi atrofidagi suyak to‘qimasining holati muhim ahamiyatga ega. Agar tish ildizining yarmidan ortiq qismi alveola katagida saqlanib qolgan bo‘lsa uni saqlab qolishga harakat qilinadi. Buning uchun, avval og‘riqsizlantiriladi va tishni o‘z o‘rniga to‘g‘rilanadi. So‘ng tish qimirlashining oldini olish, «dam» berish maqsadida shinalanganadi. Shinalangandan so‘ng pulpa holatini aniqlash uchun EOD qilinadi. Agar EOD u 2–3 mA ga teng bo‘lsa pulpa faoliyatini saqlangan, 100 mA ga teng bo‘lsa pulpa nekrozga uchragan bo‘ladi. Agar pulpa zararlangan bo‘lsa eksterpatsiya qilinadi va plombalanadi.

Tishning sinishi

Tishning sinishi uning toj qismida yoki ildiz qismida sodir bo‘lishi mumkin. Toj qismi sinishi tish bo‘shlig‘ining berkligi yoki ochiqligi bilan kuzatilishi mumkin. Tishning toj qismining sinishi tish bo‘shlig‘ining yopiqligi bilan sodir bo‘lsa tishni kompazit plombalar yordamida tiklanadi. Sinish tish bo‘shlig‘ining ochilishi bilan bog‘liq bo‘lsa og‘riqsizlantirib, pulpa eksterpatsiya qilinadi va plombalanadi.

Tish ildizi sinishining quyidagi turlari farqlanadi: ko‘ndalang, bo‘ylama, qiyshiq va parchalangan. Sinish turiga qarab tashxis va davo turi aniqlanadi. Tashhisni aniqlashda rentgenologik tekshiruv muhim o‘rin tutadi. Bo‘ylama, qiyshiq va parchalangan sinish turlarini davolash birmuncha qiyinchilik tug‘diradi va ulardan tayanch sifatida foydalanib bo‘lmaydi. Ko‘ndalang sinishda sinish yo‘li ildizning turli qismidan o‘tishi mumkin. Agar sinish yo‘li ildizning 1/4–1/3 qismi yoki o‘rtasidan o‘tsa depulpatsiya qilinadi, ildiz kanali plombalanadi va mahsus shtift (o‘zak) yordamida tutashtiriladi.

KARIYES

Kariyes – lotincha so‘z bo‘lib «chirish» degan ma’noni anglatadi. Kariyes keng tarqalgan kasallik bo‘lib, aholining 95% da uchraydi. Kariyes murakkab patologik jarayon bo‘lib, bunda tish to‘qimalari tez

yoki sekin yemiriladi va tishda zararlangan bo'shliq – kovak hosil bo'ladi. Hozirgi vaqtda kariyesning kelib chiqishi haqida bir necha yuz nazariyalar bor. Kariyesni kelib chiqishida ko'pgina faktorlar o'rinnutadi. Asosiy faktorlarga quyidagilar kiradi:


- og'iz bo'shlig'i mikroflorasi;
- ovqat va ovqatlanish rejimi;
- suv tarkibidagi ftorining miqdori;
- so'lakning tarkibi va hajmi;
- organizimning umumiy holati;
- organizimga bo'lgan ekstremal ta'sirlar;
- tashqi va ichki muhitdagi endogen va ekzogen faktorlar.

Kariyesning uch xil turi mavjud: anatomik, topografik va klinik. Anatomik tasnif asosan emal kariyesi, dentin kariyesi, sement kariyesidan iborat. **Topografik tasnif** xastalik chuqurligiga asoslangan bo'lib quyidagicha bo'linadi: dog' shaklidagi kariyes, yuza kariyes, o'rta kariyes va chuqur kariyes (16-rasm).

Klinik kechishi bo'yicha tez kechuvchi va sekin kechuvchi kariyeslar mavjud. Klinik ko'rinishiga ko'ra oq va pigmentlangan dog'lar (jigarrangdan qong'ir ranggacha) bo'ladi. Tekshirishlarda kariyes jadal kechganda oq, sekin kechganda pigmentlangan bo'lishi aniqlangan. Kariyesni kechishi esa davo rejasini tuzishda katta ahamiyatga ega.


Kariyes kovaklari Blek tasnifiga asosan V ta sinfga bo'linadi:

I sinf kichik va katta oziq tishlarning fissuralari, tabiiy izlarda joylashgan kariyes kovaklari;



16-rasm. Kariyes bosqichlari:

a – kariyes dog' shaklida; b – yuza kariyes; d – o'rta kariyes; e – chuqur kariyes.



17-rasm. Blek bo'yicha kariyes kovaklari tasnifi:

a – I sinf; b – II sinf; d – III sinf; e – IV sinf; f – V sinf.

II sinf premolyar va molyarlarning kontakt yuzalarda joylashgan kariyes kovaklari;

III sinf kesuv qirraning butunligi saqlangan qoziq va kesuv tishlarning kontakt yuzalaridagi kariyes kovagi;

IV sinf kesuv qirra burchagining butunligi buzilgan qoziq va kesuv tishlarning kontakt yuzasidagi kariyes kovagi;

V sinf tishlarning vestibulyar va oral yuzalarining bo'yin qismida joylashgan kariyes kovaklari.

Dog' shaklidagi kariyes

Odatda dog' shaklidagi kariyesda bemorlar hech qanday subyektiv sezgilarни qayd qilmaydilar. Ayrim hollarda bemorlar tishning qamashishidan shikoyat qiladilar. Emal demineralizatsiyasi chegaralangan yuzada rangining o'zgarishi, uni oq, och jigarrang, to'q jigarrangdan qong'ir tusgacha bo'lishi kuzatiladi. Kasallik tishning chegaralangan qismida emal yaltiroqligini yo'qolishi bilan boshlanadi. Odatda bun-

day o'zgarishlar tishning bo'yin qismida joylashadi. Zondlaganda ushbu yuza tekis, og'riqsiz. Vital bo'yash sinamasida dog' ko'k rangga bo'yaladi. EOD da tish pulpasi 2–6 mkAga javob beradi. Transillyum-natsiya dog'ning hajmi va joylashishidan qat'iy nazar aniqlanadi. Dog' shaklidagi kariyes flyuoroz va gipoplaziya bilan solishtirma tashxis o'tkaziladi.

YUZA KARIYES

Yuza kariyes hosil bo'lgan dog' kariyes o'rnida destruktiv o'zgarishlar natijasida hosil bo'ladi. Bemor ximik ta'sirlar shirin, sho'r, nordondan hosil bo'ladigan qisqa muddatli og'riqdan shikoyat qiladi. Agar kariyes kovagi tishning bo'yin qismida joylashgan bo'lsa termik ta'sirdan ham og'riq paydo bo'lishi mumkin. Ko'rik o'tkazilib zondlaganda kichik nuqson aniqlanadi. Nuqson faqat emal qavatida joylashadi. Elektr sezuvchanlik 2–6 mkA teng bo'ladi. Yuza kariyesni aniqlashda gipoplaziya, tish eroziyasi, ponasimon nuqson bilan solishtirma tashxis o'tkaziladi.

O'rta kariyes

O'rta kariyesda nuqson emal, dentin chegarasidan o'tib o'rtacha chuqurlikka ega bo'ladi. Aksariyat hollarda bemor og'riq sezmaydi. Kamdan-kam hollarda bemor termik, mexanik, ximik ta'sirlardan paydo bo'ladigan qisqa muddatli og'riqdan shikoyat qiladilar. Ko'rik o'tkazilib, zondlaganda o'rta chiqurlikka ega bo'lgan kariyes kovagi borligi, kovak tubida yumshagan dentin borligi uchun g'adir-budurliligi aniqlanadi. O'rta kariyesni aniqlashda ponasimon nuqson, eroziya, surunkali periodontit bilan solishtirma tashxis o'tkaziladi. Gipoplaziya, eroziya, ponasimon nuqson belgilari yuqorida bayon etildi. Surunkali pereodontit bilan solishtirma tashxis o'tkazilganda quyidagilarga e'tibor beriladi. O'rta kariyesni charxlaganda sezuvchanlik emal dentin chegarasida mavjud. Surunkali periodontitda esa sezuvchanlik yo'q. Elektr sezuvchanlik o'rta kariyesda 2–6 mkA ga, pereodontitda esa 100 mkA ga teng bo'ladi.

Chuqur kariyes

Chuqur kariyes uchun hamma turdag'i ta'sirlardan hosil bo'ladigan qisqa muddatli og'riq xosdir. Og'riq ta'sir etuvchi muolajani olgandan so'ng to'xtaydi. Ko'rik o'tkazilib yumshagan dentin bo'lgan chuqur kariyes kovagi borligi aniqlaniladi. Zondlanganda kariyes kovagi tubi og'riqli, elektr sezuvchanligi 2–6 mkA ga teng, lekin ayrim hollarda 10–12 mA ga teng bo'ladi. Chuqur kariyesni aniqlashda o'rta kariyes, o'tkir qisman pulpit va surunkali fibroz pulpit bilan solishtirma tashxis o'tkaziladi. O'rta kariyes ta'sirlardan hosil bo'lgan og'riq bilan, kovakning chuqurligi bilan farqlanadi. Pulpitlardan og'riqning o'z-o'zidan paydo bo'lishi, og'riqning davomiyligi bilan farqlanadi. Pulpitlarda elektr sezuvchanlik 15–20 mA ga teng bo'ladi.

Kariyeslarni davolash

Kariyesni davolash mahalliy va umumiy xarakterga ega. Umumiy xarakterga ega bo'lgan davolash tadbirdi odam organizmining himoya kuchlarini, to'qimalar rezistentligini oshirishga qaratilgan. Shu maqsadda bemorga B, D, E vitaminlar hamda mineral komponentlar tavsiya etiladi. Masalan, glyukanat kalsiy, fitin.

Mahalliy davo to'qimalarda sodir bo'lgan o'zgarishlarga bog'liq. Dog' shaklidagi kariyesda to'qimalar charxlanmaydi va dog' hosil bo'lgan demineralizatsiya bo'lgan sohaga yo'qotilgan mineral komponentlar kiritiladi. Buning uchun remineralizatsiyalovchi eritmalar aplikatsiya qilinadi. Ushbu eritmalarining asosiy komponentini kalsiy, fosfor, fтор tashkil etadi. Remineralizatsiya terapiyasining effektivligini vital bo'yash sinamasini o'tkazib aniqlanadi. Tarkibida fтор saqlovchi tish pastalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Tishda kariyes kovagi bo'lgan tishlarni davolash uchun patologik o'zgarish sodir bo'lgan to'qimalarni olib tashlanadi.

O'rta kariyesni davolashda kariyes kovagini charxlab, shakllantirib, quritilib, avval taglik so'ng doimiy plomba qo'yiladi.

Chuqur kariyesni davolashda kariyes kovagining mikroflorasini zararsizlantirish pulpaning yallig'lanishining oldini olish maqsadida davolovchi malham qo'yiladi. Davolovchi malham sifatida tarkibida

gidrookisid kalsiy bo‘lgan pastalardan foydalaniladi. Davolovchi mal-hamdan so‘ng ajratuvchi suvli dentin, fosfat sementli taglik so‘ng doi-miy plomba bilan tiklanadi.

Yuza, o‘rta va chuqur kariyeslarda albatta patologik o‘zgargan to‘qimalarini olib tashlash kerak bo‘ladi. Buning uchun tish charxlanadi.

Tishni charxlash kariyesni davolashning asosiy bosqichlaridandir. Kariyes kovagi sinfidan qat’iy nazar charxlash va kariyes kovagini shakllantirish quyidagi bosqichlardan iborat.

1. Zarur bo‘lsa og‘riqsizlantirish.

2. Kariyes kovagini ochish.

3. Kariyes kovagini kengaytirish va nekrotomiya qilish (yumshagan va pigmentlangan dentinni olib tashlash).

4. Kovakni shakllantirish.

Kariyes kovagini charxlashda sog‘lom to‘qimalarni asrash prinsipi-ga asoslangan holda patologik o‘zgargan to‘qimalarni olib tashlanadi.

5. Kariyes kovagini shakllantirilgandan so‘ng, tishning anatomik shaklini va funksional holatini tiklash maqsadida plombalanadi.

Plombalash uchun kovakni tayyorlanadi. U quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Plombalash uchun kerak bo‘lgan asboblarni tayyorlash;

2. Plombalovchi xomashyoni tayyorlash;

3. Plombalanadigan kovakni so‘lakdan himoya qilish;

4. Kovakni quritish;

5. Kovak kontakt yuzada bo‘lsa ajratuvchi matritsa qo‘yish;

6. Plombalovchi xomashyoni tayyorlash;

7. Kovakni qayta quritish;

8. Taglik qo‘yish;

9. Plombalovchi xomashyoni kovakka kiritish;

10. Plombani shakllantirish, sillqlash va sayqal berish;

11. Plombani so‘lakdan izolyatsiya qilish.

Kariyesni davolashda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan xato va asoratlar, ularni bartaraf etish

Kariyesni davolashda quyidagi asoratlar kelib chiqishi mumkin. Ular quyidagilar:

1. Tashxis aniqlashdagi xatolik;
2. Kariyes kovagini charxlashda tish bo'shlig'ining ehtiyyotsizlik oqibatida ochilishi;
3. Tishning kontakt yuzasini plombalashda matriksadan foydalanmaslik natijasida ortiqcha plomba milk so'rg'ichini ezib qo'yishi;
4. Tishlarni plombalashda yon tish bilan kontakt nuqtaning yo'q bo'lishi, tishlarning orasi yoriq bilan ochilib qolishi natijasida milk so'rg'ichi yallig'laishi;
5. Plombalovchi xomashyoning toksin ta'siri natijasida pulpaning nekrozi;
6. Plombalashda prikusni ko'tarib qo'yish;
7. Kariyes kovagiga ishlov berishda qilingan xato oqibatida pulpaning kuyishi;
8. Shakllantirilgan kovakka spirt yoki kuchli ta'sir etuvchi modda bilan ishlov berishdagi xatolik oqibatida pulpaning yallig'lanishi;
9. Karies kovagidagi patologik o'zgargan to'qimalarni to'liq olinmasligi oqibatida ikkilamchi yoki qaytalovchi kariesning kelib chiqishi;
10. Karies kovagiga to'g'ri shakl berilmaganligi oqibatida plombanning darhol yoki tez muddatda tushib ketishi;
11. Plomba ashysosi, rangi to'g'ri tanlanmaganligi oqibatida tish ranguning o'zgarishi.

KARIYES PROFILAKTIKASI

Hozirgi davrgacha kariyes kasalligining kelib chiqish sabablari oxirigacha aniqlanmagan. Kariyesni keltirib chiqaruvchi uchta omil o'rincutadi:

1. Tish karashlari mikroorganizmlari;
2. Shirinliklar;
3. Ftor taqchilligi.

Shu uchta omilga ta'sir ko'rsatish kariyes intensivligini kamayishiga olib keladi. Kariyes intensivligini kamaytirish uchun tishni karashlardan tozalash, kunlik taomnomada shirinlikni kamaytirish, ftor taqchilligini bartaraf etish zarur bo'ladi.

Tayanch iboralar:

Kariyes – tish qattiq to‘qimalarining yemirilishi natijasida zararlangan bo‘sqliq – kovak hosil bo‘lishi bilan kechadigan kasallik;

Nokariyesli nuqsonlar – tish qattiq to‘qimalarining kariyes tabiatiga ega bo‘lmagan kasalliklari;

Gipoplaziya – tish to‘qimalarining rivojlanmasligi bilan xarakterlanadigan nokariyesli nuqson;

Flyuoroz – organizmga me’yordan ortiq ftor elementining kirishi oqibatida yuzaga keladigan nokariyesli nuqson;

Patologik yedirilish – tish to‘qimalari yedirilishining tez kechishi;

Ponasimon nuqson – tishning vestibulyar yuzasining bo‘yin qismida «V» shaklida nuqson paydo bo‘lishi bilan kechadigan nokariyesli nuqson;

Tishning chiqishi – tishning alveola katagida bo‘shashib qolishi;

Tishning sinishi – tish butunligining buzilishi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Kariyes deb nimaga aytildi?
2. Nokariyesli nuqsonlar deganda nimani tushunasiz?
3. Gipoplaziya qanday klinik ko‘rinishga ega?
4. Flyuorozni kelib chiqish sababini bilasizmi?
5. Patologik yedirilishda bemor nimadan shikoyat qiladi?
6. Ponasimon nuqson qanday shaklga ega bo‘ladi?
7. Kariyesni kelib chiqishida qanday faktorlar o‘rin tutadi?
8. Tish chiqishining qanday turlari kuzatiladi?
9. Tish sinishi qanday davolanadi?
10. Kariyes nechta bosqichda kechadi?
11. Dog‘ shaklidagi kariyes qanday davolanadi?
12. Yuza kariyes qanday klinik ko‘rinishga ega?
13. O‘rta kariyesda bemor nimadan shikoyat qiladi?
14. Chuqr kariyes qanday klinik ko‘rinishga ega?
15. Kariyeslar qanday davolanadi?
16. Kariyesni profilaktika qilish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish kerak?

VII BOB PULPITLAR

Pulpit-pulpa to‘qimasining yallig‘lanishi. Pulpaning yallig‘lanishi unga ta’sir etgan taassurotlar oqibatida kelib chiqadi. Bu ta’sirlarning asosini kariyes bo‘shlig‘idagi mikroorganizmlar, ularning toksinlari, dentinning organik yemirilishi oqibatida hosil bo‘lgan taassurotlar, kimyoviy va termik ta’siri ostida kelib chiqadi. Pulpitni keltirib chiqaruvchi sabablarga quyidagilar kiradi:

- Ko‘pincha karyies kovagidagi infeksiyalar dentin kanallari orqa-li pulpa bo‘shlig‘iga kiradi va natijada yallig‘lanish hosil bo‘ladi.
- Pulpaning gemitogen yallig‘lanishi ham kuzatilgan. Masalan gripp, osteomiyelit va boshqa kasalliliklarda.
- Jarohat tishning ma’lum qismi sinishi oqibatida tish bo‘shlig‘i-ning ochilib qolishi, kariyes kovagiga ishlov berish va shakllantirish jarayonida tish bo‘shlig‘ining ochilib qolishi, tishga sun’iy qoplamlardan metallokeramika qoplamasini qo‘yish uchun charxlanganda pulpa kamerasining ochilib qolishi.
- Parodontda jarrohlik davo muolajalarini o‘tkazayotganda.
- Kimyoviy moddalar ta’siri ostida (ayrim plomba ashyolari).
- Harorat ta’siri ostida (kariyes kovagiga ishlov berish va sun’iy qoplama qo‘yish maqsadida tish to‘qimalari charxlanganda).

Pulpitlar tasnifi:

I. O‘tkir pulpitlar.

- a) qisman,
- b) umumiy.

II. Surunkali pulpitlar.

- a) fibroz,
- b) gangrenoz,
- d) gipertrofik.

III. Surunkali pivot huruji.

Pulpitlarning har bir turi o‘ziga xos klinik belgilarga ega. Tashxis subyektiv va obyektiv belgilarga asoslanib aniqlanadi.

O'TKIR PULPITLAR

O'tkir o'choqli pulpit. O'tkir o'choqli pulpitda bemor qisqa muddatli, xurujsimon termik ta'sir tufayli zo'rayadigan og'riqdan shikoyat qiladi. Og'riqlar orasidagi oraliq davomli. Tunda og'riqlar zo'rayadi. Og'riqlar mexanik, ximik va termik ta'sirdan zo'rayadi. Tashqi ko'rik o'zgarishsiz. Bemor og'rigan tishni aniq ko'rsatadi. Og'iz bo'shlig'iida ko'rik o'tkazilganda chuqur kariyes kovagi borligi, zondlaganda pulpa bo'shlig'i yopiq va kovak tubi og'riqliligi aniqlanadi. Sovuq va issiq ta'sirdan hosil bo'lgan og'riq to'xtamaydi va og'riqlar 10–20 daqiqa davom etadi. Pulpitning elektr sezuvchanligi pasaygan bo'ladi.

O'tkir umumiy pulpit. O'tkir umumiy pulpitda bemor o'z-o'zidan hosil bo'luvchi davomli, xurujsimon og'riqdan shikoyat qiladi. Og'riqlar orasidagi oraliq qisqargan. Og'riqlar uchlamchi nerv shoxlari bo'ylab uzatiladi va natijada bemor bezovta qilayotgan tishni aniq ko'rsatib bera olmaydi. Zondlanganda pulpa bo'shlig'i yopiq. Termometriya iliqtadan og'riqli bo'lib sovuq ta'sirdan og'riqlarning susayishi kuzatiladi. Pulpaning elektr sezuvchanligi tishning hamma do'mboqlarida pasaygan bo'ladi. Perkussiya ayrim hollarda og'riqli. Tunda og'riqlar zo'rayadi.

SURUNKALI PULPITLAR

Surunkali fibroz pulpit. Kasallik anamnezi aniqlanganda bezovta qilayotgan tish, avval o'tkir pulpitga xos bo'lgan og'riqlar bilan bezovta qilganligi ma'lum bo'ladi. Surunkali fibroz pulpitda og'riqlar mexanik va termik ta'sirlardan hosil bo'ladi. Zondlanganda chuqur kariyes kovagi borligi, kariyes kovagi tish bo'shlig'i bilan tutashmaganligi va aniq zondlanganda bir nuqtada og'riqli bo'lib, qonaydi. Termometriya sovuq ta'sirdan og'riqli bo'lib hosil bo'lgan og'riq, avval sust bo'lib borgan sari zo'rayib boradi. EOD o'tkazilganda pulpaning sezuvchanligi 20–40 mA ga teng. Rentgenologik tekshirish ildiz uchida suyak to'qimasining so'rilishi kuzatiladi.


Surunkali gangrenoz pulpit. Surunkali gangrenoz pulpit o'tkir pulpit va uzoq davom etgan surunkali fibroz pulpit oqibatida kelib chiqadi. Bemor termik ta'sirdan ya'ni issiqliqdan hosil bo'lgan og'riqdan shikoyat qiladi. Og'izdan noxush hid keladi. Zondlanganda kariyes bo'shlig'i tish bo'shlig'i bilan tutashgan va ayrim hollarda tutashmagan ham bo'lishi mumkin. Tish bo'shlig'i zondlanganda og'riq turli chuqurlikda hosil bo'ladi, bu esa gangrenoz jarayonining qay darajada tarqalganligiga bog'liq. Zondlanganda og'riqning yo'qligi pulpaning nobud bo'lganligi belgisidir. Pulpaning elektr sezuvchanligi pasaygan va u 40–90 mA ga teng. Rentgenogrammada ildiz uchi to'qimalarida so'riliш kuzatiladi.

Surunkali gipertrofik pulpit. Surunkali fibroz pulpit oqibatida kelib chiqadi. Ba'zida qisqa muddatli og'riq mexanik ta'sirdan va ayrim holatlarda issiq ovqatdan paydo bo'lishi mumkin. Bemorlar mexanik ta'sir natijasida tishidan o'sgan to'qimaning qonashidan shikoyat qiladilar. Tishning toj qismi biroz yemirilgan, kariyes kovagidan o'sib chiqqan granulyatsiyali o'sma ko'rinish turadi va zondlanganda qonaydi. Agar zondni chuqurroq kirgizsak og'riqli reaksiya hosil bo'ladi.

Surunkali pulpit huruji. Bemor o'z-o'zidan hosil bo'lувchi huruj-simon og'riqdan shikoyat qiladi. Og'riqlar kuchli bo'lib uchlamchi nerv shoxlari bo'ylab irradiatsiya qilinadi. Ayrim hollarda og'riqlar simillovchi bo'lib tishlaganda zo'rayadi. Kasallik tarixi aniqlanganda tish, avval pulpitlarning biror bir turi bilan og'iganligi ma'lum bo'la-di. Zondlanganda tish bo'shlig'i ochiq, og'riqli. Pulpaning elektr sezuvchanligi pasaygan. Rentgenogrammada tishning ildiz uchida periodontal yoriqning kengayganini va suyak to'qimasining so'riliш kuzatiladi.

PULPITLARNI DAVOLASH


Pulpitlarni davolash. Pulpit kasalligini davolashdan asosiy maqsad tishning anatomik va funksional holatini tiklash. Pulpitlarni davolashning barcha usullarini quydagи ko'rinishda tizimlashtirish mumkin.



Biologik usulda davolash. Davolashning bu usuli tish pulpasining to‘liq saqlanishini va hayotiy faolligini davom ettirishni ta’minlaydi.

Davolash texnikasi klinik belgilarga qarab o‘ziga xos bo‘lishi mumkin. Tish kariyes kovagi charxlanayotgan paytda qo‘qqisdan pulpa bo‘shlig‘i ochilib qolgan (travmatik pulpit) taqdirda, kariyes kovagiga so‘lak tushirmaslikka harakat qilish zarur. Tezlik bilan kovakni biror iliq antiseptik bilan yuvib, quritib jarohatlangan sohaga tarkibida gid-rooksi kalsisi bo‘lgan pastadan qo‘yiladi. Kariyes kovagi suvli dentin bilan vaqtinchalik berkitiladi. Jarohatlangan tish 5–7 kun mobaynida bolani bezovta qilmasa, ikkinchi qatnovda vaqtinchalik plombani doimiy plomba bilan (18-rasm) almashtiriladi (chuqur karies davosiga qaralsin).

O‘tkir pulpitda birinchi murojaat paytda tish kariyes kovagi birmuncha kengaytirilib ochiladi. Kovak tub sathidagi yumshoq dentin 3–4%li dikainning suvdagi eritmasi bilan yoki anestezin kristallari yordamida 2–3 minut mobaynida og‘riqsizlantiriladi. Shundan keyin kariyes kovagi



18-rasm. Pulpitlarni biologik usulda davolash:
1 – pulpa; 2 – davolovchi taglik; 3 – dentin; 4 – ajratuvchi taglik; 5 – plomba.

tub sathi va devorlaridan jarohatlangan dentin to‘qimasi qavatma qavat ko‘chiriladi. Tish koronka bo‘shlig‘i kichik sharsimon bor yordamida ehtiyyotkorlik bilan ochiladi. Bu hol umumiy o‘tkir diffuz pulpitta yalig‘langan pulpa kovagida yig‘ilgan ekssudatning oqib chiqishini va bir qadar pulpa to‘qimasida (qo‘yilgan davolovchi plomba ta’sirida) tiklanish jarayonlarini ta’minlaydi. Qisman (chegaralangan) o‘tkir pulpitta koronka bo‘shlig‘ini ataylab ochish shart emas. Yallig‘lanish natijasida hosil bo‘lgan pulpa bo‘shlig‘idagi ekssudat shakllanmagan bo‘lib, anchagina keng ildiz kanallari orqali sizib oqib, pastga tushishi mumkin. Yupqa dentin qavati dentin yo‘llari orqali kovakka qo‘yilgan dori diffuz yo‘li bilan yallig‘langan pulpaga bermalol o‘tib, ta’sir ko‘rsatadi.

Vital amputatsiya usuli. Bu usul pulpaning faqat toj qismini olib tashlash va ildiz qismidagi pulpani saqlab qolishga asoslangan. Ushbu usulda davolash uchun ko‘rsatmalar:

1. Shakllanmagan ildizli sut va doimiy tishlarda (asosan oldingi guruuh) kechadigan surunkali fibroz pulpitta;
2. O‘tkir mexanik jarohat natijasida koronka qismi sinib, pulpa ochilib qolgan hollarda (jarohatdan keyin 48 soat mobaynida).

Davolash quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Og‘riqsizlantirish;
2. Borlarni tez-tez almashtirib, kariyes kovagidagi nekrozga uchragan to‘qimalarni qatlamma-qatlam olib tashlash;
3. Kariyes kovagini antiseptik eritmalar bilan yuvib quritish;
4. Sterillangan bor yordamida pulpa bo‘shlig‘ini ochish va toj qismidagi pulpani amputatsiya qilish;
5. Qonni to‘xtatish;

6. Pulpa bo‘shlig‘ining tub qatlamiga tarkibida gidrooksi kalsiysi bo‘lgan pasta qo‘yib steril paxta ustidan 5–7 kunga suvli dentin bilan berkitish;

7. 5–7 kun ichida bezovta qilmasa, doimiy plombaga almashtirish.

Vital eksternatsiya usuli. Vital eksternatsiya usuli bilan davolanganда bemor bir marta keladi va pulpani nekroz qiluvchi vositalardan foydalanmaydi. Vital eksternatsiya usuli quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Og‘riqsizlantirish. Buning uchun o‘tkazuvchi va infiltratsiya usullaridan foydalananiladi;

2. Kariyes kovagini charxlash, tish bo'shlig'ini ochish;
3. Toj qismidagi va ildiz qismidagi pulpani olib tashlash;
4. Ildiz kanaliga mexanik va dorili ishlov berish;
5. Ildiz kanalini plombalash;
6. Doimiy plomba qo'yish.

Hozirda pulpitolarni davolashda vital eksternatsiya usulidan keng foydalilaniladi.

Divilal eksternatsiya usuli. Divilal eksternatsiya usulida davolash uchun bemor ikki marta keladi va pulpani nekroz qiluvchi vositalardan foydalilaniladi. Ko'rsatma: o'tkir umumiy pulpit, surunkali pulpitolar, surunkali pulpit huruji. Qarshi ko'rsatmalar: ildizi shakllanmagan tishlar, ildizi so'rilgan sut tishlar, ildiz kanali yomon o'tuvchi premolyar va molyar tishlar.

Pulpani to'liq olib tashlash nekroz qiluvchi pastalar (mishyakli pasta) qo'yilganidan so'ng amalga oshiriladi. Divilal eksternatsiya usuli quyidagi bosqichlardan iborat:

Birinchi qatnov

1. Og'riqsizlantirish;
2. Kichik o'lchamli sharsimon yoki teskari konus shaklli bor yordamida tish bo'shlig'ini bir nuqtada ochish;
3. Tish bo'shlig'ining ochilgan, qonayotgan nuqtasiga mishyak pastasi, og'riqsizlantiruvchi suyuqlikka xo'llangan paxta tamponi bilan qo'yish. So'ng suvli dentin bilan berkitish. Nekroz qiluvchi pasta bir ildizli tishlarda 24 soatga, ko'pildizli tishlarda 48 soatga qoldiriladi. Surunkali gipertrofik pulpitda nekroz qiluvchi pastani 1,5–2 marta oshirish lozim bo'ladi.

Ikkinchchi qatnov

1. Vaqtinchalik plombani olib tashlash;
2. Kariyes kovagini charxlash tish bo'shlig'ini ochish;
3. Nekroz bo'lgan pulpani olib tashlash;
4. Ildiz kanalida mexanik va dori-darmon bilan ishlov berish;
5. Ildiz kanalini plombalash;
6. Ildiz kanalini to'liq plombalanganligini rentgenogramma yordamida tekshirish;
7. Doimiy plomba qo'yib tishning anatomik shaklini tiklash.

Hozirgi vaqtda ushbu usul kam qo'llaniladi.

Divital amputatsiya usuli. Divital amputatsiya usuli o'tkir umumiy pulpit, surunkali pulpitlarni davolashda qo'llaniladi. Bu usul quyidagi bosqichlardan iborat.

1. Og'riqsizlantirish;
2. Kariyes kovagini charxlash, tish bo'shlig'ini ochish;
3. Toj qismidagi pulpani olib tashlash;
4. Ildiz qismidagi pulpani mumlash. Buning uchun rezorsinforma-lin eritmasini ildiz kanallariga yuborish va plombalash.

Pulpitlarni davolashda vujudga kelishi mumkin bo'lgan asosratlar.

1. Biologik usul bilan davolashda ko'rsatmani to'g'ri aniqlamaslik;
2. Tashxisni noto'g'ri aniqlanishi;
3. Ildiz yoki bifurkatsiya sohasi perforatsiyasi;
4. Ildiz kanalida endodontik asbobning sinishi;
5. Ildiz kanali uchun plombani noto'g'ri tanlanishi;
6. Ildiz kanalini to'liq plombalanmasligi;
7. Ildiz kanalini plombalashda plomba ashvosini ildiz uchi teshigidan chiqarib yuborish;
8. Davolashning divitalizatsiya usuli qo'llanilganda vaqtinchalik plombani noto'g'ri qo'yilishi sababli tishda og'riq paydo bo'lishi;
9. Arsenat kislotosining ortiqcha miqdorda qo'yilganligi yoki ko'r-satilgan muddatdan uzoqroq vaqt mobaynida tish kovagida qolishi oqibatida periodontning yallig'lanishi.

Tayanch iboralar:

Pulpit – pulpa to'qimasining yallig'lanishi;

Vital amputatsiya usuli – pulpaning faqat toj qismini olib tashlash va ildiz qismidagi pulpani saqlab qolishga asoslangan davolash usuli;

Vital eksternatsiya usuli – bemorning birinchi qatnovida pulpani nekroz qiluvchi vositalardan foydalanilmasdan to'liqligicha olishga asoslangan davolash usuli;

Divital eksternatsiya usuli – pulpani nekroz qiluvchi vositalardan foydalanilgan holda, ikki qatnovda davolashga asoslangan usul;

Arsenat kislotsasi – nekroz qiluvchi vosita.

Ekssudat – suyuqlik.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Pulpit deb nimaga aytildi?
2. Pulpitning qanday turlari mavjud?
3. O'tkir pulpitolarda bemor nimalardan shikoyat qiladi?
4. Surunkali fibroz pulpit chuqur kariyesdan qanday farq qiladi?
5. Surunkali gipertrofik pulpit qanday klinik ko'rinishga ega?
6. Surunkali pulpitda tashxis qanday aniqlanadi?
7. Pulpitlarni davolashning qanday usullarini bilasiz?
8. Pulpitlarni davolashda qanday asoratlar vujudga kelishi mumkin?

VIII BOB PERIODONTITLAR

Periodont tish katagi devori bilan ildiz yuzasi oralig‘ida joylashgan biriktiruvchi to‘qima. Periodont jag‘ suyaklari bilan, tishning apikal teshigi orqali pulpa bilan, alveola katagi qirrasida milk va suyak usti pardasi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri to‘qnashadi. Periodont to‘qimasining yalig‘lanishini periodontit deylidi.

PERIODONTITLAR TASNIFI

Periodontitlarni kelib chiqishiga ko‘ra infeksiyali, jarohatli va kimyoviy turlarga bo‘linadi.

Infeksiyali periodontitni kelib chiqishida streptokokk mikroblari asosiy o‘rin tutadi. Mikroblar va chirigan pulpa toksinlari ildiz kanali yoki milk cho‘ntagi orqali periodontal yoriqqa kelib tushadi. Kamdan-kam hollarda infeksiya qon va limfa orqali kirib kelishi mumkin (gripp, tif va boshqalar).

Shikastlanish jarayonida hosil bo‘lgan periodontit tishga bir zumli shikast (zarb) va bir necha bor ta’sir etuvchi mikro shikastlar (prikusni ko‘taruvchi plomba, qoplama), zararli odatlar (qalamni tish qatorida ushslash, tishlarda mix ushslash) kabi ta’sirlar natijasida paydo bo‘ladi.

Kimyoviy ta’sirdan kelib chiquvchi periodontit arsenat pasta, formalin, fenollar ta’sirida kelib chiqadi. Kasallikning klinik kechishiga ko‘ra o‘tkir va surunkali periodontitlar bir biridan farqlanadi.

Yallig‘lanishning joylashishiga ko‘ra ildiz uchi – apikal va ildiz chetlarga bo‘linadi.

O‘tkir periodontitlar ekssudatiga ko‘ra o‘tkir seroz va o‘tkir yiring-liliga bo‘linadi. Surunkali ildiz uchi periodontitlari periodont to‘qimasini zararlanish xarakteri va darajasiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

1. Surunkali fibroz;

2. Surunkali granulatsiyalovchi periodontit;

3. Surunkali granulematoz periodontit.

Surunkali periodontitlar noxush tashqi muhit ta'sirida o'tkirlashishi kuzatiladi. Shunga asoslangan holda surunkali periodontit huruji ham farqlanadi.

O'TKIR PERIODONTITLAR

O'tkir ildiz uchi periodontit. Bemor keskin, doimiy chegaralangan og'riqdan shikoyat qiladi. Og'riqlarning kuchi qizarish darajasiga, shishning hajmiga va ekssudatga bog'liq. Kasallikning boshlanishida og'riqlar sust, simillovchi bo'lib, sababchi tish atrofida bo'ladi. So'ng og'riqlar kuchli, irradiatsiyalovchiga aylanadi. Ko'pchilik avtorlarning fikriga ko'ra bunday og'riq ekssudatning yiringli formasiga o'tganligidan dalolat beradi. Ildiz uchidagi o'tkir zaharlanish 2–3 kundan ikki haftagacha davom etadi. O'tkir periodontitni shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich. Pulpitni o'z vaqtida yoki xato davolash oqibatida kelib chiqadi. Bu bosqich uchun davomli, simillovchi og'riqlar xarakterli. Ayrim hollarda sababchi tishni tishlab bosilganda ham og'riqlar paydo bo'ladi. Sababchi tish atrofidagi milkning holati o'zgarmaydi. Vertikal perkussiyada periodontning sezuvchanligi aniqlanadi.

Ikkinci bosqich. Bu bosqichda ekssudatlanish jarayoni ortib boradi. Og'riqlar doimiy bo'lib sekin-asta kuchayib boradi. Kasallangan tishni tishlab bosilganda og'riqlar zo'rayadi, hatto tilning tegib ketishi ham og'riqlarni kuchaytiradi. Perkussiya keskin og'riqli bo'ladi. Tish qimirlab qoladi va xuddi o'sib qolganga o'xshaydi. Tish atrofidagi milk qizaradi, shishadi, palpatsiyada tishning ildiz uchi sohasi og'riqli bo'ladi. Pulpa nekrozga uchragani uchun tish termik ta'sirlardan, elektr taassurotlardan ta'sirlanmaydi.


Ayrim hollarda jag' atrofi to'qimalarida shish kuzatiladi. Infiltrat yoki absess hisobiga o'tuv burma yassilashadi. Bu holda perkussiya kuchsiz og'riqli bo'lib palpatsiya keskin og'riqga aylanadi. Palpatsiyada flyuktuatsiya aniqlanishi mumkin. Yiringli ekssudatning yorib chiqishi natijasida milk va yuz shishlari kichrayadi, og'riqlar esa susayadi.

SURUNKALI PERIODONTITLAR


Surunkali periodontitlarning klinik belgilari o'tkir periodontitlarga nisbatan birmuncha oz ifodalangan. Shuning uchun solishtirma tashhisni rentgenogrammasiz o'tkazish o'ta mushkul.

Surunkali fibroz periodontit. Surunkali fibroz periodontit klinik belgilarsiz kechadi. Bemor og'riqlarni sezmaydi. Faqatgina kariyes kovagi borligiga, unga ovqat qoldiqlari kirib qolishi va og'izdan noxush hid kelishidan shikoyat qiladi. Surunkali fibroz periodontit, avval, davolangan pulput, travmatik artikulyatsiya oqibatida kelib chiqishi mumkin. Tish qimirlamaydi, perkussiya, palpatsiya og'riqsiz, tish atrofidagi milk o'zgarishsiz. Zondlanganda tish bo'shlig'i ochiq, og'riqsiz bo'ladi. Surunkali fibroz periodontitga tashxis rentgenogramma asosida o'tkaziladi. Rentgenogrammada ildiz uchidagi periodontal yoriqning deformatsiyasi, kengayganligi aniqlanadi (19-rasm). Suyak to'qimasining rezorbsiyasi kuzatilmaydi.

Surunkali granulatsiyalovchi periodontit. Periodontitning bu turida bemor sababchi tish atrofida yoqimsiz sezgi, qichishish, tishga bosganda kuchsiz og'riqni sezishi mumkin. Og'riqli sezgilar doimiy emas. Kasal tish atrofidagi milk qizarib, shishadi va yiringli ekssudatli oqma hosil bo'lib granulyatsiyalar paydo bo'ladi. Tishning




19-rasm. Surunkali fibroz periodontit.




20-rasm. Surunkali granulatsiyalovchi periodontit.

toj qismi rangi o‘zgargan, tukillatib ko‘rilganda og‘riqsiz yoki kuchsiz og‘riqli bo‘ladi. Zondlanganda tish bo‘s hilig‘i ochiq, og‘riqli. Tish atrofi to‘qimalar palpatsiyasi og‘riqli. Iyak osti va jag‘ osti limfa tugunlarini shishishi ham kuzatilishi mumkin. Qolgan surunkali periodontitlarga nisbatan granulatsiyalanuvchi periodontitning o‘tkirlashuvi sodir bo‘lib turadi. Rentgenogrammada ildiz uchida suyak to‘qimasining notekis so‘rilishi kuzatiladi (20-rasm).

Surunkali granulematoz periodontit. Surunkali granulematoz periodontitda ko‘pincha og‘riqlar bo‘lmaydi, lekin o‘qtin-o‘qtin yallig‘-lanish jarayonining o‘tkirlashuvi sodir bo‘lib turadi. Tish atrofidagi shilliq parda o‘zgarishsiz, ayrim hollarda ozgina qizargan bo‘ladi. Tish qimirlamaydi, perkussiya, palpatsiya, zondlash og‘riqsiz bo‘ladi. Tashxis rentgenogramma asosida aniqlanadi. Rentgenogrammada ildiz uchida suyak to‘qimasining 0,5 mm dan kichik, tekis, aniq chegaralangan so‘rilishi kuzatiladi. Agar ildiz uchidagi granulemaning hajmi 0,5 mm 0,8 mm gacha bo‘lsa kistadan dalolat beradi. (21, 22-rasmlar).



21-rasm. Surunkali
granulematoz periodontit.



22-rasm. Ildiz uchi kistasi.

Surunkali periodontitning huruji. Kasallikning klinik ko‘rinishi o‘tkir periodontitga o‘xshab ketadi. Bunda bemorda doimiy og‘riq, yumshoq to‘qimalar shishishi, limfa tugunlarining kattalashishi, tishning biroz qimirlab qolishi, tish atrofidagi o‘tuv burma paypaslab ko‘rilganda og‘riqliligi kuzatiladi. Bemor holsizlanib boshi og‘riydi, uyqusi yo‘qoladi, tana harorati ko‘tariladi. Rentgenogrammada surunkali periodontitning biror turi aniqlanadi.

PERIODONTITLARNI DAVOLASH

O‘tkir periodontitlarni davolash

O‘tkir periodontitni davolash usuli nafaqat kasallikning klinik kechishiga balki kasallikni keltirib chiqargan sababga ham bog‘liq.

O‘tkir periodontit kimyoviy ta’sir oqibatida kelib chiqqan bo‘lsa, koronka va ildiz qismidagi pulpani olib tashlash lozim. O‘tkir periodontit ildiz kanaliga kislota, ishqor, kuchli antiseptiklarni kiritish oqibatida kelib chiqqan bo‘lsa, ildiz kanalida teskari ta’sir etuvchi moddalar bilan ishlov berish kerak bo‘ladi. Ildiz kanaliga 3% perikis vodorod, 1:5000 li furatsillin eritmasi, fermentlar (trepsin, ximotrepsinlar) bilan ishlov beriladi. Ildiz kanalida 1–2 kunga evgenol, qalampir moyi bilan turunda vaqtinchalik plomba ostida qoldiriladi. Agar 2 kun ichida tish bezovta qilmasa, perkussiya og‘riqsiz bo‘lsa, ildiz kanali ildiz uchigacha plombalanadi va doimiy plomba qo‘yiladi. Agar tish 2 kun ichida og‘risa vaqtinchalik plomba olib tashlanadi va ildiz kanallariga qaytadan ishlov berilib muolaja takrorlanadi. Bunday hollarda periodont yallig‘lanishini samarali davolash uchun fizioterapiya usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘tkir periodontitda yallig‘lanish reaksiyasi va ekssudatning ortishi natijasida tish atrofidagi shilliq parda qizaradi, shishadi. Bunday hollarda turbinali bor mashina yordamida tish bo‘shlig‘i ochiladi va ekssudatning oqishini ta’minlash maqsadida tishni ochiq holda goldirish kerak bo‘ladi. Bemor og‘zini gipertonik eritmalarda chayishi va ovqatlanishdan avval tish bo‘shlig‘ini paxtali tampon bilan berki-tishi kerak bo‘ladi. Bemorning ikkinchi marta kelishida ildiz kanal-

lariga mexanik va ximik ishlov berilib, antiseptik vosita bilan vaqtinchalik plomba qo'yiladi. Bemorning uchinchi marta kelishida vaqtinchalik plomba olinib, ildiz kanallari plombalanadi va doimiy plomba qo'yiladi.

Shikastlanish ta'sirida kelib chiqqan o'tkir periodontitni davolash ta'sir etuvchi shikastni aniqlash va uni bartaraf etishdan boshlanadi. Qolgan davo simptomatik.

Surunkali periodontitlarni davolash

Surunkali periodontitni davolash og'riqsiz kechadi. Surunkali periodontitlarni muvaffaqiyatli davolash uchun ildiz kanallari o'tuvchan bo'lishi kerak. Surunkali fibroz periodontitda ildiz kanali apikal teshikkacha, surunkali granulyatsiyalovchi va granulematoz periodontitda ildiz apikal teshigidan oshirib plombalanadi.

Bemorning birinchi kelishida kariyes kovagiga ishlov, shakl berilib, pulpa bo'shlig'i kengaytirilib, pulpekstraktor yordamida chirigan, parchalangan pulpa to'qimasini ohistalik bilan bosqichma-bosqich chiqariladi. Tozalangan ildiz kanali antiseptik modda eritmasi 2% xlorammin, 0,1% xlorgeksin bilan yuviladi, quritiladi. Ildiz kanalida antiseptik modda yoki fermentli turunda vaqtinchalik germetik plomba ostiga qo'yiladi.

Bemorning ikkinchi kelishida vaqtinchalik plomba, turunda olib tashlanadi. Ildiz kanaliga ximik ishlov berilib quritilgandan so'ng plombalanadi.

Periodontitni davolash jarayonidagi asoratlar

Asoratlar davolash jarayonida va davolangandan so'ng ham kelib chiqishi mumkin. Ildiz kanaliga ximik ishlov berganda (formalin, fenol) periodontni ta'sirlash oqibatida og'riq paydo bo'ladi. Buni bartaraf etish uchun evginol yoki qalampir moyi qoldiriladi yoki kaliy yod bilan elektroforez qilinadi.

Tayanch iboralar:

Periodontit – periodont to'qimasining yalig'lanishini;

Apikal periodontit – yallig‘lanish ildiz uchi qismida joylashsa;

Marginal periodontit – yallig‘lanish ildiz milkka yaqin qismida joylashsa;

Deformatsiya – shaklning o‘zgarishi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Periodontit deb nimaga aytildi?
2. Periodontitlar kelib chiqish sabablariga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
3. Yallig‘lanishning joylashishiga ko‘ra qanday farqlanadi?
4. Surunkali periodontitlar nechta turga bo‘linadi?
5. O‘tkir periodontitlarda bemor nimadan shikoyat qiladi?
6. Surunkali periodontitlarga tashxis qanday o‘rnataladi?
7. «O‘sib qolgan» tish simptomida nima sodir bo‘ladi?
8. Qay hollarda ildiz uchi kistasi tashxisi o‘rnataladi?
9. O‘tkir periodontitlar qanday davolanadi?
10. Surunkali periodontitlarni davolash uchun qanday reja tuziladi?
11. Periodontitni davolash jarayonidagi asoratlarni qanday davolanadi?

IX BOB **PARODONT KASALLIKLARI**

Parodont to‘qimasi to‘qimalar kompleksi bo‘lib, quyidagi to‘qimalardan tashkil topgan: milk, alveola o‘sig‘i, suyak usti pardasi, periodont to‘qimasi va ildiz sementi. Parodont to‘qimalari bir biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, anatomik, funksional va genetik jihatdan bir butundir. Parodont kasalliklari birmuncha ko‘p tarqalgan kasallik bo‘lib bolalarda va kattalarda ham uchraydi. Parodont kasalliklarini ko‘pgina stomatolog olimlar o‘rganishgan va o‘z fikrlarini tavsiya qilishgan. Parodont kasalliklarining 150 ga yaqin turi bor. Hozir baracha MDH davlatlarida stomatologlari davolaydigan parodont kasalliklari xiliga ko‘p jihatdan mos keladigan tasnif 1983-yilda Yerevan shahrida bo‘lib o‘tgan stomatologlar plenumida qabul qilingan.

Parodont xastaliklari tasnifi

I. Gingivit – milkning mahalliy va umumiy noxush ta’sirlar ostida tish-milk cho‘ntagining butunligi bilan kechuvchi yallig‘lanish jarayoni.

Shakkllari: kataral, gipertrofik, yarali.

Kechishi: o‘tkir, surunkali, qaytalovchi.

Ko‘لامи: chegaralangan, diffuz.

Klinik darajasi: yengil, o‘rta og‘irlilikda, og‘ir.

II. Parodontit – periodontal boylam va suyak to‘qimasining buzilishi bilan birgalikda namoyon bo‘luvchi parodont to‘qimasining yallig‘lanish jarayoni.

Kechishi: o‘tkir, surunkali, o‘tkirlashuvchi, qaytalanuvchi.

Klinik darajasi: yengil, o‘rtacha og‘irlilikda, og‘ir.

Ko‘لامи: chegaralangan, diffuz (keng tarqalgan).

III. Parodontoz – parodont to‘qimasining yallig‘lanishsiz distrofik jarohatlanishi.

Klinik darajasi: yengil, o‘rtacha og‘irlilikda, og‘ir.

Kechishi: surunkali, qaytalovchi.

Ko‘lami: tarqalgan (diffuz).

IV. Parodont to‘qimasining so‘rilishi bilan kechadigan idiopatik kasalliliklar

V. Parodontomalar – O‘smlar va o’smasimon kasalliliklar.

Yuqorida bayon qilingan parodont kasalliklarining turlanishi, ularning klinik kechishi va morfologik o‘zgarishlarini baholab, yallig‘lanish, distrofik va o‘sma jarayonlarini o‘zida to‘g‘ri aks ettiradi. Xastaliklarga bunday nuqtayi nazardan qarash uni to‘g‘ri tushunib, shunga yarasha aniq to‘g‘ri ta’sir qiluvchi davo chora-tadbirlarini tanlashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Xastalikni to‘g‘ri aniqlashda uning ko‘lamidan tashqari, keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarni, kasallikning klinik kechishini, darajasini hamda yallig‘lanish jarayonining klinik va morfologik belgilarini nazarda tutmoq lozim.


Ushbu ta’rif kasallikning klinik-morfologik jihatini asoslab beradi.

GINGIVITLAR

Gingivit milk sohasida noxush mahalliy va umumiy faktorlar ta’sida vujudga keladi. Tishning aylana boylamlari buzilmagan holda kechadi.

Kataral gingivit milk cheti shilliq pardaning qizarishi bilan xarakterlanadi. Ayrim hollarda milk so‘rg‘ichclarining shishishi kuzatiladi. Kataral gingivit chegaralangan va diffuz bo‘lishi mumkin. Bemor tishini tozalaganda, milki qonaydi. Ko‘rik vaqtida milk cheti qizargani, shishgani kuzatiladi, qonaydi, milk usti karashlari aniqlanadi, patologik cho‘ntak kuzatilmaydi.

Giperetrofik gingivit milk so‘rg‘ichclarining o‘sishi bilan xarakterlanadi. Kasallik ko‘proq o‘smirlarda va homilador ayollarda kuzatiladi. Giperetrofik gingivitning ikki xil formasi: granulyatsiyalanuvchi va fibroz shakli uchraydi. Bemor tishini tozalayotganda qonashidan, og‘zidan noxush hid kelishidan va milkida yoqimsiz sezgilar sezishi dan shikoyat qiladi. Ko‘rik o‘tkazilganda milkning shishgani, qizargani, tekkanda qonashini, soxta klinik cho‘ntak, tish yuzasida qattiq tish karashlari borligini ko‘rish mumkin. Kasallik tana haroratining



23-rasm. Gipertrofik gingivit.

38°C–39°C ga ko‘tarilishi, holsizlik, bosh og‘rishi bilan boshlanadi. Bemor milki shishadi, og‘riydi, qonaydi, noxush hid keladi (23-rasm). Limfa bezlari kattalashadi, palpatsiyada og‘riydi. Milk cheti shilliq pardasi nekrozi kuzatiladi. Nekrotik jarayon lunj va bodomcha bezlarda ham tarqalishi mumkin.

PARODONTITLAR

Parodontit periodontal boylam va suyak to‘qimasining buzilishi bilan birgalikda namoyon bo‘luvchi parodont to‘qimasining yallig‘lanish jarayoni.

Parodont to‘qimalarining bunday yalpi yallig‘lanishi anchagina og‘ir kechuvchi xastalik bo‘lib, tishlarning tushib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Parodontit kasalligi uchun quyidagi 5 ta klinik belgi xosdir:

1. Milklar yallig‘lanishi.
2. Tish-milk epitelial pardasi jarohatlanib, uning butunligi buzilishi oqibatida klinik yoki parodontal cho‘ntaklar hosil bo‘lishi.
3. Milk usti va milk ostida tish toshlari hosil bo‘lishi.

4. Tishlar orasida joylashgan suyak o'sig'ining balandligi, tuzilishi, chegaralarining o'zgarishi bilan sodir bo'ladi gan suyak to'qimasining destruksiyasi (osteoporoz, suyak to'qimasining so'riliши).

5. Kasallik rivojlanishi oqibatida tishlarning liqillab qolishi yoki tushib ketish hollari.

Parodontit xastaligini keltirib chiqaruvchi sabablarning mahalliy yoki umumiyligiga qarab, u chegaralangan hamda diffuz bo'lishi mumkin. Kasallikning klinik kechishi surunkali, o'tkirlashib qaytalan-gan bo'lib, uning yengil, o'rtacha og'irlikda yoki og'ir xillari bo'ladi.

Parodontit kasalligi bilan og'rigan bemorlar milk qonashidan, og'izda noxush hid paydo bo'lganligidan, tez-tez tish toshlarining hosil bo'lib turishidan, milklarning shishinqirab qizarganligidan shikoyat qilishadi. Shifokor og'iz bo'shlig'ini, tish atrofi to'qimalarini nazardan kechirganda parodontal cho'ntaklar hosil bo'lganligi, ularda yiringli suyuqlik yig'ilganligining guvohi bo'ladi. Yiringli cho'ntak ekssudati tekshirilganda, uning tarkibida kokklar, ipsimon tayoqchalar, spiroxetalar, zamburug'simonlar oilasiga kiruvchi mikroorganizmlar borligi aniqlanadi.

Tishlar yizasida hosil bo'lgan milk osti va milk osti toshlari parodont to'qimasiga faqatgina bosim ta'sirini ko'rsatmasdan, ular tarkibidagi mikroorganizmlar ishlab chiqargan fermentlar to'qimadagi yallig'lanish jarayonini chuqurlashtiradi.

Suyak to'qimasida strukturalar yemirilishi ularning yangidan hosil bo'lish jarayonidan ustun bo'ladi. Alveolyar suyak to'qimasidagi o'zgarishlarning chuqurligi xastalikning qay darajadaligiga bog'liqdir. Jarayonning boshlang'ich davrida alveolyar suyak to'sig'ining cho'qqi sohasida osteoporoz o'zgarishlar, keyinchalik suyak strukturasining tiniqligi buzilib, kortikal plastinka yemirilishi, g'ovak suyak to'qimasida esa osteoporoz – siyraklashish kuzatiladi.

Xastalikning keyingi davrida tish yon tomonlaridagi kortikal suyak plastinkalar yemiriladi, kurak tishlar atrofidagi g'ovak suyak cho'qqilari pasayadi, molyar va premolyar tishlar atrof suyagida note-kis yemirilish vujudga kelishi oqibatida o'yiq chuqurchalar yuzaga keladi. Bu vaqtga kelib cho'qqi suyagining chegarasi emal sement chegarasidan ancha pastda joylashganligi rentgen tasvirida aniqlanadi.

Sog'лом тishlar atrofida suyak cho'qqisi emal – sement chegarasida yotadi. Suyak to'qimasining yemirilishi vertikal va gorizontal yo'nalishda kuzatiladi.

Alveolyar suyak to'qimasining 3 xil darajadasi yemirilishi mavjud.


I darajali yemirilishni – alveolalar orasidagi suyak to'sig'i balandligining tish ildizining 1/3 qismida yemirilishi.

II darajali yemirilish – alveolyar suyak to'sig'i tish ildizining 2/3 qismida yemirilishi.

III darajali yemirilish – alveolyar suyak to'sig'i tish ildizining 2/3 qismidan ko'prog'ining yemirilishi (24-rasm).

Xastalikni to'liq bartaraf etish uchun davo chora-tadbirlari barvaqt (kasallikning ilk boshlang'ich davrlaridayoq) boshlanmog'i lozim. Keyingi davrlarda o'tkazilgan shifo tadbirlari xastalikning kechishini to'xtatib, uning turg'unligini ta'minlaydi. Parodontit kasalligi diffuz tarzda yuz berganda albatta asosiy, umumiy xastalik aniqlanib, davolash ishlari to'liq olib borilgandagina ko'ngildagidek natijaga erishiladi.

O'tkir parodontit. O'tkir parodontit kamdan-kam hollarda kuzatiladi. Xastalik chegaralangan bo'lib ko'pincha bitta tish atrofida kuzatiladi. Mexanik ta'sirlanish, masalan sun'iy qoplama, plomba, olina-



24-rasm. Parodont to'qimalarining kasallik bosqichlaridagi ko'rinishi:

1 – tish karashi; 2 – tishning qattiq karashlari; 3 – milk epiteliysi;

4 – alveola o'sig'i.



25-rasm. Parodontit.

digan protez o'tkir parodontitni keltirib chiqaruvchi sabablardir. Bemor milkning ushbu sohasida doimiy pulschanuvchi og'riqdan, qichishishdan, qonashidan shikoyat qiladi.

Ko'rik o'tkazilganda milkning giperemiyasi, milk so'rg'ichining shishganligi, klinik cho'ntak borligi, zondlanganda qonashi va sababchi faktorlar aniqlanadi (25-rasm). Klinik cho'ntakning chuqurligi har xil bo'lishi mumkin.

Surunkali parodontit. Surunkali parodontitning yengil formasida bemor shikoyat qilmaydi, ayrim hollarda milk sohasida noxush sezgilar, qonashidan shikoyat qiladi. Ko'rik o'tkazilganda milkning giperemiyasi, shishganligi, milk so'rg'ichclarining kattalashganligi, 3–4 mm li parodontal cho'ntakning hosil bo'lganligi, milk usti va milk osti toshlari borligi aniqlanadi. Rentgenogrammada tishlararo to'siqcha suyak plastinkasida o'zgarish borligi kuzatiladi.

Parodontitning o'rtacha og'irlikda kechishida milk tishlarni tozalashda qonaydi, vaqtı-vaqtı bilan chaynash mobaynida og'riq paydo bo'ladi, ayrim tishlar qimirlaydi va siljiydi, og'izdan noxush hid keladi. Ko'rik o'tkazilganda milk cheti shilliq pardasi yallig'langanligi, shishgani, milk so'rg'ichclarining kattalashganligi, ayrim tishlarning bo'yin qismlari ochilib qolganligini ko'rish mumkin. Parodontal cho'ntakning chuqurligi 5 mm gacha bo'lib zondlanganda qonaydi.

Rentgenogrammada tishlararo to'siqcha milk plastinkasining tish ildizining 1/3 dan 1/2 gacha yemirilganligini kuzatish mumkin.

Parodontitning og'ir kechishida bemor ovqat luqmasini chaynash vaqtida og'riq va qonash paydo bo'lганligi uchun chaynashda qiynalayotganlididan, tishlarining qimirlashi, og'zidan noxush hid kelishidan shikoyat qiladi. Ko'rik o'tkazilganda milk shilliq pardasining giperremiyasi, shishganligi, chuqur parodontal cho'ntak borligi, tishlarni II-III darajali qimirlashi, tishlarning bo'yin va ildiz qismlarining ochilib qolganligi kuzatiladi. Milk cheti bosilganda yiringli ekssudat ajralib chiqadi. Rentgenogrammada – tishlararo to'siqcha suyak plastinkasining ildiz uzunligining 1/2 dan 2/3 gacha yemirilganligi kuzatiladi. Parodontitning ushbu formasida milk usti va milk osti toshlari ko'p bo'ladi.

Parodontitlarni davolash. Parodontitni davolash kasallikning qanday kechishiga, klinik va patologik cho'ntakning chuqurligiga bog'liq. Parodontitning yengil formasini davolash uchun bemorda 3–4 marta muolaja o'tkaziladi. Bemorning birinchi marotaba kelishida tishlar tish karashlaridan tozalanadi va tishlarni to'g'ri tozalash usullariga o'rnatiladi.

Bemorning keyingi kelishida og'iz bo'shlig'i gigiyenik holati tekshiriladi, antiseptik ishlov berilgandan so'ng tish karashlari, milk usti va milk osti toshlari tozalanadi. Muolajaning so'nggida milk shilliq pardasiga dori vositalari bilan ishlov beriladi.

Bemorning uchinchi bor kelishida ham og'iz bo'shlig'i gigiyenik holati tekshiriladi. Og'izga 1% li vodorod perikisi eritmasi bilan ishlov berilgandan so'ng granulyatsiyalangan to'qima qolgan tish toshlari tozalanadi. Antibiotiklar bilan ishlov beriladi, agar tishlar qimirlab qolgan bo'lsa, tishlarni taxtakachlash uchun ortoped stomatolog tavsiysi olinadi va lozim bo'lsa taxtakachlanadi.

Bemorga 4–6 oydan so'ng stomatolog ko'rígiga tashrif buyurish tavsiya etiladi.

Parodontitning og'ir kechishida davolash rejasi tuziladi: jarroh stomatolog tavsiyasiga ko'ra olinishi lozim bo'lган tishlar olinadi, milk usti, milk osti toshlari va granulyatsiyalangan to'qimalardan tozalanadi. Antiseptik ishlov berib, davolovchi malhamlar qo'yiladi. Yallig'-

lanish kamaygandan so'ng ortopedik davo qo'llaniladi. Har bir bemor og'iz bo'shlig'i gigiyenasi qoidalariga mukammal rioya qilishi kerak bo'ladi.

PARODONTOZ

Parodontoz – parodont to'qimasining yallig'lanishsiz distrofik xastaligi. Parodontozda parodontal cho'ntaklar hosil bo'lmaydi (26-rasm). Parodontoz sekin kechadi.

Yengil kechuvchi parodontozda bemor vaqtı-vaqtı bilan hosil bo'lувчи qichishish va noxush sezgilardan shikoyat qiladi. Shilliq parda och pushti rangda bo'lib tishning sementi ko'rinish qoladi.

O'rtacha og'irlikda kechuvchi parodontozda bemor termik, mexanik, ximik ta'sirlar natijasidan bir zumlik og'riq paydo bo'lishidan shikoyat qiladi. Milkning shilliq pardasi och pushti rangda, tishlarning bo'yin qismlari ochilib qolgan, tishlarning klinik koronkasi uzaygan, klinik cho'ntaklar yo'q bo'ladi.

Og'ir kechuvchi parodontozda bemor termik ta'sirlardan tez o'tib ketuvchi og'riqdan va ayrim hollarda giperesteziyadan shikoyat qiladi. Ko'rik vaqtida tish bo'ynining birmuncha qismi ochilib qolganligi aniqlanadi. Tishlar qimirlaydi.



26-rasm. Parodontoz.

Rentgenogrammada tishlararo plastinkaning bir tekis yemirilganligini ko‘rish mumkin, bu ko‘rinish parodontoz uchun xarakterli hisoblanadi.

Davolash. Parodontozni kompleks davolash lozim bo‘ladi. Buning uchun umumiy va mahalliy davolash kerak. Umumi davo bemor organizmida regeneratsiya va qon aylanishi yaxshilashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Mahalliy davo ta’sirlovchi faktorlarni bartaraf etish, tish toshlarini tozalash, shinalash, remineralizatsiya terapiyasini o’tkazishga qaratilgan bo‘ladi.

PARODONT TO‘QIMASINING NEOPLASTIK YALLIG‘LANISHI

Parodont to‘qimasining neoplastik yallig‘lanishi parodontoliz parodont to‘qimasida distrofik va yallig‘lanish jarayonlarini namoyon qiladigan va doimo diffuz tarzda kechadigan parodont xastaligidir. Parodont to‘qimasining og‘ir va juda tez sur’atlar bilan kechadigan bu kasalligi ko‘p hollarda organizmdagi tug‘ma sindromlarning yo‘ldoshi tarzida yuzaga keladi. Parodontoliz xastaligida milklarning u yoki bu xil yallig‘lanishi bilan bir qatorda, chuqur parodontal cho‘ntaklar, alveolar suyak o‘sig‘ining distrofik yemirilishi oldin sut tishlari sohasida, keyinchalik esa kasallikning uzluksiz davom etishi natijasida doimiy tishlar sohasida kuzatiladi. Xastalik shiddatli ravishda rivojlanib, tez orada tishlarning erta tushib ketishiga olib keladi. Klinik kechishining sur’ati barcha tishlarda bir xil bo‘lmasligi mumkin. Bu hol har xil guruh tishlar ildizini o‘rab turuvchi alveolyar suyak to‘qimasining anatomiq tuzilishi va yoshga qarab uning strukturasiuning o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari tishlarga o‘z faoliyati paytida tushadigan bosimning turliligi va mahalliy noxush ta’sir qiladigan sabablarning mavjudligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Parodontoliz kasalligi bolalarda qandli diabet, tug‘ma neytropeniya, immunologik tanqislik, Daun xastaligi, keratodermiya va sklerodermiya kabi kasalliklarda kuzatiladi.

Tayanch iboralar:

Gingivit – milkning mahalliy va umumiy noxush ta’sirlar ostida tish-milk cho’ntagining butunligi bilan kechuvchi yallig‘lanish jarayoni;

Parodontit – periodontal boylam, suyak to‘qimasi buzilishi va milkning yallig‘lanishi bilan kechuvchi kasallik;

Parodontoz – parodont to‘qimasining yallig‘lanishsiz distrofik jarohatlanishi;

Parodontomalar – o‘smlar va o’smasimon kasalliklar;

Parodontal cho’ntaklar – tish-milk epithelial pardasi jarohatlanib, uning butunligi buzilishi oqibatida chontakning hosil bo‘lishi;

Osteoporoz – suyak to‘qimasining siyraklashishi;

Shinalash – tishlarni ligature simlar yoki mahsus protezlar yordamida tutashtirish;

Remineralizatsiya terapiyasi – mineralallarga boyitish.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Parodont qanday tuzilishga ega?
2. Parodont kasalliklari qanday ta’riflanadi?
3. Gingivit deganda nimani tushunasiz?
4. Parodontit qanday tasniflanadi?
5. Parodontitga qanday klinik belgilar xos?
6. Parodontit qanday davo rejasiga ega?
7. Parodontozda bemor nimalardan shikoyat qiladi?
8. Tish qimirlashining nechta darajasi bor?
9. Parodont to‘qimasining neoplastik yallig‘lanishi qanday namoyon bo‘ladi?
10. Alveolar suyak to‘qimasining necha xil darajadagi yemirilishi farqlanadi?

X BOB

OG‘IZ BO‘SHLIG‘I SHILLIQ PARDASI

KASALLIKLARI

Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasi butun organizm va organlar holatini o‘zida aks ettiradi. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasi doimiy ravishda tashqi ta’sir etuvchi omillar ta’siri ostida bo‘ladi. Undagi o‘zgarishlar organizmda yurak – qon tomir tizimi kasalliklari, modda almashinuvi kasalliklari, teri tanosil kasalliklari, yuqumli va oshqozon ichak kasalliklarida sodir bo‘ladi. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasi kasalliklari tashhisini aniqlashda kasallik elementlarini to‘g‘ri aniqlay bilish, patologik o‘zgarishlarning joylashgan joyi muhim ahamiyatga ega. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati kasalliklarida quyidagi elementlar kuzatiladi.

Shilliq pardasi va terida yuzaga keladigan toshmalar alohida elementlardan iborat bo‘lib, birlamchi va ikkilamchi turlarga ajratiladi. Birlamchi elementlar jarroh elementlari, dog‘, eritma, rozeola, tuguncha, tugun, do‘mboqcha, pufakcha, pufak, mikroabssess, kista, qabariq kiradi.

Ikkilamchi jarohatlanish elementlari: eroziya, afta, yara, yorilish, chandiq, gipertrofik chandiq, atrofik chandiq, atrofiya, karash, o‘sma, o‘smali hosilalar, tangacha kiradi.

Hozirgi kunda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasi va lab kasalliklari da etiologik va patogenetik omillarga asoslanib, quyidagi tar dibagi tasnididan foydalanilmoqda:

1. Jarohat oqibatida kelib chiqqan shikastlanishlar. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasi va lablarning yuqori va past harorati, nurlanish, noqulay meteriologik omillar, kimyoviy moddalar va boshqa jarohatli taassurotlardan shikstlanish natijasida hosil bo‘lgan kasalliklari;
2. Yuqumli kasalliklarda shilliq pardasi shikastlanishi;
3. Allergik va toksik allergik kasalliklar;
4. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasining ekzogen intoksikatsiyalarda gi o‘zgarishi;

5. Sistem kasalliklarda o‘g‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasining o‘zgarishi;
6. Dermatozlarda o‘g‘iz bo‘shlig‘i shilliq parda kasalliklari;
7. Til anamaliyalari va tegishli kasalliklari;
8. Xeylitlar;
9. Rak oldi kasalliklari.

JAROHAT OQIBATIDA KELIB CHIQQAN KASALLIKLAR

Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasi doimiy ravishda tashqi muhit va mexanik, termik, fizik ta’sir etuvchi omillar bilan to‘qnashadi. Yuqorida qayd qilingan taassurotlar meyordan ortsa og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. O‘zgarish darajasi jarohatlovchi ta’sirning turiga, davomiyligiga va ta’sir etilgan maydon to‘qimasiga bog‘liq. Jarohatlovchi faktorlarga quyidagilar kiradi:

- mexanik,
- termik,
- nur,
- kimyoiy.

MEXANIK SHIKASTLANISH

Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasining mexanik shikastlanishida o‘tkir va surunkali jarohat kuzatiladi. Og‘iz shilliq qavatining o‘tkir mexanik shikastlanishi o‘tkir ashyodan yoki kamdan-kam holda tishlab olinishi oqibatida paydo bo‘ladi. Shilliq pardada qon uyumi-gematoma va eroziya bo‘ladi. To‘qima ichidagi qon uyumida kuchsiz og‘riq paydo bo‘lib, 1–3 kun vaqt o‘tgach og‘riq yo‘qolib, o‘rniga ko‘kish – qoramtilrangda gematoma hosil bo‘ladi.

Agar jarohat o‘rniga takroriy shikastlanish kuzatilmasa, eroziya tezda epitelizatsiyalanadi. Tashxislash qiyinchilik tug‘dirmaydi: bemor anamnezidayoq sababchi omil to‘g‘risida xulosa oydinlashadi. Davolash uchun eroziya va kichkina yaralarda shikastlovchi omilni bartaraf qilishga qaratiladi va 0,25–0,5 % vodorod perikisi, 2 % bor kislota bilan chayqab, «A» vitaminli malhamlar surtiladi.

Surunkali mexanik jarohat. Surunkali mexanik jarohat deyarli ko‘p uchraydi. Tishlarning o‘tkir uchlari, tish protezlar, tish karashlar va yomon odatlar (labni, lunjni tishlash) jarohatlovchi faktorlar bo‘lishi mumkin. Talabga javob bermaydigan olinadigan plastinkali protezni uzoq muddat taqib yurish oqibatida ham shikastlanish kelib chiqishi mumkin. Kasallikni klinik ko‘rinishi va kechishi shikastlanishning joylashish joyiga, bemorning yoshiga, jarohatlovchi ta’sirning kuchiga va jarohatning ikkilamchi yallig‘lanishiga bog‘liq. Surunkali jarohatlar bemorni uzoq vaqt bezovta qilmasligi mumkin. Ayrim hollarda shish, qizarish va kuchsiz og‘riq bezovta qiladi. Ko‘rik o‘tkazilganda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasida yara borligi, qizarganligi, milk va til so‘rg‘ichlarning kattalashganligi kuzatiladi. Aniqlangan yara jarohatlovchi omil ta’sir etgan sohada joylashadi. Yara palpatsiyasi og‘riqli bo‘ladi. Regional limfa tugunlarining shishi bilan kechishi mumkin. Bunda limfa tugunlari shishgan, harakatli va og‘riqli bo‘ladi.

Davolash uchun birinchi bo‘lib jarohatlovchi omilni bartaraf etish zarur. So‘ng yaraga antiseptik ishlov berish va keratoplastik mod-dalardan aplikatsiya qilish kerak bo‘ladi.

Kimyoviy shikastlanish. Kimyoviy shikastlanish ham o‘tkir va surunkali bo‘lishi mumkin. O‘tkir kimyoviy jarohatlanish og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasiga yuqori konsentratsiyali moddalarni tegishi oqibatida kelib chiqadi (formalin, kumush nitrat, polimerizatsiya bo‘lmagan plastmassaning monomer va boshqalar).

Klinik ko‘rinishi. Klinik ko‘rinish shikastlantiruvchi moddaning tarkibi, miqdori va ta’sirning davomiyligiga bog‘liq. Kimyoviy modda tushgan zahoti bemor keskin og‘riqni sezadi. Kislotalar ta’sirida kuyish sodir bo‘ladi va parodontda kogulyatsiyalangan nekrozga uch-ragan po‘s’t paydo bo‘ladi. Bu po‘s’t atrofidagi to‘qimalar qizarib shishadi. Ishqorlar ta’sirida kuyganda kogulyatsiyalangan nekrozga uch-ragan po‘s’t paydo bo‘lmaydi. Shikastlanish chuqr bo‘lib, yumshoq to‘qimalarning barcha qatlamlarini shikastlashi mumkin. Bemor juda kuchli, azobli og‘riqdan shikoyat qiladi. Bir necha kundan so‘ng nekrozga uchragan to‘qimalar tushib ketishi oqibatida eroziyalı va yarali yuza hosil bo‘ladi. Bu yaralar juda sekin bitadi.

Davolash. Kimyoviy modda shilliq pardaga tushgan zahoti shu modda ta’sirini neytrallaydigan modda bilan tezda yuvish kerak. Kis-

lotalar ta'sirini neytrallash uchun sovunli suv, 1% ishqoriy suv, novshadil spirtining 0,1 % eritmasidan foydalaniladi. Ishqorlar ta'sirini neytrallash uchun 0,5 % sirkal kislotasi, 0,5% limon kislotalaridan foydalaniladi. Neytrallaydigan moddalar yordamida kimyoviy moddalarni to'qimalar ichiga yanada kirib borib salbiy ta'sir qilishini to'xtatish mumkin. So'ng og'riq qoldirish uchun 1% trimikain va 1–2% lidokain eritmalarini aplikatsiya qilinadi. To'qimalar tiklanishini tezlashtirish uchun vitamin «A» malhami, shaftoli moyi va shipovnik moyalaridan foydalaniladi.

Fizik shikastlanish. O'tkir shikastlanish issiq ta'sir etuvchi omil (qaynoq suv, qaynoq ovqat), elektr toki, ionlovchi nurlar ta'sirida hosil bo'ladi. Qaynoq suv yoki qaynoq ovqatdan kuyish sodir bo'lganida keskin og'riq paydo bo'lib, shilliq parda g'adir-budur bo'lib qoladi, qizaradi, pufaklar hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan pufaklar tezda yorilib ularning tagida eroziya va yazvalar hosil bo'ladi.

Og'iz bo'shlig'ida bir necha xil metall qotishmalardan tashkil topgan tish protezining bo'lishi og'izda mikrotok – galvanik tok hosil bo'lishiga olib keladi. Og'iz bo'shlig'ida galvanik tokni quyidagi metall qotishmalar hosil qiladi; oltin qotishmasi + amalgama, zanglamaydigan po'lat + kavshar, amalgama + kavshar va amalgama + zanglamaydigan po'lat. Hosil bo'lgan galvanik tok og'iz bo'shlig'i shilliq pardasiga ta'sir ko'rsatadi. Bemor og'zida noxush hidlar paydo bo'lganligidan, til chetlari achishishidan shikoyat qiladi. Agar og'iz bo'shlig'idagi mikrotok 10 mA dan ortsa og'iz bo'shlig'idagi metall qotishmalarni boshqa homashyoga (plastmassa) almashtirish kerak bo'ladi.

Nurlanish kasalligi. Rentgen nurlari, gamma-nurlari butun organizmga yoki katta bir qismiga ta'siri nurlanish kasalligini keltirib chiqaradi. Nurlangan to'qimalardagi qon tomirlar devorlarining morfologik strukturasi o'zgarib ketadi, himoya funksiyasi pasayadi, regegeneratsiya to'xtaydi. Nurlanish kasalligining o'tkir va surunkali shakkulari farqlanadi. O'tkir nurlanishda stomatit kuzatiladi va bu stomatiti nur stomatiti deb ataladi. O'tkir nur stomatiting birinchi belgisi og'iz bo'shlig'i shilliq pardasida nuqta hajmidagi qontalashlar paydo bo'ladi. Ovqatlanganda og'riydi, og'zi quriydi, ta'm sezishi o'zgaradi, til g'adir-budur bo'lib qoladi. Shilliq parda ko'kintir tus

oladi. So‘lagi quyuqlashadi. Bundan tashqari milk chetlari qizaradi, shishadi va tez qonaydigan bo‘lib qoladi. So‘ng shilliq pardada eroziyalar paydo bo‘ladi. Bemorning og‘zidan noxush hid keladi. Hosil bo‘lgan yazvalarning chetlari notekis bo‘lib, tubi kir kulrang karash bilan qoplanadi. Kuchli og‘riq sababli bemor ovqat qabul qilishdan bosh tortadi. Natijada og‘iz boshlig‘i mexanik tozalanmaydi, bu esa ikkilamchi yalig‘lanish paydo bo‘lishiga olib keladi. Organizmning himoya finksiysi susayishi oqibatida yallig‘lanishni yumshoq to‘qimalarga tez tarqalishi undan jag‘ suyaklariga o‘tib sekvestrlar paydo bo‘lishiga olb kelishi mumkin. Jarayon juda sekin kechadi, so‘ng shilliq qavatda dag‘al chandiqlar qoldiradi.

Surunkali nurlanish organizmga yoki uning biror qismiga uzoq muddat kichik dozalardagi nurlarning ta’sirida hosil bo‘ladi. Avval og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasida hech qanday o‘zgarishlar kuzatilmasligi mumkin. Asta og‘iz quriy boshlaydi, kataral gingivit hosil bo‘ladi va u yarali gingivitga aylanishi mumkin. Og‘iz dahlizining o‘tuv burma sohasida eroziyalar, so‘ng yazvalar paydo bo‘ladi va ular asta sekin milk, lablarni qoplaydi. Kasallikni uzoq muddat kechishi parodontit klinikasiga o‘xshash nur parodontitiga olib keladi.

Davolash. Kasallikni davolashda umumiy va mahalliy terapevtik davo amalga oshiriladi. Umumiy davo terapiyasida organizmdagi radiokimyoiy reaksiyani susaytiruvchi, organizmning radiosezgirligini susaytiradigan, qon tarkibini tiklovchi, antigistomin dori moddalar va antibiotiklar qo‘llaniladi.

YUQUMLI KASALLIKLARDA SHILLIQ PARDA JAROHATI

Deyarli hamma yuqumli kasalliklarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasida patologik jarayon kechadi. Ushbu patologik hususiyatlarni bilish yuqumli kasalliklarni erta aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Yuqumli kasalliklarning kelib chiqish sabablari, klinik ko‘rinishi har xil. Lekin bu kasalliklarning barchasini mikroorganizmlar (viruslar, bakteriyalar, spiroxetalar va zambrug‘lar) qo‘zg‘atadi. Har bir kasallikni aniq tegishli mikroorganizmlar keltirib chiqaradi.

O‘tkir gerpetik stomatit. O‘tkir gerpetik stomatit yuquvchanligi yuqori bo‘lganligi uchun immun holati shakllanmaganlar orasida ko‘p uchraydi. Infeksiya havo tomchi yo‘li orqali yuqadi.

Organizmning umumiy zaharlanishi va kasallikning mahalliy belgilarini yuzaga kelish darajasiga qarab, kasallik yengil, o‘rta va og‘ir shakllarda kechadi.

Bolaning tana harorati 40°C gacha ko‘tariladi, kuchsizlanadi, boishi og‘riydi, ishtahasi yo‘qoladi, ko‘ngil aynash va qusish kabi holatlar kuzatiladi. Jag‘ osti limfa tugunlari kattalashadi. Tana harorati ko‘tarilayotgan vaqtida, shilliq pardada qizarish, shish kuzatiladi va pufakchalar paydo bo‘ladi. Pufakchalar tezda yoriladi, ularning o‘rnida $0,5\text{--}1$ sm kattaliklardagi oval yoki dumaloq shaklda ega bo‘lgan yarachalarga o‘xshash nekrozli eroziya paydo bo‘ladi. Kasallik og‘ir kechganida toshmalar yuz terisida ham paydo bo‘ladi (27-rasm). O‘tkir gerpetik stomatitning aniq belgilaridan biri bu so‘lak ajralishi kuchayishi, so‘lakning quyqalashishi, og‘izda hid paydo bo‘lish holatlari kuzatiladi. Tashxis kasallikning klinik ko‘rinishi va epidemiologiyasi asosida qo‘yiladi.

Davolash. Mahalliy davolash ya’ni virusga qarshi davo o‘tkazish kerak. Buning uchun oksalinning $0,25\text{--}1$ % li tebrofening 1–2 % li geliomitsinining 1 % li mazlari, interferon, prodigiozon va boshqa ar-



27-rasm. O‘tkir gerpetik stomatit.

lashmalar surtiladi. Bu dori vositalari kuniga 3–4 marta surtiladi. Kasallik belgilari so'nayotgan vaqtda kuchsiz antiseptik va keratoplastik vositalar qo'llanadi.

Skarlatina. Skarlatinada o'ziga xos kasallik belgisi – malinasimon til kuzatilishi: kasallikda uch kun yuqori tana harorati kuzatiladi. Til karash bilan qoplanadi, to'rtinchchi kundan boshlab bu karash til ipsimon so'rg'ichlari bilan yuvilib tushadi. Qachonki til yuzasi tamomman toza bo'lganida, uning yuzasi malina mevalarini eslatadi. Bir qancha vaqtadan so'ng epitelial qoplama qayta tiklanadi.

Davolash: og'iz bo'shlig'i shilliq pardasida shaftoli yog'ini anes-tezin emulsiyasidagi 1–2% li aralashmasini surkash va har ovqat-lanishdan keyin achchiq choy bilan chayqash kerak.

Qizamiq. Qizamiq toshmalari terida paydo bo'lishidan 1–2 kun oldin yumshoq va qattiq tanglayda 1 mm dan bir necha mm gacha bir-biriga quyluvchi, noaniq ko'rinishdagi qoramtil-qirmizi rangdagi enentemalar ko'rinishida yuzaga keladi. Ayni vaqtda lunjda kichik oziq tishlar qarshisida, qizamiq uchun xos bo'lgan belgi «Belskiy-Filatov-Koplin» dog'i yuzaga keladi. Bu dog' guruh-guruh bo'lib joylashadi va bir-biriga sira qo'shilmaydi. Bir ikki kundan so'ng yo'qolib ketadi. Og'iz bo'shlig'i shilliq pardasining hamma sohasi qizarib ketadi.

Davolash. Og'iz bo'shlig'ini kuchsiz antiseptik eritmalar bilan chayiladi va keratoplastik dori ashyolar surtiladi.

Zaxm. Zaxm surunkali davom etuvchi yuqumli venerik kasallik. Zaxmning klinik belgilari turlicha bo'lib uzoq, yillab davom etadi. Uning birlamchi ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchilari farqlanadi.

Birlamchi sifilis 6–7 hafta davom etadi. Bunda qattiq shanker oqish treponema epiteliyga kirgan, teri va shilliq pardada hosil bo'ladi.

Qattiq yara bitta yoki ikki uchta bo'lishi mumkin. Qattiq yara oval, yumaloq shaklda bo'lib, diametri 1,0–1,5 sm gacha, yopgan nonga o'xshab chetlari bo'rtib, shishgan va tog'ayga o'xshash qattiq bo'ladi. Og'rimaydi, biroz qizaradi. Qattiq yara tagida tog'aysimon qattiq infiltrat bo'ladi, yaraning o'rtasi toza, go'shtdek tiniq, qip-qizil rangda bo'ladi.

Zaxmning ikkinchi davri qattiq shanker hosil bo'lganidan 6–7 hafta vaqt o'tgach boshlanadi. Bu davrda rozeola-papula toshmalari

bir tekisda paydo bo‘ladi. Bu davr 3–5 yil davom etadi. Zaxmning uchlamchi davrida og‘iz shilliq pardasida, gummalar tarqalgan, gumi-mali infiltrat va bug‘orli toshmalar paydo bo‘ladi. Zaxmni davolash teri-tanosil kasalliklari shifokori bilan birgalikda olib boriladi.

Kandidoz. Kondida turkumiga kiruvchi achitqisimon zamburug‘lar bilan chaqiriladigan kasallik. Kandidozning klinik yuzaga chiqishi va kechishi bemorning yoshiga, jismoniy holatiga, kechirayotgan umumiy kasalliklariga va boshqalarga bog‘liq.

Shilliq qavat kandidozi: kandidozli stomatit, milk kandidozi, til kandidozi va boshqalarga ajratiladi.

Kandidozli stomatit. Kasallik ko‘proq ko‘krak yoshidagi bolalarda uchraydi.

Og‘iz shilliq pardasida, tanglayda, milkda, lunjda oson tilinadigan karashlar paydo bo‘ladi (28-rasm). Bu karashlarni tilganimizdan keyin tekis, qisman shishli qizargan yuzani ko‘ramiz. Karashlar fibrini so‘ri-ladi, natijada oq ko‘kish rangdagi qo‘pol qatlam hosil bo‘lib, u tubdan shilliq parda bilan qattiq birikadi.

Kandidozni profilaktika qilish maqsadida og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasi qoidalariga rioya qilish va antibiotiklar bilan davolaganda nistatinni yoki levorinni kuniga 1500000 ED dan qabul qilish kerak boladi.

Qo‘zg‘atuvchiga ta’sir qilish, umumiy yo‘ldosh kasallikni davolash, organizmni kasalliklarga qarshiligini oshirish, og‘iz bo‘shlig‘ini



28-rasm. **Kandidoz.**

sanatsiya qilish. Zamburug‘ qo‘zg‘atuvchiga ta’sir qilish uchun 20 % li natriy boratning glitserinli, lyugolning glitserinli eritmalari ishlataladi. 5% li levorin, 0,5% li depolin surtmalaridan foydalaniladi.

OITS – orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi

OITS – orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi virus qo‘zg‘atuvchi yuqumli kasallik bo‘lib immunitetni zararlaydi va natijada immun yetishmovchiligi yuzaga keladi. Kasallik qo‘srimcha o‘tkir infeksiyalar yoki o‘smalar rivojlanishi bilan kechadi. OITSda organizm zararlanishini shartli ravishda to‘rtta turga bo‘lish mumkin: o‘pka, oshqozon ichak, serebrospinal teri va og‘iz boshlig‘i turi.

Teri va og‘iz boshlig‘i turida kasallangan bemorning terisi va og‘iz bo‘shlig‘ida o‘zgarishlar ko‘p uchraydi. OITV – infeksiyali bemor yoki virus tashuvchi zararlanish o‘chog‘i hisoblanadi. Kasallik qon, sperma, qin ajralmasi va sut orqali yuqadi. Kasallik yuqqandan so‘ng bir necha yil bezovta qilmasligi mumkin. OITV – retrovirusi yuqqan bemorda hech qanday belgilarni bo‘limasada kasallik tashuvchi hisoblanadi. Kasallikning kechishi 4 ta bosqichga bo‘linadi.

I bosqich belgilarsiz kechishi mumkin yoki limfa tugunlarning 1 sm gacha kattalashishi kuzatiladi.

II bosqichda tana vaznining keskin kamayishi, diareya, holsizlik, tez charchash, ishtaha yo‘qolishi, tunda terlash, hotirani pasayishiga olib keluvchi nevrologik o‘zgarishlar kuzatiladi. Terida shikastlanishlar va og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasida tukli leykoplakiya, o‘tkir gerpetik stomatit, surunkali qaytalovchi (residivlanuvchi) gerpisning xuruji kuzatiladi.

III bosqichda og‘iz bo‘shlig‘ida kandidoz, tukli leykoplakiya, o‘tkir gerpetik stomatit, surunkali herpes xuruji kuzatiladi. Bundan tashqari o‘pka tuberkulyozi va pnevmaniya rivojlanadi.

IV bosqich og‘ir kechadi. Bu bosqichda yallig‘lanish kasalliklari, KAPOSHI sarkomasini (hafli o‘smalar bo‘limiga qarang) hosil bo‘lishi (29-rasm), pnevmoniya, toksoplazmoz, sistemali kandidoz, kaxeksiya, xotirani yo‘qolishi va aqlan ojizlikka olib keluvchi nevrologik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.



29-rasm. KAPOSHI sarkomasi.

OITV infeksiyasi tashxisi labarator tekshiruv o'tkazib aniqlanadi. OITV infeksiyasi profilaktikasini amalga oshirish uchun sterillash va dezenfeksiya qoidalariга rioya qilish zarur. Asbob uskunalar yuqori harorat ta'sirida sterillanadi (qaynatish, avtoklavlash, quriq issiqlik bilan). Dezinfeksiyalash uchun 2% li glyutaral eritmasi, 30%li perikis vodorod eritmasidan foydalaniladi.

Stomatolog o'rta va kichik tibbiyot xodimlari o'zlarini ham himoya qilishlari shart. Ular albatta bir marotabali steril rezinali qo'lqop kiyishlari zarur. Qon va biologik suyuqliklar tekkan soha yaxshilab suv va so'vun bilan yuviladi. Rezina qo'lqopni yechgandan so'ng ham qaytadan yaxshilab yuvish maqsadga muvofiq bo'ladi. Muolaja vaqtida qon va biologik suyuqliklarni sachrashini oldini olish maqsadida maska va maxsus ko'zoynaklar kiyiladi.

ALLERGIK VA TOKSIK ALLERGIK KASALLIKLAR

Anafilaktik shok. Anafilaktik shok eng jiddiy allergik reaksiya. Stomatologiyada qo'llaniladigan dori vositalari va ashyolari ichida allergenlari juda ko'p. Bular antiseptiklar, anestetiklar, analgetiklar, antibiotiklar, vitaminlar, akril plastmassalar, plomba ashyolari, malham pastalar va boshqalar. Hozirgi kunda allergik kasalliklar kundan kunga ortib bormoqda. Dori moddalaridan betartib foydalanish allergik kasalliklarini hosil bo'lishiga olib keladi.

Allergiya-organizmning begona moddalarga nisbatan yuqori se-zuvchanligidir. Bunday moddalar allergenlar deyiladi. Allergenlar ta-sirida anafilaktik shok, Kvinke shishi, dori moddalariga allergik reaksiya va boshqa kasalliklar kuzatiladi.

Anafilaktik shokning klinik ko‘rinishi turlicha. Shunga asoslanib bir nechta variantlarga bo‘linadi. Gemodinamik variant yurak – qon tomir yetishmovchiligi bilan ifodalanadi. Bunda bemorning pulsi tez-lashadi, terisi qizarib so‘ng oqaradi,sovuj ter bosadi, qon bosimi pa-sayadi. Ayrim hollarda bemor hushidan ketadi. Anafilaktik shok mar-kaziy nerv sistemasidagi o‘zgarishlar bilan kechganda bemor bezov-talanadi, qo‘rquv hissi paydo bo‘ladi, titroq bosadi, boshi og‘riydi, qayt qiladi. Anafilaktik shok nafas organlaridagi o‘zgarishlar bilan kech-ganda bronxospazm kuzatiladi. Oshqozon ichak tizimidagi o‘zgarish-lar ko‘ngil aynash, quşish, ixtiyorsiz ich ketish va siyidik ajralishi, oshqozon va ichaklar sohasida og‘riqlar paydo bo‘lishi bilan kechadi.

Anafilaktik shok dori moddasi yuborilganidan so‘ng 10 sekunddan 10–15 daqiqa orasida, ba’zan 4–5 soatdan keyin ham rivojlanishi mum-kin. Anafilaktik shokda bemorga o‘z vaqtida shoshilinch tibbiy yor-dam ko‘rsatilmasa o‘limga olib kelishi mumkin. Anafilaktik shok og‘irlik darajasiga ko‘ra uch darajaga bo‘linadi: yengil, o‘rta va og‘ir. Bemorlarda anafilaktik shokning tipik kechishi quyidagi klinik bel-gilarga ega bo‘ladi. Avval bemor bezovtalanadi, qo‘rquv hissi paydo bo‘ladi. Badan birdan qizib ketadi. Yuz va bo‘yin terisida qichishish va igna sanchilish sezgisi paydo bo‘ladi. Bemor holsizlanadi, boshi og‘riydi. Ko‘krak qafasi siqiladi. Yurak sohasida og‘riq paydo bo‘ladi, nafas olish qiyinlashadi, qorni og‘riydi. Og‘ir formalarida bemor shi-koyatlarini aytishga ulgurmasdan hushidan ketadi.

Anafilaktik shokning obyektiv belgilari yuz va tana terisining giperimiyasi hosil bo‘lib, uni tezda oqarib ketishi. Ko‘z qovoqlari, lab-lar, og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardalarida shish paydo bo‘lishi. Oyoqlar qaltirashi, ko‘z qorqchiqlari kengayishi va yoruqlikka reaksiya qil-masligi.

Anafilaktik shokning birlamchi belgilari boshlangan zahoti shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishni boshlash shart. Buning uchun birin-chi bo‘lib organizimga kiritilayotgan allergenni toxtatish kerak. Agar allergen kiritib bo‘lingan bo‘lsa (imkonli bo‘lsa) o‘sha sohadan yuqo-

riroqqa jgut qo'yish yoki ineksiya o'rni atrofiga 0,3–0,5 ml 0,1% adrenalin eritmasidan inyeksiya qilish zarur. Bu muolaja allergenni to'qi malarga so'riliшини камайтиради. Bemorning ahvoli og'ir bo'lsa 0,1% adrenalin eritmasini 0,1–0,2 ml 3–5 daqiqa davomida tomir ichiga yuboriladi. Bemorning qon bosimi mo'tadillashganidan so'ng antigistamin dori vositalari kiritiladi. Anafilaktik shokning o'rta va og'ir formalarida glyukokartikosteroidlar vena ichiga yuboriladi. Bronxospazmni yo'qotish uchun 2,4% eufilin eritmasidan foydalaniлади.

Anafilaktik shok juda tez rivojlanganligi uchun bemorga tez shoshilinch yordam ko'rsatish zarur bo'ladi. Shuning uchun har bir stomatologik xonada quyidagi dori darmonlardan tashkil topgan to'plam bo'lishi shart:

- 0,1% adrenalin, 0,2% noradrenalin, 1% mezaton;
- antigistomin dori moddalari: 2% suprastin, 1% demedrol, tavegil;
- kortikosteroidlar: prednizalon gemisuksinat ampulalari, prednizalonning 5mg li tabletikalari;
- bronxospazmni yoqotish uchun: 5% efedrin gidroxlorid, 2,4% eufiln;
- eritmalar: 5% glukoza, 0,9% natriy xlorid eritmasi, 200–400 ml gemodez;
- penitsillinaza;
- dori moddalarni tomir ichiga yuborish uchun bir marotabalik steril sistema va shprislar, jgut, og'iz ochgichlar.

Anafilaktik shokni profilaktika qilish uchun bemorni birinchi bor qabul qilayotganda anamnezni to'liq aniqlash. Biror bir dori vositasini yuborishdan oldin bemorning qo'llanilmoqchi bo'lgan dori vositasini, avval, qabul qilganligi va shu dori vositasiga reaksiyalar hosil bo'lgan bo'limgaganligi aniqlanadi. Anamnezida allergik reaksiyalar kuzatilgan bemorlarga biror bir dori vositasini qo'llashdan oldin antigistomin dori moddalarini qabul qilish tavsiya etiladi.

Kvinke shishi. Kasallik qoqqisidan yoki sekin-asta boshlanishi mumkin. Yuzning turli qismlarida, og'iz bo'shlig'i shilliq qavati va tananing biror qismida chegaralangan shish paydo bo'ladi. Shishni qoplab turuvchi teri yoki shilliq pardanining rangi o'zgarmaydi. Ko'pincha Kvinke shishi pastki labda, ko'z qovog'ida, tilda, lunja va hal-

qumda kuzatiladi. Til va halqumning shishi asfeksiyani keltirib chiqarishi mumkin, bu esa hayot uchun juda havfli.

Davolash uchun organizmga allergenni kiritish to'xtatiladi, antigistomin va kortikosteroidlar yuboriladi.

OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ PARDASINING EKZOGEN INTOKSIKATSIYALARDAGI O'ZGARISHLARI

Og'iz bo'shlig'i shilliq pardasiga yoqimsiz faktorlarning ta'sir qilishi oqibatida kelib chiqadi. Ko'pincha bu faktorlar insonning professional mashg'uloti bilan bog'liq bo'ladi. Yuqori konsentratsiyaga ega bo'limgan kimyoviy moddalarni uzoq muddat mobaynida organizmga qilgan ta'siri surunkali intoksikatsiyaga olib keladi. Surunkali intoksikatsianing rivojlanishida og'ir metallar alohida o'rinn tutadi. Qo'rg'oshin, simob, vismut va boshqa metallar bilan ishlaydigan insonlarda vaqt o'tishi bilan surunkali intoksikatsiya kelib chiqishi mumkin. Har bir metall og'iz bo'shlig'ida o'ziga hos klinik ko'rinish hosil qiladi.

TIZIM KASALLIKLARIDA OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ PARDASINING O'ZGARISHI

Og'iz boshlig'i ichki organlar bilan uzviy bog'langan. Masalan, og'iz boshlig'i shilliq pardasi retseptorlari markaziy nerv sistemasi bilan, oshqozon ichak tizimi, endokrin, yurak – qon tomir tizimi va boshqalar bilan bog'liq. Boshqa organlar finksiyasining buzilishi og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida belgilar paydo qiladi. Oshqozon-ichak tizimi funksiyasining o'zgarishi tilni karash bilan qoplanishiga olib keladi. Yurak – qon tomiri tizimi kasalliklarida lab, til, lunj va og'iz bo'shlig'i tubi shilliq pardasi sianozi kuzatiladi. O'tkir infarkt miokardda sianoz bilan birgalikda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining yorilishi, eroziya va qontalashishlar kuzatiladi. Qon kasalliklarida ham o'zgarishlar aniqlanadi. Leykozning birinchi belgisi og'iz bo'shlig'i shilliq pardasida kuzatiladi. Milklar qontalashadi, qonaydi va yarali nekrotik shikastlanishlar kechadi. Qipiqlanuvchi temiro'tki (psariaz)da «geografik til»ning bo'lishi uning bir ko'rinishi hisoblanadi.

TIL ANAMALIYASI VA TEGISHLI KASALLIKLAR

Glossit – til shilliq pardasining yallig‘lanishi. Ko‘pgina og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasi kasalliklarida tilda ham o‘zgarishlar kuzatiladi. Faqat tilning o‘zida o‘zgarishlar bilan kechadigan yuza keltiradigan kasalliklar deskvamativ glossit, rombsimon glossit, qora til, burmali til hisoblanadi.

Deskvamativ glossit. Burmasimon tilda til kattalashadi, til to‘qimasi ikki marotabagacha qalinlashadi. Yoriq-yoriq burmalar bir-biri bilan bo‘ylama yo‘nalishda simmetrik yoki ko‘ndalang yo‘nalishda joylashadi. Yoriqli chuqur burmalar mikroflora rivojlanishi uchun qulay hisoblanadi. Og‘iz bo‘shlig‘i gigiena qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida yallig‘lanish rivojlanib og‘riq va achishish paydo bo‘ladi. Tilning o‘z shilliq pardasidagi distrofik yallig‘lanish kasalligidir. Kasallik epitelial shoxlanish buzilishi va til so‘rg‘ichlarining distrofik o‘zgarishi bilan kechadi. Kasallik subyektiv o‘zgarishlarsiz kechadi va ayrim hollarda bemorlar achishishidan shikoyat qiladi.

Bemorning og‘iz bo‘shlig‘i sanatsiya qilinib, antiseptik eritmalar bilan chayiladi va keratoplastik vositalar qo‘llanadi.

Rombsimon glossit. Surunkali kasallik bo‘lib ko‘pincha chekuvchi erkaklarda uchraydi. Til orqasidan uchinchi qismning o‘rta chizig‘ida tarnovsimon so‘rg‘ichlarning oldida rombsimon shakldagi o‘choq kuza tiladi. Uning kattaligi 0,5 dan 2,5 sm gacha bo‘ladi. Rombsimon glossit yillab davom etib, o‘z-o‘zidan sog‘ayib ketmaydi. Klinik kechishiga qarab uch xil shaklga ajratiladi: yassi, do‘mboqli, papilamatoz.

Qora «sochli» til. Kasallik katta yoshdagagi chekuvchi erkaklarda uchraydi. Kasallik til ipsimon so‘rg‘ichlarining turli darajadagi giperplaziyasi va shoxlanishi bilan xarakterlanadi. Kasallik bemor uchun sezilarsiz, tez rivojlanadi. Tilning darsal yuzasida ipsimon so‘rg‘ichlar qalinlashadi, uzunlashadi va shoxlanadi. Ayrim hollarda bemorga tilda bir narsa bordek tuyuladi va qusish refleksi paydo bo‘lishidan shikoyat qiladi. So‘rg‘ichlar 0,5 dan 3 sm gacha bo‘lishi mumkin.

Davolash uchun, avval, og‘iz bo‘shlig‘i sanatsiya qilinadi va kirioterapiya o‘tkaziladi.

LAB KASALLIKLARI

Xeylit – lab qizil xoshiyasining yallig‘lanishidir. Xeylitlar mustaqil yoki organizmda kechuvchi kasallikning simptomi bo‘lishi mumkin. Xeylitlarning angulyar, glandulyar, eksfoliativ turlari mayjud.

Angulyar xeylit. Bu surunkali qaytalanuvchi kasallik bo‘lib, zamburug‘lar yoki steptostafilakokk infeksiyalar keltirib chiqaradi. Bemor og‘zini ochayotganda og‘riq paydo bo‘ladi. Og‘iz burchaklarida tez yallig‘lanuvchi eroziya yoki bichilishi paydo bo‘ladi.

Granulyar xeylit. Granulyar xeylit – mayda so‘lak bezlarining yallig‘lanishi. Oddiy granulyar xeylit lab qizil xoshiyasiga o‘tish sohasida qizil nuqtalar singari so‘lak bezlari kengayishini va tomchi so‘lak ajralishini kuzatish mumkin. Labni quritilgandan 5–10 soniya vaqt o‘tgach, so‘lak bezlardan tomchi so‘laklar ajralib, butun labni qoplab oлади. Ayrim hollarda so‘lak kanali ustida aylana shaklda leykoplakiya hosil bo‘ladi.

Eksfoliativ xeylit. Faqat lab qizil xoshiyasining jarohatlanishi bilan kechadigan surunkali kasallik. Ikki xil turi farqlanadi: quruq va eksudativ.

Quruq formasida bemorlar lablari qurib qolishidan, ayrim hollarda achishishi, qichishishidan shikoyat qiladilar. Lab shilliq pardasini og‘iz shilliq pardasiga o‘tish joyida giperemiyalangan chiziq bo‘lib, uning usti qatqaloq bilan qoplangan, qatqaloqlar olinganda to‘q qizil rangli yuza, ayrim hollarda yuza eroziyalar hosil bo‘ladi. Quruq shakl ekssudativga aylanishi mumkin.

Ekssudativ formasida lablar kattalashgan, qizargan, shishgan bo‘ladi. Lablar tutashtirilganda og‘riq paydo bo‘lganligi uchun og‘iz yarim ochiq holda, lab qatqaloq, po‘stloq bilan qoplangan boladi.

Tayanch iboralar:

Galvanik tok – og‘iz bo‘shlig‘ida bir necha xil metall qotishmalaridan tashkil topgan tish protezining bo‘lishi natijasida og‘izda mikrotokning hosil bo‘lishi;

Qizamiq – o‘tkir kechuvchi yuqumli kasallik;

Zaxm – surunkali davom etuvchi yuqumli venerik kasallik;

Kandidoz – kondida turkumiga kiruvchi achitqisimon zamburug‘-lar bilan chaqiriladigan kasallik;

OITS – orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi;

OITV – orttirilgan immunitet tanqisligi virusi;

KAPOSHI sarkomasini – ko‘pincha OITS da kuzatiladidan o‘sma kasalligi;

Allergiya – organizmnimg begona moddalarga nisbatan yuqori sezuvchanligi;

Kvinke shishi – yuzning turli qismlarida, og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati va tananing biror qismida chegaralangan shish paydo bo‘lishi;

Glossit – til shilliq pardasining yallig‘lanishi;

Xeylit – lab qizil xoshiyasining yallig‘lanishi.

Afta – qizargan shilliq pardada joylashgan, karash bilan qoplan-gan, qizil hoshiya bilan o‘ralgan oval yoki dumoloq shaklga ega bo‘lgan yaracha.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasi kasalliklari qanday ta’riflanadi?
2. Qaysi faktorlar jarohatlovchi faktorlarga kiradi?
3. Galvanizm deganda nimani tushunasiz?
4. Kimyoviy shikastlanishlarda birinchi yordan ko‘rsatish qanday tartibda olib boriladi?
5. Nur stomatiti qanday klinik ko‘rinishga ega?
6. Qaysi yuqumli kasalliklarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasida patologik jarayonlar kechadi.
7. Malinasimon til qaysi kasallik ucun hos klinik belgi hisoblanadi?
8. Kandidoz qanday klinik ko‘rinishga ega?
9. OITS da og‘iz boshlig‘ida qanday o‘zgarishlar uchraydi?
10. OITSni profilaktika qilish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilishi kerak?
11. Anafilaktik shokning qanday klinik ko‘rinishlari mavjud?
12. Anafilaktik shok holatida birinchi yordam qanday amalga oshiriladi?
13. Qanday til kasalliklarini bilasiz?
14. Xeylit deganda nimani tushunasiz?

XI BOB

YUZ-JAG' SOHASI YALLIG'LANISH KASALLIKLARI

JAG' PERIOSTITLARI

Periostitlar – tish va periodont xastaliklari asoratlari oqibatida kelib chiqadigan suyak usti pardasining yallig'lanishidir. Ko'pincha u alveola o'sig'ida kam hollarda jag' tanasi sohasida kuztiladi.

O'tkir yiringli periostit keskin kechadi va kun sayin yallig'lanishi ortib boradi. Bemorning umumiy ahvoli qoniqarli bo'lib tana harorati $37,5^{\circ}$ – 38°C atrofida bo'ladi. Bemor holsizlanadi, boshi og'riydi, ishtahasi yomonlashadi, uyqusi buziladi sababi tish atrofidagi og'riqlar zo'rayadi, og'riqlar chakka, qulqoq, bo'yinda kuzatiladi, keyinchalik og'riqlar susayib, simmilovchi tus oladi.

Suyak pardasida xastalik rivojlangan sari jag'-oldi yumshoq to'qimalarda shish paydo bo'ladi. Bir necha tish atrofidagi shilliq parda qizargan, o'tuv burma tekislashadi (30-rasm). Shu sohani paypaslab ko'rilganda og'riqli infiltrat va flyukturizatsiya belgisi aniqlanadi.

Faqat kasal tish qimirlab qolgan bo'lib, perkussiyada og'riq seziladi.

Bemorning yuz qismida kolateral shish hisobiga paydo bo'lgan assimetriya holati aniqlanadi. Limfa tugunlarining kattalashishi kuzatilib paypaslaganda og'riydi.

Rentgen tekshiruvi o'tkazilganda faqat kasal tishgagina xos bo'lgan o'zgarishlar aniqlanib, jag' suyagida o'zgarishlar kuzatilmaydi.

O'tkir yiringli periostitni davolash kompleks tarzda olib boriladi. Ya'ni jarrohlik va konservativ usul



30-rasm. Periostit.

yordamida. Jarrohlik usulining asosiy maqsadi yiringli o'choqni kesib ochish va sababchi kasal shishni olib tashlashdan iborat. Buning uchun mahalliy og'riqsizlantirishning infinfratsiya va o'tkazuvchi usulidan foydalaniлади. Kesma o'tuvchi burma shilliq qavati bo'ylab suyakkacha chuqurlikda o'tkaziladi. Kesmaning uzunligi 3–5 tish sohasida 1,5–2,5 sm uzunligida bo'lishi lozim. Yiringning erkin chiqishini ta'minlash uchun bo'shliq ichiga rezinali lentacha (dranaj) joylab qo'yiladi. Kasal tish olib tashlanadi. Agar kasal tish funksional va kosmetik jihatdan o'z qiymatini yo'qotmagan, ildiz kanali yaxshi o'tuvchi bo'lsa, saqlab qolib uni konservativ davolanadi.

Bemorga og'iz bo'shlig'ini furatsillinning 1:5000 yoki kaliy per-monganatning 1:5000 nisbatdagi iliq eritmasi bilan chayib turish buyu-riladi. Kompleks davolash maqsadida bemorga antibiotiklar, sulfani-lamidlar tavsiya etiladi.

JAG‘ OSTEOMIYELITLARI

Osteomiyelit – suyak to'qimasining infeksiyali yiringli nekrotik yallig'lanishidir. Kelib chiqishiga ko'ra gemotogen, travmatik, o'q tek-kan yaralanishlar oqibatida va odontogen turlaridan iborat. Gemoto-gen osteomiyelit suyak to'qimasiga qon bilan infeksiyaning kirib kelishi (gripp, skarlatina, difteriya...) oqibatida kelib chiqadi. Trav-matik va o'q tekkan yaralanishlarda jarohat o'rniغا tashqaridan infek-siya kirishi natijasida kelib chiqadi. Odontogen osteomiyelitlar perio-dontal yoriqdan infeksiyaning suyak ko'migiga o'tishi oqibatida kelib chiqadi. Odontogen osteomiyelitlar barcha osteomiyelitlarning yar-mini tashkil etadi. Yuqori jag‘ga nisbatan pastki jag‘ osteomiyelitlari ko'proq kuzatiladi. Stafilokoklar, anaerob infeksiyalar va asporogen anoerobler osteomiyelitning qo'zg'atuvchilaridir. Osteomiyelitda yallig'lanish jarayoni faqat suyak to'qimalarini emas, balki uning ichidagi ko'migini, suyak pardasini va atrofdagi yumshoq to'qimalarni ham o'z ichiga oladi.

Jag‘lardagi odontogen osteomiyelit asosan uch bosqichda kecha-di: o'tkir, o'tkir osti va surunkali. Bundan tashqari chegaralangan va diffuz bo'lishi mumkin.

O'tkir bosqich. Bemor organizminig umumiy holati va bakteriya-larning virulentligiga qarab kasallik sekin yoki keskin kechishi mumkin. Kasallikning bиринчи belgisi aniq bir tish sohasida o'ta kuchli og'riqning paydo bo'lishi. Keyinchalik bu og'riq bir necha tishlar soha-siga kengayadi va yallig'lanish jarayoni jag' tanasi bo'ylab tarqalib boradi.

Bemorda umumiy holsizlik kuzatiladi. Kasallikning diffuz turida og'riq butun jag' bo'ylab hosil bo'ladi. Bemor ishtahasi yo'qoladi, uyqusi buziladi, boshi og'riydi. Tana harorati 38°C dan 40°C gacha ko'tarilishi mumkin. Bemorning umumiy ahvoli qoniqarli bo'lib kuchli terlaydi.

Tashqi ko'rik o'tkazilganda bemorning yuzida kataral shish borligi, regional limfa tugunlari kattalashganligi, yuz terisi kulrang tus olib, yuz ifodalari kuchli og'riqni sezayotganligini bildirib turadi.

Og'iz bo'shlig'i ko'rige o'tkazishda uning ochilishi chegaralangan bo'lib, sababchi va qo'shni tishlar sohasidagi shilliq parda qizargan shishgan, og'izdan qo'lansa hid keladi, so'lak quyuqlashadi, til esa sarg'ish – kulrang karash bilan qoplangan bo'ladi.

Palpatsiyada sababchi tish sohasidagi alveola o'sig'i ikkala tomon-dan yo'g'onlashgan, og'riqli, o'tuv burma tekislashgan bo'ladi. Tishlar qimirlab qoladi va ularning qimirlash darajasi borgan sari ortib boradi. Kasal tishning qimirlash darajasi ko'proq bo'ladi. Milk kasal tishdan ajralib turadi. Alveolyar – engak nervlari innervatsiyasi sohasida ekssudat ta'siri ostida ezilish sodir bo'lganligi uchun sezish hususiyati susayadi. Pastki jag' tanasi qalinlashadi.

O'tkir odontogen osteomiyelit kasalligi qon va peshobdag'i o'zgarishlar bilan kechadi.

Odontogen osteomiyelitning o'tkir davrida jag'larning rentgen tas-virida hech qanday suyak o'zgarishlari kuzatilmaydi.

O'tkir osti bosqichi. O'tkir osti bosqichi, kasallik boshlanganidan 11–15 kundan so'ng boshlanib 4–8 hafta davom etadi.

Yiringli o'choqlarning ochilishi natijasida suyak va shilliq qavat-dagi yallig'lanish kamayadi, og'riqlar susayadi, tana harorati pasayib subfibril bo'ladi. Shuning uchun bemorning umumiy ahvoli yaxshilana boshlaydi ishtahasi paydo bo'ladi, uyqusi barqarorlashadi. Qon va pe-

shob tahlillari normallashadi. Regional limfa tugunlaridagi og'riqlar kamayadi va ularning siluvchanlik darajasi ortadi.

Og'iz bo'shlig'idagi yallig'lanish sohalariga mos bo'lgan shilliq pardalar ko'kimdir tusda bo'lib, shishgan va shu sohalarda oqimlar hosil bo'la boshlaydi. Ulardan kam miqdorda quyuq yiring ajralib turadi. Bu bosqichda sekvesterlar shakllana boshlaydi.

O'tkir osteomiyelitdan farqli rentgenogrammada yallig'lanish sohasi chekkalarida aniq chegaraga ega bo'lmasan suyak destruksiyasi kuzatiladi.

Kasallik anamnezi, yiringli oqma yo'lning hosil bo'lishi va rentgenogramma natijalari tashxisni aniqlashda muhim o'rinni tutadi.

Surunkali bosqich. Kasallikning bu bosqichi 4–6 haftalaridan boshlanib bir necha oygacha davom etadi. Bemorning umumiy ahvoli yanada yaxshilanadi. Tana harorati me'yordarajasida bo'ladi.

Bemor tashqi ko'rinishidagi assimetriya saqlanib qoladi. Jag'suyagi suyak usti pardasi tomonidan qalin ikkilamchi suyak hosil bo'lishi hisobiga qalnlashadi. Yuz terisi shu sohada yupqalashadi. Regional limfa tugunlarining shishi kamayadi, harakatchangligi ortadi.

Jag' sohasida oqmalar shakllanadi va ular bir nechta bo'lishi mumkin. Nekrozga uchragan suyak to'qimalari suyakdan ajralib sekvestrlar hosil qiladi (31-rasm). Ajralmalar oqmalar orqali chiqadi.



31-rasm. Pastki jag' tanasi
va o'siqlardagi sekvestrlar.



32-rasm. Surunkali
osteomiyelitda oqmani
hosil bo'lishi.

Qolgan oqmalardan olcha rangli, tez qonovchi granulatsiya to‘qimasi bo‘rtib chiqib turadi (32-rasm). Bu bosqichda oqma yo‘llari berkilib qolsa xurujlar bo‘lishi mumkin. Bunda kasallik o‘tkir davrdagi ko‘rinishga o‘hshash, klinikani namoyon qiladi. Oqmalar bitib kindiksimon chandiq qoldiradi.

Surunkali bosqichda rentgenogrammada jag‘da har hil hajmdagi sekvestrlarga ega bo‘lgan sekvestr bo‘shliqlari aniqlanadi.

Davolash. Kasallikning o‘tkir bosqichida ekssudatga yo‘l ochish va yallig‘lanishni yon to‘qimalar sohasiga tarqalishining oldini olish maqsadida birlamchi jarrohlik davosi usuli bilan yiringli o‘choqlar ochiladi, kasal tishlar olib tashlanadi. Bemorga antibiotiklar, kalsiy preparatlari, dezintoksikatsiya, desensibilizatsiya qiluvchi stimullovchi va simptomatik davo qilinadi. Fizioterapiya muolajalaridan quyi jadal lazerli nut tavsiya etiladi. Klinik va rentgenologik tekshirishlarga asoslangan holda bemorda sekvestektomiya operatsiyasi o‘tkaziladi.

YUZ-JAG‘ SOHASI ABSSESSI VA FLEGMONALARI

Abssess – bu yog‘ to‘qimasining chegaralangan yiringli yallig‘-lanish jarayoni. **Flegmona** – bu yog‘ to‘qimasining tarqalgan yiringli yallig‘lanish jarayonidir. Flegmona teri va shilliq parda ostida, mu-shaklar va fastiyal oralig‘ida aniqlanib, bir vaqtning o‘zida bir yoki bir necha anatomik sohani egallashi mumkin. Abssess va flegmonalarning kelib chiqishi, patogenezi va klinik ko‘rinishi bir biriga juda o‘hshash. Flegmonalar absesslarga nisbatan og‘ir kechadi. Flegmonalarning topografik joylashishiga ko‘ra quyidagicha farqlanadi:

- Pastki jag‘ atrofidagi flegmonalar;
- Yuqori jag‘ atrofidagi flegmonalar;
- Og‘iz tubi va til flegmonalari.

Yuz-jag‘ sohasidagi abscess va flegmonalar o‘ta og‘ir va hafli kasallikdir. Sababi kasallik ushbu sohaning inervatsiyasi yahshi tar-moqlangan bo‘lganligi uchun o‘ta og‘riqli kechadi va ko‘pgina funk-siyalarining (chaynash, yutish, nafas olish, so‘zlashish) buzilishiga olib



33-rasm. Ko‘z osti sohasi flegmonasi.

keladi. Hamda yallig‘lanish yon sohalarga (ko‘z kosasi, halqum) tarqalishi mumkin.

Yuz-jag‘ sohasidagi abscess va flegmonalarini periodontit, limfadenit, periostit, yuqorigi osteomiyelit, jag‘ sinishlari keltirib chiqaradi. Yiringli yallig‘lanishni qo‘zg‘atuvchilari esa streptokoklar, stafilakoklar, pnevmakoklar va turli anoeroblardir.

Klinik belgilari. Kasallik keskin boshlanadi. Yuzda og‘riqli infiltrate paydo bo‘ladi. Bemorlar asosan yallig‘langan sohadagi turli xil intensivlikdagi og‘riqdan yuz va bo‘yin sohasining shishganligidan va natijada yuz assimetriyasi hosil bo‘lganligidan shikoyat qiladilar (33-rasm). Og‘riqlar zo‘rayib boradi. Agar infiltrat yuza joylashsa uni ustini qoplab turgan teri qizaradi. Regional limfa tugunlar kattalashadi. Bundan tashqari og‘iz ochilishining chegaralanishi, chaynash va yutishning og‘riq bilan kechishi, artikulyatsiyaning buzilishi bilan kechadi. Bemorlar umumiy holsizlanadi, boshi og‘riydi, uyqusi va ishtahasi yo‘qoladi. Bemorning tana harorati me’yor darajasida yoki subfebril bo‘ladi.

Tashhis kasallik anamnezi va obyektiv tekshiruvlar natijalari asosida o‘rnataladi.



a



b



d

34-rasm. a – og‘iz tubi flegmonasi bo‘lgan bemorning tashqi ko‘rinishi;

b – yiringli o‘choqlar jarrohlik ochish muolajasi;

d – davolanish jarayoni.

Davolash. Yuz va bo‘yin sohalaridagi abscess va flegmonalar kompleks davolanadi. Jarrohlik va konservativ usullar qo‘llaniladi. Jarrohlik usulida davolash uchun yiringli bo‘shliqlar kesib ochiladi (34-rasm), ekssudat tezda chiqariladi.

LIMFADENITLAR

Limfadenit – limfa tugunining yalig‘lanishi. Limfadenitlar o‘tkir va surunkali bo‘ladi. Infiltrat turiga qarab, o‘tkir serroz va o‘tkir yiringli limfadenitlarga bo‘linadi.

O‘tkir yiringli limfadenit limfa tugun sohasida infiltratsiya paydo bo‘lishi unung siluvchanligining kamayishi bilan kechadi. Bemorning harorati $37,2^{\circ}$ – 37° C bo‘ladi.

Yallig‘lanish limfa tuguni sohasidagi terining qizarib shishi va asta – sekin to‘qima bilan birikishi bilan kuzatiladi. Limfa tugunining yiringli parchalanish jarayoni ayrim bemorlarda tez (2–3 kun ichida), ayrimlarda sekinlik bilan (1–2 hafta davomida) rivojlanishi mumkin.

Davolash. Limfa tuguniga infeksiya oqib kelishini to‘xtatish uchun birlamchi yallig‘lanish o‘chog‘i bartaraf qilinadi. O‘tkir seroz limfadenitni konservativ usulda davolanadi. O‘tkir yiringli yoki huruj qilgan surunkali limfadenitlarda jarrohlik davolash o‘tkaziladi.

Tayanch iboralar:

Periostitlar – tish va periodont xastaliklari asoratlari oqibatida kelib chiqadigan suyak usti pardasining yallig‘lanishi;

Osteomiyelit – suyak to‘qimasining infeksiyali yiringli nekrotik yallig‘lanishi;

Odontogen osteomiyelit – kasallangan tish oqibatida kelib chiqqan osteomiyelit;

Abscess – yog‘ to‘qimasining chegaralangan yiringli yallig‘lanish jarayoni;

Flegmona – yog‘ to‘qimasining tarqalgan yiringli yallig‘lanish jarayoni;

Limfadenit – limfa tugunining yalig‘lanishi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Yuz-jag‘ sohasining qanday yallig‘lanish kasalliklarini bilasiz?
2. Odontogen periostit qanday klinik ko‘rinishga ega?
3. Osteomiyelit nechta bosqichda kechadi?
4. Osteomiyelit qanday davolanadi?
5. Abscess deb nimaga aytildi?
6. Flegmona absessdan nimasi bilan farq qiladi?
7. Yuz-jag‘ sohasi flegmonalari qanday klinik ko‘rinishga ega?
8. Yuz-jag‘ sohasi abscess va flegmonalari nima uchun havfli hisoblanadi?
9. Yuz-jag‘ sohasi limfadenitlari qanday klinik ko‘rinishga ega?
10. Yuz-jag‘ sohasi limfadenitlari qanday davolanadi?

XII BOB **TISH OLISH OPERATSIYASI**

Tish olish deb tish ildizini alveola katagi devori va milk cheti bilan biriktirib turuvchi bog'lamlarni kuch ishlatish yo'li bilan o'z o'rnidan sug'urib olishga aytildi. Tish olish operatsiyasi bemorning psixos-emotsional travmasi bilan kechadi.

Tish olish operatsiyasiga ko'rsatmalar:

1. Odontogen osteomiyelitning o'tkir fazasidagi tishlarni;
2. Odontogen yiringli periostitga sababchi tishni;
3. Tishni konservativ usullarda davolashning natijasi bo'lmasa;
4. Tishni toj qismi yemirilib va tish ildizini protezlash uchun qo'l-lab bo'lmasa;
5. Jag'lar singanida, siniq chizig'ida joylashgan tishlarni;
6. Retensiyalangan tishlarni;
7. Shilliq pardani surunkali jarohatlovchi tishlarni;
8. Tish qimirlashning 4-darajali tishlarni;
9. Makrognatiyada 3-molyar murtaklarini;
10. Ortodontik davo maqsadida;
11. Ortiqcha tishlarni.

Tish olish operatsiyasiga qarshi ko'rsatmalar nisbiy bo'lib ular quyidagilardan iborat:

1. Yurak – qon tomir kasalliklari (yurak infarktidan oldingi holat va infarkt o'tkazilganidan keyin 3–6 oygacha), hafaqonlik kasalligining xuruj davri, tez-tez stenokardiyasi tutib turuvchi yurak ishemiyasi va boshqalar;
2. Buyrak kasalliklari (o'tkir diffuz glomerulonefrit, o'tkir nefroz);
3. Yuqumli gepatitning o'tkir davri;
4. O'tkir leykoz, agronulositoz;
5. Gemorragik diatez (gemofiliya, Verilgof kasalligi);
6. Xuruj davridagi ruhiy kasalliklar;
7. Miyani qon bilan ta'minlanishining buzilishi;

8. O'tkir yuqumli kasalliklar (gripp, yuqori nafas yo'llarining yalig'lanish kasalliklari);
9. O'tkir nurlanish kasalligi;
10. Homiladorlikning 1, 2, 9 oylik davri;
11. Stomatitlar;
12. O'sma kasalliklarini nur bilan davolash jarayoni.


OMBURLAR YORDAMIDA TISH OLISH OPERATSIYASI

Tish olish uchun maxsus asboblar omburlar va elevatorlar qo'lla niladi. Omburda quyidagi qismlar farqlanadi: tish tojini yoki ildizini tishlab, ushlab oluvchi qismi – tishlari; shifokor qo'llari bilan ushlash uchun tutqichlari. Tishlarning anatomik tuzilishlariga, guruhlariga va qaysi jag'da joylashganligiga qarab omburlar turlicha bo'ladi (35-rasm).

Agar tishning toj qismi yemirilib ildiz qismi qolgan bo'lsa elevatorlardan foydalaniladi. Elevatorlar uch qismdan iborat: ishchi qismi, biriktiruvchi qismi va tutqichdan.


Tish olish vaqtida milklarni yirtilib ketishini oldini olish va ombur tishlarini milk tagiga surib kiritishni osonlashtirish uchun yumshoq to'qimalarni tish ildizidan ajratishdan boshlanadi. Buning uchun tish aylana bog'lamini ildizdan, milkni esa alveola suyagidan silliqlovchi (gladilka) asbobi yordamida ajratiladi.

Tish olish operatsiyasi, ma'lum tartibda, ketma-ket bajariladigan bosqichlardan iborat. Bular quyidagilar:



35-rasm. Ombur:

I – tishlari; 2 – qulf'i; 3 – tutqichlari.



a

b

36-rasm. *a* – yuqori jag‘ uchun omburlar; *b* – pastki jag‘ uchun omburlar.

1. Omburni qo‘yish;
2. Omburni milk ostiga surib kiritish;
3. Ombur yordamida siqib ushlash (fiksatsiya);
4. Tish ildizini o‘z joyida siljitish (lyuksatsiya, rotatsiya);
5. Tishni yoki tish ildizini sug‘urib olish (traksiya).


Lyuksatsiya tish ildizini orol yoki dahliz tomonga qaratib ketma-ket tebratma harakat qildirish yo‘li bilan, rotatsiya – tish ildizini o‘z o‘qi atrofida aylantirish yo‘li bilan siljitimdir.

Omburni qo‘yish. Ombur tutqichlari ochilib, tishning toj qismi ombur tishlari o‘qi bilan bir chiziqda mos keladigan holda joylanadi. Ombur tishga to‘g‘ri o‘rnatilgach, uning tishlari olinadigan tish o‘qi bo‘ylab yo‘naltirib, milk ostiga kiritiladi (37-rasm).

Olinadigan tishni ombur yordamida siqib ushlash (fiksatsiya).

Ombur yordamida tish shunday mahkam siqiladiki, tish va ombur bir butun yagona sistemani hosil qilishi kerak. Ammo siquvchi kuch o‘ta katta bo‘lmasligi lozim. Aks holda kariyes bilan yemirilgan tish par-chalanib ketishi mumkin. Kuchsiz siqilganda esa ombur siljib chiqib ketishi mumkin.

Tishni o‘rnidan siljitish. Tishni o‘z o‘rnida siljitish lyuksatsiya va rotatsiya harakatlari yordamida bajariladi. Bu bilan tish ildizi atrofidagi bog‘lamlardan uzish yo‘li bilan periodontning qarshiligi yen-giladi. Rotatsiya harakatini bir ildizli tishlarda qo‘llash mumkin. Bunda tishni o‘z o‘qi atrofida 15° – 20° ga burish kerak bo‘ladi. Ko‘p ildizli tishlarni mayatniksimon harakat bilan qo‘zg‘atiladi. Harakatning boshlanishi kuchsizroq bo‘lib, asta-sekin amplitudasi oshirib boriladi.



*37-rasm. Tishlarni olish vaqtida yuqori va pastki jag'larda
omburlarning joylashishi.*

Pastki jag' tishlarni o'rnidan siljitelganda birinchi harakat til tomonga qaratib bajariladi.

Tishni sug'urib olish. Tish o'z o'rnidan barcha bog'lamlardan uzib ozod qilingandan so'ng sug'urib chiqariladi. Tishni olish rotatsiya va traksiya harakatlari bilan amalga oshiriladi. Qaysi tishni olinishiga qarab shifokorning va bemorning holati har xil bo'ladi.

Tish ildizini olish. Ildizlarni maxsus omburlar va elevatorlar yordamida olinadi. Elevatorlarning bir necha xillari mavjud. Elevator yordamida ildiz olish richag prinsipiga asoslangan. Elevator yordamida tish olish uchun chap qo'lning ko'rsatkich barmog'i yordamida alveola o'sig'i ushlanadi, o'ng qo'ldagi elevatorning ishchi qismini olinadigan ildiz periodontal yorig'iga kiritiladi. Elevatori 0,4–0,6 sm kiritgandan so'ng richagsimon harakat yordamida ildiz surib chiqariladi. Molyar tishlar ildizlarini olishdan, avval, ildizlarni bir-biridan fissur bor yordamida ajratiladi. So'ng to'g'ri elevator yordamida ildizlar birin-ketin sug'uriladi.

Tish olingan yaraga ishlov berish. Olingan tish yoki ildiz to‘liq olinganligiga ishonch hosil qilish maqsadida to‘liq ko‘zdan kechiriladi. Olib tashlangan tish katagida taftish o‘tkaziladi. Taftishni, avval, alveola katagi devorida so‘ng tubida kichik yoki o‘rta jarrohlik qoshiq-chasi yordamida amalga oshiriladi. Bu yerda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan granulyatsion to‘qimalar, katak ichiga tushib qolgan suyak siniqlari, maydalaniq ketgan ildiz qoldiqlari izlanadi va olib tashlanadi. Yuqori molyarlarni olingandan so‘ng alveola katagini taftish qilish ehtiyyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak. Aks holda yuqori jag‘ bo‘shlig‘i (Gaymorov bo‘shlig‘i) tubida perforatsiyasi sodir bo‘lishi mumkin. Tish katagi atrofidagi yumshoq to‘qimalar holati tahlil qilinadi. Osilib qolib, qayta tiklanishga shubha bo‘lgan laxtaklar kesib olib tashlanadi. Katta yirtilgan yaralar bo‘lsa, ular chetiga ingichka ketgut chok qo‘yiladi. Natijada tish katagidagi ortiqcha qon ketishi to‘xtaydi.

Steril dokali tamponlar yordamida alveola katagi devorlarini bir-biriga yaqinlashtirish maqsadida bosiladi va tamponni 15–20 daqi-qaga tishlab turish tavsiya etiladi. Bemor 15–20 daqiqa o‘tirib turishi kerak bo‘ladi. Shifokor tamponlarni olib tashlab, qon ketmayotganligiga iqror bo‘lgandan so‘ng bemorga ruxsat beradi. Bemorga 2 soat ovqatlanmaslik, issiq yoki sovuq ovqatlarni iste’mol qilmaslik tavsiya etiladi. Olingan tishlarning o‘rni, asoratsiz bitganda, bu jarayon deyarli og‘riqsiz kechadi va 12–14 kun ichida tekis granulyatsiya bilan qoplanib, 1–4 oy ichida to‘liq bitadi.

TISH OLISH OPERATSIYASI ASORATLARI

Tish olish operatsiyasini amalga oshirish jarayonida umumiy va mahalliy asoratlar kuzatilishi mumkin. Umumiy asoratlarga qisqa muddatli hushdan ketish, kollaps va ayrim holatlarda shok holati paydo bo‘lishi mumkin. Mahalliy asoratlar yuzaga kelish davriga qarab tish olish operatsiyasi jarayoni vaqtida va operatsiyadan keyingi davrlarga bo‘linadi.

1. Qisqa muddatli hushdan ketish. Tish sug‘urishda eng ko‘p uchraydigan asorat bu bemordagi kuchli his-hayajon, qo‘rquv va

noturg‘un nerv tizimi sabab bo‘lishi mumkin. Hushdan ketish oldidan bemor holsizlanadi, rangi oqaradi, sovuq ter bosadi, ko‘ngli aynaydi, oyoq-qo‘lining so‘vqotishi kuzatiladi, qulog‘i shang‘illaydi va ko‘z oldi qorong‘ulashadi. Bu holda muolajani to‘xtatish, bemor boshini engashtirish yoki uni gorizontal holatga keltirib, erkin nafas olishni ta‘minlash kerak bo‘ladi. Bemorga novshadil spirtini hidlatish va yurak faoliyatini aktivlashtiruvchi tadbirlarni o‘tkazish lozim. Buning uchun teri ostiga 10% li kofein benzoat natriy yuboriladi. Agar tish olish operatsiyasi tugallanmagan bo‘lsa, operatsiya boshqa kunga qoldiriladi.

2. Kollaps. Kollaps – kishi hayotini xavf ostida qoldiradigan og‘ir holat. Kollapsda arterial va venoz qon bosimi keskin pasayadi. Mar-kaziy nerv sistemasi faoliyati susayadi, moddalar almashinuvi buziladi, qon tomirlari devorining tonusi to‘satdan susayadi. Kollaps ko‘p qon ketganda, jismoniy va emotsiyonal holsizlanishda, o‘tkir yuqumli kasalliklarda, zaharlanishlarda kuzatiladi. Kollapsda bemorning to‘satdan rangi oqarib, badani ko‘karadi, sovuq ter bosadi, nafasi yuzakilashadi, pulsi susayadi, sistolik arterial bosim pasayadi va 60–50 mm simob ustuniga teng bo‘ladi.

Bemorni kollaps holatidan chiqarish uchun bemorni gorizontal holatga keltiriladi, mushak orasiga 1 % kordiamindan 1 ml, 1 % li metazin 1 ml, teri ostiga 20 % kamfora eritmasidan 2 ml yuboriladi.

3. Asfeksiya holatining kelib chiqishi. Olingan tishni, tamponni qon laxtalarini nafas yo‘liga tushib qolishi asfeksiya holatini keltirib chiqaradi. Bemorda yo‘tal xuruji boshlanadi. Bemorni tezda rentgen tekshiruvidan o‘tkazib pulmanolog shifokor bilan birgalikda davo rejasи tuzilishi va yordam ko‘rsatilishi kerak bo‘ladi.

4. Alveolalar osig‘ining sinishi. Alveolalar o‘sig‘i yoki jag‘ning bir qismini olinayotgan tish bilan birga qo‘porib chiqish.

5. Pastki jag‘ning sinishi. Kam uchraydigan asorat. Bunday asorat jag‘da patologik jarayon kechayotgan bo‘lsa sodir bo‘ladi (o‘smalar, osteomilit, tuberkulyoz, sifilis). Jag‘ sinishi agar tish olish operatsiyasi uslubi buzilib, qo‘pol harakat qilinsa ham sodir bo‘lishi mumkin.

6. Pastki jag‘ning chiqishi. Og‘iz o‘ta katta ochilsa va unga vertikal bosim bilan ta‘sir ko‘rsatilsa, sodir bo‘lishi mumkin. Shunday

asorat sodir bo'lmasligi uchun chap qo'l barmoqlari yordamida pastki jag' mahkam ushlab turiladi.

7. Tish ildizlarini atrofi yumshoq to'qimalarga surib chiqarish.

Tish ildizlarini olish texnikasini qo'pol ravishda buzilishi, elevatordan noto'g'ri foydalanish va noto'g'ri kuch ishlatishi oqibatida kelib chiqadi.

8. Qon ketish sabablari mahalliy va umumiy bo'lishi mumkin. Mahalliy sabablar tish olish vaqtida alevola o'sig'ini, yumshoq to'qimalarni kuchli jarohatlash, granulatsiya to'qimasining qolib ketishi. Umumiy sabablarga qon ivishi jarayonining buzilishi bilan kechuvchi qon kasalliklari yoki qon tomir tuzilishini buzilishi bilan kechuvchi kasalliklar kiradi.

Qon ketayotgan joyni aniqlash maqsadida og'riqsizlantirish usulini o'tkazgandan so'ng tish katagi va atrof to'qimalarda taftish o'tkaziladi va qon laxtalaridan tozalanadi. Qon ketish sabablari aniqlanib to'xtatiladi. Ko'pincha qon ketish tish katagi yodoforomli tampon qo'yish yordamida to'xtatiladi.

9. Olingan tish operatsiyasidan keyingi og'rishi. Odatta olingan tish o'rni, og'riqsizlantirish ta'siri o'tgandan so'ng ozroq og'riydi va og'riq bir necha soatdan so'ng yo'qoladi. Lekin ayrim hollarda oradan 1-3 kun o'tgandan so'ng og'riq paydo bo'ladi. Bu og'riqning sababi alveola katagiga yot jinsning (tish siniqlari, plomba bo'laklari va boshqalar) tushib qolishi yoki tish olish paytida tish katagi devorlarini o'ta kuchli bosimli shikastlantirish sabab bo'ladi. Bunda alveola katagining yallig'lanishi kuzatilmaydi.

10. Alveolit kasalligi. Bu kasallik olingan tish katagi devorlarini, infeksiya tushishi va travma oqibatida to'qimalarni reaktivligini pasayishi natijasida hosil bo'ladigan yallig'lanishdir. Uning sabablari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: tish olish paytida alveola katagi devorlarini va kataklararo to'siqni o'ta maydalanib ketishi, milk va shilliq qavatlarni operatsiya paytida ezilib, yirtilib ketishi natijasida alveola suyagini ochilib qolishi, tish olingandan so'ng ildizlararo yoki tishlararo suyak to'siqlarini katakni o'tkir qirrali devorlarini ortiqcha joylari olib tashlanmaganligi va tekislanmaganligi, elevator va kachalar bilan alveola suyagiga kuchli jarohat yetkazilganligi, tish olish

operatsiyasini uzoq va travmali kechganligi, olingan tish katagida infeksiyani bo'lishi (o'tkir yoki xuruj qilgan periodontit, asoratlangan parodontit va boshqalar), kechirilgan somatik kasalliklar oqibatida organizmning umumiy reaktivligi pasayganligi.

Olingan tish o'rniда doimiy kuchli og'riq paydo bo'ladi. Og'riqlar ba'zan qulooqqa, chakkaga, ko'zga, jag' osti va iyak osti sohalariga uzatiladi. Bemorning umumiy holati yomonlashadi, holsizlanadi hamda tana harorat 37,3–37,8°C gacha ko'tariladi. Og'riqning kuchliligidan bemorni ovqatlanishi o'ta qiyinlashadi, uyqusi buziladi. Bemor og'zidan qo'lansa hid keladi.

Olingan tish katagi qizaradi biroz shishadi, odatda ivigan qon bo'l maydi, uning devorlari kulrang karash bilan qoplanadi. Atrofidagi shilliq parda qizargan, shishgan, palpatsiya og'riqli. Yaqin joylashgan limfa tugunlari kattalashgan, shu sohada yuzning yumshoq to'qimalari shishgan bo'lishi mumkin.

Davolash. Bemorda mahalliy og'riqsizlantirish o'tkazilgach, quydagi ikki usuldan birini qo'llab davolanadi.

1. Tish katagi antiseptiklarning iliq eritmasi bilan bosim ostida (shpris va uchi o'tmaslashtirilgan ignadan foydalanib) yuviladi.

2. Buning uchun 3% li vodorod peroksidi, 1:5000 nisbatdagi furtillin, 1:1000 nisbatdagi permonganat kaliy, xlorgeksidin eritmalari ishlatiladi. Katakdagi karash, ovqat qoldiqlari va so'lak yuvib chiqariladi. So'ng o'tkir jarrohlik kichkina qoshig'i hamda qirg'ichlar yordamida katakdagi qon laxtagining qoldiqlari, suyak va tish bo'laklari, granulyatsion to'qimalar ehtiyyotlik bilan olib tashlanadi.

Tayanch iboralar:

Tish olish – tish ildizini alveola katagi devori va milk cheti bilan biriktirib turuvchi bog'lamlarni kuch ishlatish yo'li bilan o'z o'rnidan sug'urib olishga aytildi;

Ombur – tish tojini yoki ildizini tishlab ushlab oluvchi qulf va tutqichlardan tashkil topgan, tish olishda foydalaniladigan asbob;

Elevator – tish ildizini olishda foydalaniladigan asbob;

Fiksatsiya – ombur yordamida tishni siqib ushslash;

Lyuksatsiya, rotatsiya – tish ildizini o'z joyida siljitish;

Traksiya – tishni yoki tish ildizini sug'urib olish;

Asfeksiya – nafas yo‘lining to‘silib qolishi oqibatida nafas ololmaslik;

Alveolit kasalligi – olingan tish katagi devorlarini, infeksiya tushishi va jarohat oqibatida to‘qimalarni reaktivligining pasayishi natijasida hosil bo‘ladigan yallig‘lanish.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Tish olish operatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Tish olishda qanday ko‘rsatmalar bor?
3. Tishni qanday asboblar yordamida olinadi?
4. Tish olish operatsiyasi nechta bosqichdan iborat?
5. Tish olishning fiksatsiya bosqichida qanday ish amalga oshiriladi?
6. Tish ildizini o‘z joyida siljитish bosqichi qanday nomlanadi?
7. Tish olish operatsiyasida qanday asoratlар kuzatilishi mumkin?
8. Tish olish operatsiyasi jarayonida qanaday qilib asfeksiya holati sodir bo‘lishi mumkin?
9. Alveolit qanday klinik ko‘rinishga ega?
10. Tish oldirgan bemorlarga qanday tavsiyalar beriladi?

XIII BOB YUZ-JAG‘ JAROHATLARI

Sinish deb suyak butunligining kuch ta’siri ostida qisman yoki to‘liq buzilishiga aytildi. To‘liq sinishda suyak bo‘laklari to‘liq ajraladi. To‘liq bo‘lmagan sinishlarda darz ketadi yoki yuzasi sinadi. Sinish chizig‘iga ko‘ra ko‘ndalang, qiyshiq va bo‘ylama bo‘ladi. Siniqlar soniga ko‘ra qo‘shaloq, ko‘p sonly, parchasimon bo‘ladi. Bunda tashqari ochiq va yopiq sinishlar kuzatiladi. Ochiq sinishlar to‘qimalarning uzilishi, og‘iz shilliq qavatining yirtilishi bilan o‘tadigan sinishlardir. Yopiq sinishlarda suyakning shikastlangan qismi yumshoq to‘qimalar bilan yopilgan holatda bo‘ladi. Sinish yuz berish mexanizimiga ko‘ra to‘g‘ridan-to‘g‘ri sinishlar va bilvosita sinishlarga bo‘linadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri sinishlar zarba tushgan joyda sodir bo‘ladi, bilvosita sinishlar esa zarba tushgan joyga qarama-qarshi tomonda, suyakning yupqa yoki egilgan qismida ro‘y beradi. Sinishda suyak usti pardasining butunligi buziladi, atrofdagi yumshoq to‘qimalar, qon tomirlar va nerv tolalar shikastlanadi. Bu o‘zgarishlar chaynash, yutish, so‘zlashish va nafas olish funksiyalarining buzilishiga olib keladi. To‘liq sinishlarda sinishga sabab bo‘lgan kuch ta’sirida, muskularning tortilishi va suyak siniq bo‘laklarining o‘z og‘irligi ta’sirida suyak bo‘laklari siljiydi.


PASTKI JAG‘ JAROHATLARI VA SINISHLARI

Pastki jag‘ sinishlari yuz skeleti suyaklari sinishlariga nisbatan ko‘p sodir bo‘ladi.

Agar, pastki jag‘ o‘rta chiziq bo‘ylab iyak sohasida sinsa siniq bo‘laklari siljishi minimal bo‘ladi yoki siljimaydi. Chaynov muskularning tortishish kuchi oqibatida suyak bo‘laklari orasida kichik yoriq paydo bo‘lishi mumkin. Agar, pastki jag‘ qoziq tish sohasida sinsa, siljish kuzatiladi. Chaynov muskullarining qisqarishi natijasida kichik suyak bo‘lagi yuqoriga ko‘tariladi, katta suyak bo‘lagi pastga suriladi.

Qoziq tishlar sohasidagi ikki tomonlama sinishda o'rtadagi siniq bo'lagi orqaga va pastga siljiydi bu esa tilni orqaga ketib qolib asfeksiyani keltirib chiqishiga sabab bo'ladi. Pastki jag' burchagi sohasidagi sinishlarda sinish chizig'i muskullar yopishgan joy burchagining o'rta-sidan o'tadi. Bunda agar muskullarning tortishish kuchi ikkala siniq bo'lagiga bir hil taqsimlansa siljish sodir bo'lmaydi yoki biroz siljiydi. Pastki jag' bo'g'im o'sig'ning sinishlari aksariyat hollarda ikki tomonlama bo'ladi. Siljish sodir bo'lib ochiq prikus hosil bo'ladi (38-rasm).

Pastki jag' tish qatorlari sohasining sinishlarida suyak bo'laklari siljishidan tashqari prikusning o'zgarishi, og'iz bo'shlig'i shilliq pardasining butunligi buziladi. Jag' oldi to'qimalarining jarohatli zararlanishi, yallig'lanish jarayonining boshlanishiga, bu esa jag' harakatini chegaralanishiga olib keladi. Pastki jag' singan bemorlarning og'zi yarim ochiq bo'lib, qonli so'lak ajralib turadi. Pastki jag'ning majburiy holatda bo'lishi og'iz yopilganda hosil bo'ladigan keskin og'riq bilan bog'liq. Ko'pincha iyak va pastki labning sezuvchanligi va tishlarning elektr sezuvchanligi pasayadi.



38-rasm. Pastki jag' sinishlari.

YUQORI JAG‘ JAROHATLARI VA SINISHLARI

Yuqori jag‘ suyagining kalla skeleti suyaklari bilan mustahkam choklar hosil qilib birikkanligi uchun ko‘pincha sinish vaqtida boshqa suyaklar sinishi ham kuzatiladi. Katta asosiy suyak sinishi ham sodir bo‘lishi mumkin.

Yuqori jag‘ning bir necha zaif joylari mavjud bo‘lib, sinishlar shu sohada yuz beradi.


1900-yilda Le-For tomonidan yuqori jag‘ sinishlari ta’rifi bayon etilgan.

Le-For bo‘yicha 1-tip. Bu tipda sinish chizig‘i noksimon teshik asosi bo‘ylab yuqori jag‘ do‘ngchalari tomon yo‘nalishda asosiy suyakning qanotsimon o‘simalari uchiga gorizontal yo‘naladi. U alveolyar o‘sinq asosidan oz-moz yuqoriroqdan, qattiq tanglay gumbazi ustidan o‘tadi, yuqori jag‘ bo‘shlig‘ini kesib o‘tib, bo‘shliqning tubi sinib tushadi. Burun to‘sig‘i sinishi ham qayd qilinadi. Agar to‘liq sinish yuz bergen bo‘lsa, sinish butunligicha pastga siljiydi, noto‘liq sinishda uning qimirlab qolishi qayd qilinadi.

Le-For bo‘yicha 2-tip. Sinishning bu turida yuqori jag‘ yonoq suyagi va bosh suyagi asosidan boshlab burun suyaklari bilan birga uzilib tushadi. Sinish chizig‘i ko‘z kosasining ichki devorini kesib o‘tadi, orbita tubi bo‘ylab pastki orbital qirg‘oq orqali yonoq suyagi bilan birikish sohasida o‘tadi. Sinishning orqa ichki chizig‘i burun to‘sig‘i va qanotsimon o‘simalalar asosi orqali o‘tadi. Bu tip sinishda g‘alvirsimon suyak va bosh suyagi asosining sinishi qo‘shilib kelishi mumkin.

Le-For bo‘yicha 3-tip. Sinish chizig‘i ko‘z kosasining ichki devoridan uning tashqi devoriga o‘tadi, ko‘z kosasining tashqi orbital chetini va yonoq ravog‘ini kesib o‘tadi. Yuqori jag‘ning burun o‘sig‘i va yonoq suyagi bilan uzilib tushishi ro‘y beradi. Ko‘pincha bosh suyagining asosidagi suyaklarining sinishi ham kuzatiladi. Yuqori jag‘ sinishida siniqning siljishi, siniq chizig‘i bo‘ylab og‘riq, ko‘z kosasi sohasiga qon quyilganligi (ko‘zoynak simptom) kuzatiladi (39-rasm).

Le-For hamma sinish variantlarini aks ettirmaydi. Yuqori jag‘ sinishida bemor bosh og‘rig‘i, jag‘larini jipslashtira olmasligi, qirsillash sezgisi paydo bo‘layotganidan shikoyat qiladi. Ko‘rik o‘tkazilganda yuzning o‘rta qismidagi shishi ayrim hollarda ko‘z kosasining ichki



*39-rasm. Le-For bo'yicha yuqori jag' sinishlari:
a – 1-tip; b – 2-tip; d – 3-tip.*

burchagining qontalashgan holatda bo'lishi kuzatiladi. Burun suyagi sinishi bilan kechganida burun deformatsiyaga uchraydi.

Og'iz bo'shlig'ini ko'rikdan o'tkazilganda prikusning o'zgarganligi, suyak bo'laklarining orqaga siljishi oqibatida ochiq prikus hosil bo'lishi mumkin.

YUZ-JAG' SOHASI JAROHATLARI VA SINISHLARIDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM


Yuz-jag' sohasi jarohatlarida, avvalombor qon ketishini, asfeksiya va shokni bartaraf etish zarur. Yuz-jag' sohasi jarohatida bemorning ahvoli singan suyak bo'laklarining siljishidan og'irlashishi mumkin. Birinchi yordam quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi kerak: qon oqishini to'xtatish, asfiksiyanı oldini olish, shokka qarshi kurash va jag'larni immobilizatsiya qilinishi.

Qon oqishini to'xtatish. Yuz-jag' sohasi qon tomirlar bilan juda yahshi ta'minlanganligi uchun jarohatlanishlarda ko'p miqdorda qon yo'qotish mumkin. Yuz sohasidagi qon ketishni tampon yoki bosib turadigan bog'lam bilan to'xtatish mumkin. Ammo yumshoq tanglay va og'iz tubi jarohatlarida bu usullar bilan qon to'xtatish har doim ham samara bermaydi. Bunda tampanada qilinadi va tamponni barmoq bilan bosib malakali yordam ko'rsatilgunga qadar ushlab turiladi. Tashqi uyqu arteriyasidan qon oqayotganida umumiy uyqu arteriyasini

VI bo‘yin umurtqasining ko‘ndalang o‘sintasiga barmoqni bosib turish yo‘li bilan qon to‘xtatiladi. Yuqori jag‘ bo‘shlig‘idan burun bo‘shlig‘iga qon oqganida qatlamma qatlam zich tamponlanadi. Suyak bo‘laklarining mahkamlanishi ham qon to‘xtatishda muhim o‘rin tutadi.

Asfeksiyani oldini olish. Yuz-jag‘ sohasi jarohatlarida eng og‘ir asoratlardan biri asfeksiya hisoblanadi. Asfeksiya quyidagi turlarga bo‘linadi: dislakatsion, obturatsion, stenotik, klapan va aspiratsion. Dislakatsion asfeksiya tilning orqaga ketib qolishi oqibatida hosil bo‘ladi. Obturatsion asfeksiya halqumning yot jinslar bilan berkilib qolganda yuzaga keladi. Stenotik asfeksiya nafas yo‘llari gematomasi, shishishi natijasida hosil bo‘ladi. Klapan asfeksiya nafas yollarini yumshoq tanglay to‘qimalari bilan yopilishi, aspiratsion asfeksiya esa hushsiz bemorning nafas yo‘llari qon, so‘lak, qusuq massalari bilan berkilib qolishi oqibatida yuzaga keladi. Bunday hollarda shoshilinch yordam ko‘rsatish zarur bo‘ladi. Bunda og‘iz bo‘shlig‘ini qon laxtalari, yot jisimlaridan tozalanadi, til orqaga ketib qolgan taqdirda dokali sochiq va barmoqlar bilan tilni ushlab turiladi, agar bemor behush bo‘lsa tilini to‘g‘nog‘ich bilan bemorning kiyimlariga mahkamlanadi. Hiqildoq shishi ortib borsa traxeotomiya qilinadi. Bemorni yuz tuban qilib yotqiziladi (40-rasm).

Shikastlanish shoki. Yuz-jag‘ sohasi to‘qimalarida juda ko‘p nerv oxirlari joylashganligi uchun kichik jarohat ham shikastlanish shokini keltirib chiqarishi mumkin. Yuz-jag‘ sohasi jarohatlarida birinchi yor-




40-rasm. Jarohatlangan bemorni yuz tuban qilib yotqizilishi.

dam ko'rsatishda og'riq sezgisini bartaraf etish, nafas olishni va yurak faoliyatini tiklashdan iborat bo'ladi.

Suyak siniqlarini transportda immobilizatsiya qilish. Yuz-jag' sohasi jarohatlarida suyak bo'laklarini albatta immobilizatsiya qilish shart. Immobilizatsiya suyak sinishlari asoratlarini oldini oladi. Singan suyak bo'laklarining o'tkir qirralari natijasida qon tomirlarini jarohatlashini va qon ketishni bartaraf qilinadi hamda og'riq sezgisini kamaytiradi va dislakatsion asfeksiya yuz bermasligini ta'minlaydi. Vaqtinchalik immobilizatsiyaning eng oddiysi iyak sopqoni bog'lamini qo'yish hisoblanadi. Agar bint bo'lmasa matoni uchburchak shakliga keltiriladi va bemor iyak ostidan o'tkazib boshining tepe qismiga bog'lab qo'yiladi. Bu bog'lamni ham yuqori ham pastki jag' sinishlari da qo'llash mumkin.

Birinchi malakali tibbiy yordam ko'rsatilguncha standart bog'lamlar yordamida jag'lar immobilizatsiya qilinishi kerak. Standart bog'-lamlar bir tomonda rezina bog'ichlari bo'lgan boshga kiyiladigan himoya qalpoq va qattiq iyak sopqonidan iborat. Qalpoqni boshga zinchilib mahkamlanadi, iyak sopqoniga individual bog'lov paketi qo'yiladi va bog'ichlar yordamida boshga kiyiladigan qalpoqqa mahkamlanadi (41-rasm).

Yuqori jag'dagi sinishlar ham og'izdan tashqarida turadigan richagliari bo'lgan plastinka shina yordamida davolanadi. Bu richaglar rezina



41-rasm. a – A.A.Limbergning iyak sopqonli standart bog'lam; b – Yuqori jag' sinishlarini oddiy usulda fiksatsiya qilish.

tortqichlar yordamida boshdagi bog'lovga mahkamlab qo'yiladi. Bu shinadan singan yuqori va pastki jag'larni bir vaqtida davolash uchun ham foydalanish mumkin. Bunday hollarda mazkur shinaga yuqoriga qarab to'g'ri burchak ostida qayirib qo'yilgan changaksimon halqa-chalar yopishtirib qo'yiladi va ular rezina halqalar o'rnatish hamda pastki jag'siniqlarini tortib qo'yish uchun xizmat qiladi.

JAG' SINISHLARINI DAVOLASH USULLARI

Jag' sinishlarini davolashning maqsadi qisqa muddat ichida singan bo'laklarning bitishi, prikusning to'liq tiklanishi. Buning uchun quyi-dagi tadbirdilar amalga oshiriladi.

1. Suyak bo'laklarining bimanual repozitsiyasi.
2. Suyak bo'laklarini qattiq va stabil mahkamlash.
3. Suyak singan sohada regeneratsiya uchun sharoit yaratish.
4. Davolashni kechiktiruvchi ikkilamchi yallig'lanish jarayonlarini profilaktika qilish.

SUYAK BO'LAKLARI REPOZITSIYASI

Repozitsiya bu singan suyak bo'laklarini joyiga to'g'iralshdir. Suyak bo'laklari repozitsiyasini bir momentli yoki bosqichma-bosqich amalga oshirish mumkin. Mahalliy infiltratsiyali va o'tkazuvchi og'-riqsizlantirish usuli yordamida bir momentli qonsiz repozitsiyani amalga oshiriladi. Doimo suyak bo'laklarini maksimal repozitsya qilishga intilish zarur. Agar bir momentli qonsiz repozitsiya samara bermasa, bosqichma-bosqich repozitsiya qilinadi. Bu bosqichda repozitsiya jag'-lararo va mahsus apparatlar yordamida amalga oshiriladi. Agar bosqichma-bosqich repozitsiya samarasiz bo'lsa jarrohlik yo'li bilan erishiladi.

PASTKI JAG'NING SILJISHINI IMMOBILIZATSIYA QILISH

Davolash suyak butunligini va funksiyasini tiklashga qaratilgan bo'ladi. Buning uchun suyak bo'laklarini repozitsiya va immobilizi-


zatsiya qilinadi. Ushbu muolajalarни o'tkazish uchun mahalliy og'riq-sizlantirish o'tkaziladi, so'ng suyak bo'laklari repozitsiya qilinadi. Agar og'iz bo'shilig'ida saqlanib qolgan tishlar ko'p bo'lsa, ligaturali bog'lamlardan foydalaniladi. Bular, Ayvi, Vilga, Geykin bog'lamlari (42-rasm).

Bundan tashqari alyuminiy simi yordamida S.S.Tigershted shinasi qo'yiladi. Bemor shinani 25–30 kun davomida taqib yuradi.

Pastki jag'ning chiqishi og'iz haddan tashqari katta ochilganda: esnaganda, tish oldirilganda, me'daga zond yuborilganda, og'izni og'iz kengaytirgich bilan ochishda, pastki jag' tanasiga zarb tekkanda va shu kabilarda yuz beradi.

Eng keng tarqalgan chiqishlardan biri oldinga chiqish, bunda bo'-g'im boshchasi bo'g'im do'mbog'idan sirpanib o'tib, uning oldida turib qoladi, bu holat bo'gim yon boylamlarining tarangligi va chaynov muskullarining reflektor qisqarishi natijasida ushlanib turadi.

Jag'larni kuch bilan joyiga solishda bo'g'im boshchasini bo'g'im do'mbog'idan orqaga surishdan iborat. Bemor stul yoki kresloga o'tkaziladi. Yordam beruvchi bosh barmoqlarini sochiq bilan o'rab, pastki jag'dagi katta oziq tishlarning chaynov yuzasiga, bunday tishlar bo'l-



42-rasm. Suyak bo'laklarini ligature simlar bilan bog'lab mahkamlash:
a – yuqori va pastki jag'larni mahkamlash; b – Ayvi bo'yicha simli bog'lamlar qo'yish.

masa – alveolyar o’siqqa qo‘yadi. Qolgan barmoqlar bilan pastki jag‘ tanasini tashqi tomondan ushlanadi. Shifokor biomonual bosimni asta orttirib pastki jag‘ bo‘g‘im boshchasini pastga siljitadi so‘ng bir turtki bilan orqaga, bo‘g‘im chuqurchasiga tushiradi. Bemor pastki jag‘ini 10–15 kun iyak sopqoni bilan fiksatsiya qilinadi.

Jag‘ning orqaga chiqishi juda kam uchraydi. Unga ko‘pincha iyakka qattiq zARB tushishi sabab bo‘lishi mumkin. Bunday chiqishda be-morning og‘zi yumilgan, pastki jag‘ esa orqaga surilgan. Bunday chiqishni joyiga solishda pastki jag‘ni oldinga va ayni vaqtida pastga tortiladi.

YUZ-JAG‘ SOHASI SHIKASTLANGAN BEMORLARNI PARVARISH QILISH


Yuz-jag‘ sohasi yaralanishlarining xususiyatlari orasida emotsi-onal – ruhiy momentlar muayyan ahamiyatga ega. Depressiv holatlar ko‘pincha yaralanishning og‘ir yengilligiga emas, balki yuz qiyofasi-ning xunuklashish darajasiga bog‘liq bo‘ladi, chunki nisbatan yengil yaralanish hollarida ham yuzning xunuklashib qolishi qayd qilinadi.

Yaralanishlar aksariyat hollarda chaynash, yutish aktining buzili-shi, nutqning o‘zgarib qolishi bilan o‘tishi mumkinligi sababli bemorlar o‘z jismoniy nuqsonlaridan iztirobga tushadilar.

Yuz-jag‘ sohasidagi shikastlanishlarda bemorni, ayniqsa birinchi hafta mobaynida o‘rinda qaddini baland vaziyatda yotqizish kerak. Bunday noilojlik holati qon oqish xavfini, qon, shilimshiq, yiring, ovqat qoldiqlaridan aspiratsiya yuz berish imkoniyatini kamaytiradi. Noilojlik holati va og‘ir bemorlarni vaqt bilan u yonboshidan bu yonboshiga yotqizish o‘pkadagi dimlanish hodisalarini va o‘pkada yal-lig‘lanish asoratlari yuz berish xavfini bartaraf etadi. So‘lak oqishi-ni kamaytirish uchun kuniga 3 marta 5–6 tomchidan belladonna nastoykasi, 0,5–1 gr atropinning 1% li eritmasi teri ostiga yuboriladi. Agar, jarohat atrofidagi terida doimo namlanib turish ta’sirida bichilish paydo bo‘lsa, bu sohalarga rux mazi yoki 2% li metilen ko‘ki eritmasi surtiladi, shundan so‘ng ustidan yupqa vazelin qavati qoplanadi.

OG‘IZ BO‘SHLIG‘INI PARVARISH QILISH

Yuz-jag‘sohasidagi yaralanishlarda chaynash akti buzilishi oqibatida og‘iz bo‘shlig‘ining o‘z-o‘zini tozalashi ro‘y bermaydi. Odatdagи parvarish qilishning esa (tishlarni tish cho‘tkasi va pasta bilan yuvish) iloji bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra og‘iz bo‘shlig‘ida ovqat qoldiqlari, jarohat ekssudati va boshqalar yig‘ilib qoladi. Ularni tozalash uchun og‘iz bo‘shlig‘ini muntazam yuvib turish (Esmarx krujkasidan va boshqa moslamalardan) kerak bo‘ladi (43-rasm).



43-rasm. Og‘iz boshlig‘ini yuvish.

Og‘iz bo‘shlig‘ini yuvishdan maqsad ovqat qoldiqlarini mexanik tozalashgina emas, balki yoqimsiz hidni bartaraf etish hamdir. Buning uchun odatda ma’lum darajada hid yo‘qotuvchi xossalari bo‘lgan pushti rangli kaliy permanganat eritmasi qo‘llaniladi. Zarurat bo‘lganda oqimni uzib qo‘yish uchun rezina nay va mahsus zajim kiygiziladi.

SHINALARNI KUZATIB BORISH

Og‘iz bo‘shlig‘ini muntazam yuvib turishga qaramay, ovqat qoldiqlari va halok bo‘lgan to‘qima elementlarining bir qismi qo‘yilgan shinalarda qoladi, ligatura bilan rezina halqalar orasida shuningdek tishlararo oraliqlarda tiqilib qoladi. Shuning uchun og‘iz bo‘shlig‘ini mexanik tozalash ham kerak bo‘ladi. Bemorning og‘iz bo‘shlig‘idagi qolgan ovqat bo‘lakchalarini pinset yordamida olib tashlanadi. So‘ngra vodorod peroksid eritmasida ho‘llangan paxta tampon bilan tishlar, tishlar aro oraliqlar, shinalar, ligatura va rezina halqalar qunt bilan artiladi,

shundan so‘ng og‘iz bo‘shlig‘i qayta irrigatsiya qilinadi. So‘ngra shinalar to‘g‘ri turganligi, bo‘shashib ketmaganligi, rezina ipining bo‘shashib ketmaganligi va shu kabilarni ko‘zdan kechirish zarur bo‘ladi.

Tayanch iboralar:

Jag‘ sinish – jag‘ suyak butunligining kuch ta’siri ostida qisman yoki to‘liq buzilishi;

To‘liq sinish – suyak bo‘laklari to‘liq ajralishi bilan kuzatiladigan sinish turi;

To‘liq bo‘Imagan sinish – darz ketishi yoki suyak yuzasining si-nishi;

Le-For – yuqori jag‘ sinishlarini ta’riflagan jarroh;

Dislakatsion asfeksiya – tilning orqaga ketib qolishi oqibatida hosil bo‘lgan asfeksiya;

Obturatsion asfeksiya – halqumning yot jinslar bilan berkilib qolishi oqibatida yuzaga keladigan asfeksiya;

Stenotik asfeksiya – nafas yo‘llari gematomasi, shishishi natijasida hosil bo‘ladigan asfeksiya;

Klapan asfeksiya – nafas yollarini yumshoq tanglay to‘qimalari bilan yopilishi oqibatida hosil bo‘ladigan asfeksiya;

Aspiratsion asfeksiya – hushsiz bemorning nafas yo‘llari qon, so‘lak, qusuq massalari bilan berkilib qolishi oqibatida yuzaga keladigan asfeksiya;

Repozitsiya – singan suyak bo‘laklarini joylash;

Immobilizatsiya – suyak bo‘laklarini mahkamlash.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Jag‘ sinishi deb nimaga aytildi?
2. Pastki jag‘ sinishining nechta turi bor?
3. Nima uchun singan suyak bo‘laklari siljiydi?
4. Yuqori jag‘ sinishining nechta turi farqlanadi?
5. Yuqori jag‘ sinishlarini kim ta’riflagan?
6. Sinishlarda birinchi yordam qanday tartibda amalga oshiriladi?
7. Asfeksiya deganda nimani tushunasiz?
8. Asfeksiyaning qanday turlarini bilasiz?
9. Nima uchun jag‘lar sinishida immobilizatsiya qilish shart?
10. Repozitsiya deganda nimani tushunasiz?

XIV BOB **YUZ-JAG‘ SOHASI O‘SMA KASALLIKLARI**

Turli sabablar oqibatida to‘qimalarning patologik ko‘payishi natijasida o‘smalar hosil bo‘ladi. O‘smalarda hujayralarning beto‘htov ko‘payishi kuzatiladi. O‘sma o‘zini tashkil qilgan asl to‘qimaga o‘hshash bo‘lsa ham sog‘lom a’zo yoki to‘qimaning tuzilishidan keskin farq qiladi.

Yuz-jag‘ sohasi o‘smalari epiteliy, mezinxema, melanin hosil qiluvchi va nerv to‘qimalardan rivojlanadi. O‘smalarning xavfsiz va xavfli turlari bor. Xavfsiz o‘smalar sekin rivojlanib, chegarasi aniq bo‘lgan tarzda o‘sadi, odatda metastoz (o‘sma hujayralarining limfa, qon tomirlar orqali tarqalishi) qaytalanmaydi. Bemorda umumiy holsizlikka sabab bo‘lmaydi, ya’ni kaxeksiyani olib kelmaydi. Xavfsiz o‘smalar faqat to‘qima atrofida kuzatiladi va to‘qimalarning yemirilishi natijasida parchalanmaydi.

Xafli o‘smalar yoshi yetilmagan to‘qimadan rivojlanadi, tez o‘sadi, qo‘shni to‘qimalarga o‘sib kiradi, metastazlanadi. Xafli o‘smalarda organizmni holdan toyishi-kaxeksiya kuzatiladi. Xafli o‘smalar to‘qimalarning yemirilishi natijasida parchalanadi.

YUZ-JAG‘ SOHASI XAVFSIZ O‘SMALARI

Yuz-jag‘ sohasining xavfsiz o‘smalari 4 guruhga bo‘linadi: kistalar, odontogen o‘smalar, yumshoq to‘qimalarning xavfsiz o‘smalari va jag‘-larning suyak o‘smalari.

ODONTOGEN KISTALAR

Odontogen kistalar ikki hil bo‘ladi: ildiz oldi (radikulyar) va toj qismi (follikulyar). Ildiz oldi kistalari ko‘proq uchraydi. Kistalar epiteliy qavati bilan o‘rangan bo‘shliq bo‘lib, ushbu bo‘shliqni sariq

yoki jigarringga ega bo'lgan suyuqlik bilan (transudat) to'lib turadi. Suyuqlikda xolesterin kristallari bor. Ildiz oldi kistasi sekin bir necha yil davomida rivojlanadi va 2–5 sm kattaligida bo'ladi. Alveola o'sig'i va jag' tanasi kattalashadi. Suyak to'qimasining yupqalanib qolishi natijasida kripitatsiya paydo bo'ladi. Keyinchalik tuyak to'qimasini nuqsoni kuzatiladi. Kista ta'sirida tishlar o'z o'qlarini o'zgartiradilar. Kistani aniqlashda rentgenografiya va elektrodontometriyadan foy-dalaniladi. Rentgenogramma yordamida kistaning hajmi, joylashishi, burun bo'shlig'i, yuqori jag' bo'shlig'i bilan, tishlar bilan munosabati aniqlanadi. Follikulyar kista chiqmagan tishning emalidan rivojlanadi. Ko'pincha pastki va yuqori jag'dagi 2-premolyar 3-molyar, qoziq tish-larga bog'liq bo'ladi. Kista jag'ning alveolyar qirrasida joylashadi. Uning devori yupqa va ko'p qavatli yassi hujayra bilan qoplanadi. Kista bo'shlig'ida bir yoki bir necha, yetilgan yoki chala tishlar bo'ladi.

SO'LAK BEZI KISTALARI

Kichik so'lak bezlarining retensiyalangan kistalari

Lab yoki lunjlarni tishlash natijasida, so'lak ajralish qiyinlashishi oqibatida kelib chiqadi. Kista sharsimon shaklda bo'lib qattiq elastik bo'ladi. Kista kapsulasi butunligi buzilganda ichidan sarg'imtir suyuqlik ajraladi. Davolash jarrohlik yo'li bilan amalga oshirilib kista kapsulasi bilan birligida olib tashlanadi va chok qo'yiladi.

Til osti so'lak bezining retensiyalangan kistasi (ranula)

Til yuganchasi yonida, og'iz bo'shlig'i shilliq pardasi ostida joylashadi. Kista yumaloq, ko'kimdir pushti rangda bo'lib palpatsiyada elastik konsistensiyaga egaligi aniqlanadi. Kista kattalashib tilni tanglayga ko'tarib qo'yishi mumkin. Ayrim hollarda kista jag' til osti mushagi ostida joylashishi mumkin. Kista o'lchamlarini aniqlash uchun kontrast sistorontgenografiya tekshiruvni o'tkaziladi. Til osti so'lak bezi kistasini lipoma, kavernoz gemangioma va limfangioma bilan solishtirma tashxis o'tkaziladi.

ODONTOGEN O'SMALAR VA O'SMASIMON O'ZGARISHLAR

Ameloblastoma (adamantinoma). Ameloblastoma odontogen epi-teliydan rivojlanadigan xavfsiz o'sma bo'lib, ammo atrofidagi to'qimalarini yemirish xususiyatiga ega. Ko'pincha pastki jag'ning molyar tishlar sohasida joylashadi. O'sma juda sekin va uzoq vaqt belgi bermasdan o'sadi. Keyinchalik yuz va suyaklarning shakli buziladi. Tashxisni aniqlashda rentgenografiya muhim o'rinn tutadi. Rentgenografiyada suyakda bir yoki ko'p bo'shliqlar paydo bo'lib, bo'shliqlar yupqa suyak plastinkasi bilan ajralgan. Ameloblastomani odontogen kista, osteoblastoklastoma, xavfli o'smalar bilan taqqoslash zarur.

Odontoma tishlar rivojlanishining buzilishi natijasida kelib chiqib, tish to'qimalarining hammasi mavjud va yetarli, yaxshi shakllangan, ammo ularning nisbati, umumiy tuzilishi noto'g'ri. O'sma odatda pre-molyar va molyar qismida paydo bo'ladi. Rentgenologik tekshirishda chegarasi aniq bo'lgan, suyakning yumshoq o'chog'i ko'rindi va unda zichlashgan ohakli moddaga o'xhash tugunlar hosil bo'ladi.

Odontogen fibroma. Odontogen fibroma xavfsiz, fibroplastik o'sma. O'smaning kelib chiqishi mezinxemal dentin to'qimaga bog'liq bo'lib tish ildizi yoki chiqmagan tish tojchasiga bog'liq holda joylashadi. O'sma odatda sekin va bilinmasdan o'sadi.

Epulis. Epulis jag' sistemasida uchraydigan o'smasimon o'zgarishdir. Jag'larning alveola qirrasida joylashadi. Periodont to'qimasidan rivojlanadi. Epulis uch turdan iborat: fibromatoz, angiomatoz, gigant xujayrali. Epulisning o'lchami 2–4 sm ga yetadi. Ko'pincha frontal tishlar sohasida alveola o'sig'i qirrasida, vestibulyar yuzada joylashadi. Shakli qum soat shakliga o'xshaydi, uning toraygan qismi tishlar orasida joylashadi. Gigant hujayrali epulis to'q qizil rangga ega. Epulisning o'sishi natijasida tishlar qimirlaydi va siljiydi. Rentgenogrammada jag' suyak to'qimasining yemirilishi kuzatiladi.


YUMSHOQ TO‘QIMA O‘SMALARI

Fibroma. Tolali biriktiruvchi to‘qimadan tashkil topgan. Yumaloq shaklga ega, och pushti rangli shilliq parda bilan o‘ralgan bo‘ladi. Uchinchi molyar tishlar sohasidagi alveola o‘sig‘ining tanglay yuzasida joylashadi (44-rasm) yoki pastki jag‘ning alveola o‘sig‘ida til yuzasida joylashadi.

Papiloma. Milk so‘rg‘ichining va til so‘rg‘ichlarining o‘sishidir. Och pushti yoki jigarrangga ega bo‘lib, gul karamga o‘xshab ketadi. Yumshoq va zich papilomalarning turi mavjud. Papiloma tilda, tanglayda va lunj shilliq pardasida joylashadi. U tez jarohatlanishi va yallig‘lanishi mumkin.

Gemangioma. Qon tomirlarining tug‘ma rivojanishining buzilishi oqibatida kelib chiqadi. Ko‘proq yumshoq to‘qimalarda bo‘ladi. Gemangiomalar uchga bo‘linadi: kapillar, kavernozi va tarmoqlangan. Gemangioma turlari aralashgan holda ham uchrashi mumkin. Oddiy gemangioma yuza joylashib alvon qizil yoki to‘q ko‘kimir tusga ega bo‘ladi. Uning rangi tashkil etuvchi komponentlariga bog‘liq (arteriya yoki vena).

Limfangioma. Limfangioma limfa tomirlari rivojlanishining buzilishi. O‘sma til, lab sohasida joylashadi va tez o‘sadi. Yallig‘lanishi ham mumkin. Bunda bemorning tana harorati ko‘tariladi. Tili to‘q qizil tusga kiradi va so‘rg‘ichlari bo‘rtib qoladi.



44-rasm. Alveola o‘sig‘ining odontogen fibromasi.

Ateroma. Yog‘ bezlari sekretining ajralishi va chiqishining to‘siliishi oqibatida kelib chiqadi. Ateroma yuzda, boshda bo‘lib katta hajmlarga yetishi mumkin. Ateromalar bitta va ko‘p bo‘lishi mumkin. O‘sma yumaloq shaklga ega bo‘lib, yumshoq va elastik bo‘ladi. Ustini qoplab turgan terining rangi o‘zgarmaydi.

OSTEOGEN JAG‘ O‘SMALARI

Xondroma. Tog‘ay to‘qimasidan tashkil topadi, kam uchraydi. Jag‘ning ichki yuzasida bitta yoki ko‘plab tugunchalar paydo bo‘ladi. Ko‘pincha jag‘larda jarrohlik muolajasini o‘tkazilganidan so‘ng paydo bo‘ladi.

Osteoma. Suyak to‘qimasidan hosil bo‘ladi. Tuzilishiga ko‘ra zich, spangioz va aralash turlari bor. O‘sma funksional o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

XAVFLI O‘SMALAR

Xavfli o‘smalar tez rivojlanib, metastaz berish xususiyatiga ega. Atrofdagi a’zo va to‘qimalarga invaziya (infiltrativ) o‘sib kirishi nati-jasida yemiradi, o‘smaning chegarasi noaniq bo‘lganligi uchun jarrohlik yo‘li bilan olib tashlanganda qayta o‘sishi mumkin, organizmni zaharlab umumiy ta’sir ko‘rsatadi va kasalni ozdiradi. Xavfli o‘smalar da to‘qima atipizmidan tashqari hujayra atipizmi kuzatiladi. Hujayra-ning shakli, hajmi, sitoplazmaning rangi har xil bo‘ladi. O‘zaklarning soni, shakli, joylanishi, hajmi va bo‘linishi xilma-xil bo‘ladi. Xavfli o‘smalar to‘qimasi tuzilishi atipizimidan tashqari biokimyoviy, immunoologik va funksional atipizmga ham ega bo‘ladi.

Yuqori jag‘ raki. Kalla skeleti suyaklari orasida yuqori jag‘ning xastalanishi ko‘proq 40–60 yoshlar orasidagi erkaklarda uchraydi. Kasallik kelib chiqishi tanglay, yuqori jag‘ bo‘shlig‘ining, alveola qirrasining shilliq pardasidan boshlanadi. Kasallik, avval sezilarsiz boshlanadi. O‘sma yuqori jag‘ bo‘shlig‘ida joylashsa bemorning bu-rundan nafas olishi buziladi, burnidan yiring, qon aralash noxush hidli ajralma chiqadi. Bemorning tishlar sohasida uvishish sezgisi paydo

bo'ladi. Keyinchalik alveola o'sig'i kengayadi, tanglay gumbazi pasa-yadi, tishlari qimirlab qoladi. Rinoskopiya o'tkazilganda yuqori jag' bo'shlig'ining old devorining shishganligi, shilliq pardanining yallig'lanib, ko'kintir tus olganligi aniqlanadi. Tashxisni tomografiya va sitologik tekshirish natijalarini asosida aniqlanadi.

Pastki jag' raki. Yuqori jag' rakiga nisbatan pastki jag' raki kam-roq uchraydi. Ko'proq 40–60 yoshlardagi erkaklar kasallanadi. Pastki jag' raki varrikoz yoki eroziv leykoplakiya fonida rivojlanadi. Kasallikning erta aniqlanishi tasodifiy bo'lishi mumkin, sababi kasallik sezilarsiz rivojlanadi. Kasallikning klinik belgilari uning o'sishiga bog'liq. O'sma o'sishi jarayonida pastki jag' kattalashadi va deformatsiyalanadi. Og'iz bo'shlig'i shilliq pardasida chuqur tubli yaralar paydo bo'ladi. Rentgenogrammada noaniq chegaralarga ega bo'lgan destruksiya o'chog'i aniqlanadi, xuddi «eriyotgan qand» ga o'xshaydi.

KAPOSHI sarkomasi. OITV kasalligi namoyon bo'lishining xarakterli belgisi hisoblanadi. O'sma limfa tolalaridan hosil bo'ladi. Ko'pincha oyoq terisida kuzatiladi. KAPOSHI sarkomasi og'iz bo'shlig'ida tanglay ba'zan milkda joylashadi. Kasallikning boshlang'ich ko'rinishida tanglay yoki milkda ko'kintir, qora tusli dog'lar paydo bo'ladi (29-rasm). Ushbu jarayon kuchli og'riqlar bilan kechadi. Dog'-lar tobora kattalashadi, rangi to'qaradi, bo'laklarga bo'linadi va tarmoqlanadi.

Xafli o'smalarni davolash.

Xafli o'smalarni davolash o'smalarni davolashda quyidagi usullaridan foydalaniladi:

- Jarrohlik;
- Nur bilan davolash;
- Kimyoterapiya;
- Germonoterapiya.

Yuqorida qayd qilingan davolash usullari ko'pincha birga qoshib olib boriladi.

Tayanch iboralar:

O'sma – turli sabablar oqibatida to'qimalarning patologik ko'payishi;

Xavfsiz o'smalar – sekin rivojlanib, chegarasi aniq bo'lgan, metastoz, qaytalanmaydigan, kaxeksiyani olib kelmaydigan o'sma turi;

Xafli o'smalar – yoshi yetilmagan to'qimadan rivojlanib, tez o'sadigan, qoshni to'qimalarga o'sib kiradigan, metastoz va qaytalaydigan, kaxeksiyaga olib keladigan o'sma turi;

Metastoz – o'sma hujayralarining limfa, qon tomirlar orqali tarqalishi;

Retsediv – qaytalanish;

Kaxeksiya – bemorda umumiy holsizlik paydo bo'lishi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. O'sma deganda nimani tushunasiz?
2. O'smalar qanday to'qimalardan rivojlanadi?
3. Qanday o'smalar turi mavjud?
4. Xafsiz o'smalar qanday xususiyatlarga ega?
5. Yuz-jag' sohasi xafsiz o'smalari nechta turga bo'linadi?
6. Qanday odontogen xafsiz o'smalarini bilasiz?
7. Xafli o'smalar qanday xususiyatlarga ega?
8. Yuz-jag' sohasining qanday xafli o'smalarini bilsiz?
9. O'sma kasalliklari qanday tekshirishlar natijasida aniqlanadi?
10. O'sma kasalliklari qanday davolanadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *M.T. Александров.* «Стоматология» – Москва: «ГЕОТАР-МЕДИА», 2008 г.
2. *X.P. Komilov.* «Terapevtik stomatologiya. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasi kasallikkлari» – Toshkent: «Yangi asr avlodи», 2005-y.
3. *S.H. Yusupov.* «Tish jarrohligi stomatologiyasi va yuz-jag‘ travmatologiyasi» – Toshkent: «ILM ZIYO», 2005-y.
4. *П.А. Леус.* «Заболевания зубов и полости рта» – Минск: «Вишэйная школа», 1998 г.
5. *Е.Б. Баровский.* «Терапевтическая стоматология» – Москва: «Медицина», 2002 г.
6. *Т.Г. Робистовой.* «Хирургическая стоматология» – Москва: «Медицина» 2002 г.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. OG‘IZ BO‘SHLIG‘I ORGANLARI ANATOMIYASI, GISTOLOGIYASI VA FIZIOLOGIYASI	4
Yuqori jag‘ suyagi.....	4
Pastki jag‘	5
Og‘iz bo‘shlig‘i.....	6
Tishlar	8
Tish guruhlari	10
Tishning anatomik tuzilishi.....	11
Tishning histologik tuzilishi.....	12
Periodont	13
Parodont	15
Tishlarning farqlovchi belgilari.....	15
II BOB. AHOLIGA STOMATOLOGIK YORDAM TASHKIL ETISH	18
Stomatologik xonalarning jihozlanishi	18
Stomatologik moslamalar	20
Bor mashinalar.....	20
Stomatologik asboblar	20
III BOB. ASEPTIKA VA ANTISEPTIKA	25
Foydalanilgan stomatologik asboblarga ishlov berish	27
Steril stolni tayyorlash.....	28
IV BOB. STOMATOLOGIK BEMORNI TEKSHIRISH USULLARI	30
Yordamchi tekshirish usullari	32
Stomatologik bemorning kasallik varaqasi.....	36
V BOB. STOMATOLOGIYADA OG‘RIQSIZLANTIRISH	39
Umumiy og‘riqsizlantirish.....	39
Premedikatsiya.....	40
Mahalliy og‘riqsizlantirish	41
Mahalliy og‘riqsizlantirishda uchraydigan xato va asoratlар	43
VI BOB. TISH QATTIQ TO‘QIMALARINING NUQSONLARI	49
Tish qattiq to‘qimalarining nokariyesli nuqsonlari.....	49
Tishning rivojlanish davrida hosil bo‘lgan nuqsonlari	50
Endemik flyuropoz	51
Tish milkni yorib chiqqanidan so‘ng hosil bo‘lgan nuqsonlar	53
Tish jarohatlari	55
Kariyes	57

Yuza kariyes.....	60
Kariyes profilaktikasi	63
VII BOB. PULPITLAR	65
O'tkir pulpitlar	66
Surunkali pulpitlar	66
Pulpitlarni davolash	67
VIII BOB. PERIODONTITLAR.....	73
Periodontitlar tasnifi	73
O'tkir periodontitlar.....	74
Surunkali periodontitlar	75
Periodontitlarni davolash	77
IX BOB. PARODONT KASALLIKLARI	80
Gingivitlar	81
Parodontitlar.....	82
Parodontoz.....	87
Parodont to'qimasining neoplastik yallig'lanishi.....	88
X BOB. OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ PARDASI KASALLIKLARI	90
Jarohat oqibatida kelib chiqqan kasalliklar.....	91
Mexanik shikastlanish	91
Yuqumli kasalliklarda shilliq parda jarohati	94
Allergik va toksik allergik kasalliklar	99
Og'iz bo'shlig'i shilliq pardasining ekzogen intoksikatsiyalardagi o'zgarishlari.....	102
Tizim kasalliklarida og'iz bo'shlig'i shilliq pardasining o'zgarishi.....	102
Til anamaliyasi va tegishli kasalliklar	103
Lab kasalliklari	104
XI BOB. YUZ-JAG' SOHASI YALLIG'LANISH KASALLIKLARI	106
Jag' periostitlari	106
Jag' osteomiyelitlari	107
Yuz-jag' sohasi absessi va flegmonalari	110
Limfadenitlar	112
XII BOBTISH OLISH OPERATSIYASI	114
Omburlar yordamida tish olish operatsiyasi	115
Tish olish operatsiyasi asoratlari	118
XIII BOB. YUZ-JAG' JAROHATLARI	123
Pastki jag' jarohatlari va sinishlari.....	123
Yuqori jag' jarohatlari va sinishlari	125

Yuz-jag‘ sohasi jarohatlari va sinishlarida bиринчи тиббиёй ўордам	126
Jag‘ sinishlarini davolash usullari.....	129
Suyak bo‘laklari repozitsiyasi	129
Pastki jag‘ning siljishimi immobilizatsiya qilish	129
Yuz-jag‘ sohasi shikastlangan bemorlarni parvarish qilish.....	131
Og‘iz bo‘shlig‘ini parvarish qilish.....	132
Shinalarni kuzatib borish	132
XIV BOB. YUZ-JAG‘ SOHASI O‘SMA KASALLIKLARI.....	134
Yuz-jag‘ sohasi xavfsiz o‘smalari.....	134
Odontogen kistalar.....	134
So‘lak bezi kistaları	135
Odontogen o‘smalar va o‘smasimon o‘zgarishlar	136
Yumshoq to‘qima o‘smalari.....	137
Osteogen jag‘ o‘smalari	138
Xavfli o‘smalar	138
Foydalaniman adabiyotlar:	141

TASHPULATOVA N.A.

STOMATOLOGIK KASALLIKLAR

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

3-nashr

Muhammadiy: *N. Umarova, S. Akramov*

Badiiy muhammadiy: *X. Yakubov*

Musahhih: *L. Oppoqova*

Kompyuterda tayyorlovchi: *Ye. Belyatskaya*

«VORIS-NASHRIYOT», Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Nashriyot litsenziyasi AI № 195. 28.08.2011.

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 05.10.2017. Bichimi 60×84¹/₁₆.

Shartli b.t. 9,0. Nashr b.t. 7,85. Adadi 716 nusxa.

Buyurtma №513

«NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,

Mash‘al mahallasi Markaziy ko‘chasi, 1-uy.